

ISSN: 2181-4147

Scientific Journal

Scholar

Volume 1, Issue 4



2023/4
February

TOGETHER WE REACH THE GOAL

ISSN 2181-4147
VOLUME 1, ISSUE 4
FEBRUARY 2023



<https://researchedu.org/index.php/openscholar/issue/view/58>

“SCHOLAR” SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 1, ISSUE 4, FEBRUARY, 2023

EDITORIAL BOARD

G. Kholmurodova

Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

G. Sotiboldieva

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

D. Darmonov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

X. Abduxakimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Ruzmetov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Yusupova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

M. Kambarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University

S. Sadaddinova

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of
Information Technologies*

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Muminova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

B. Kuldashov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Kh. Askarov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

O. Rahmonov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

G. Tangirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Ubaydullaev

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

R. Yuldasheva

Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

M. Yuldashova

Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University

OMON MATJON LIRIKASIDA SIFATLASHLARNING QO‘LLANILISHI

Xurshida Qodirova

UrDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasida katta o‘qituvchisi,

xurshida.q@urdu.uz

Mahliyo Ithomboeva

UrDU Filologiya fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada Omon Matjon asarlaridagi ayrim sifatlashlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *badiiy asar, onomastika, lingvopoetika, sifatlash.*

АБСТРАКТНЫЙ

В статье анализируются некоторые характеристики в произведениях Амона Матжона.

Ключевые слова: *художественное произведение, ономастика, лингвопоэтика, квалификация.*

ABSTRACT

The article analyzes some characterizations in the works of Amon Matjon.

Key words: *artistic work, onomastics, lingvopoetics, qualification.*

Adabiyotimizda iz qoldirgan har bir ijodkor asarlarining tilini o‘rganish adib mahoratini o‘rganish, shu bilan birga, tilimiz rivojiga uning asarlari tili ta’sirini, tadqiqotning esa tilshunosligimiz taraqqiyotiga qay darajada ta’sir ko‘rsatayotganligini belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi¹.

Bu diyorda tug‘ilib kamolga yetgan Erkin Samandar, Omon Matjon, Komil Avaz, Gavhar Ibodullayeva kabi o‘nlab shoir va yozuvchilar o‘zbek adabiyotiga munosib hissa qo‘shib kelayotganini xalqimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi².

Tilimizda nutqiy aloqani ta’minlashga xizmat qiluvchi vositalar ko‘p. Kishilar o‘zaro munosabatga kirishishda, avvalo, nutqning qaysi shakli va ko‘rinishidan foydalanishiga, kommunikativ maqsadning qanday ekanligi hamda uning samarali

¹ Шадиева Дилфуза Шамирзаевна. Мухаммад Юсуф шеърини лингвопоэтикаси. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2007. – Б. 4.

² Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 247.

yakun topishiga intilishiga qarab nutq vaziyati uchun mos keluvchi til birliklarini tanlab oladilar, muomalaga kiritadilar. Soʻz orqali inson katta yutuqni qoʻlga kiritdi, bu vosita natijasida uning olami ikkilandi. Soʻzga ega boʻlgunga qadar faqat bevosita koʻrinib turgan narsa bilan ish koʻrgan mavjudot tilga ega boʻlishi bilan faqat borliq elementlari bilangina emas, balki bevosita kuzatmagan narsa va hodisalar bilan ham ish koʻra oladigan boʻldi. Soʻz insonga bevosita kuzatishda berilmagan narsa va hodisalar haqida ham axborot bera oladi. Shuning uchun ham hayvonot faqat bir olamga - sezgi orqali his qilish mumkin boʻlgan predmetlar olamiga ega boʻlsa, inson ikki olamga - sezgi orqali his qiladigan olam bilan birga, soʻz orqali ifodalanadigan obrazlar, munosabat, sifatlar dunyosiga ega boʻldi¹.

Omon Matjon XX asr zamonaviy oʻzbek sheʼriyatining yirik vakili, ijodkorlaridan biridir. Ularning sheʼrlarida inson sadoqati, lirik qahramon qalbining turfa jilolari rang-barang tashbehlarida, jozibali obrazlarda tasvirlangan. Omon Matjon sheʼriyati uchun ifoda lingvopoetik vositalarning sifatlash, jonlantirish, takror kabi turlari faol qoʻllanilgan boʻlib, ular badiiy-estetik taʼsirchanlikni oshirishga, turli maʼno nozikliklarini ifodalashga xizmat qilgan. Asosan, shoirning ijodida sifatlashlarning qoʻllanishi salmoqli oʻrinni egallaydi.

Sifatlash – predmetning sifatini taʼsirli, obrazli ifodalash uchun ishlatiladigan soʻz. Til nuqtai nazaridan qaralsa, sifatlash hamisha aniqlovchi vazifasida keladi, lekin oddiy aniqlovchidan farqli ravishda, badiiy funksiyani oʻtaydi².

Shoir lirikasida sifatlashlarning qoʻllanilishi misralarga badiiy joziba bagʻishlangan:

*Oʻrtamizda birgina olma,
Barmoq uchi tegsa tovlanar.
Alvon iffat, yashil tashnalik,
Bir senga, bir menga dovlanar³.*

¹ Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент, 2008. – Б. 176.

² Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 91.

³ Омон Матжон Ўртамизда биргина олма. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990. – Б. 28.

“O‘rtamizda birgina olma” deb boshlanuvchi ushbu she‘rida *alvon iffat, yashil tashnalik* kabi birikmalaridagi *yashil, alvon* so‘zlari sifatlash bo‘lib kelgan.

She‘riyatdagi sifatlashlar ifodaning yorqin, tasvirning jonli bo‘lishiga xizmat qilib, estetik ta‘sir kuchini oshirgan.

Sifatlashlar silsilasini istifoda etishni keyingi “Ayriliq” nomli she‘rida ham kuzatishimiz mumkin:

*Toshkentda tong otdi qachonlar,
Sen unda soatni tezlaysan...
Shoshasan zangori qutiga
Cho‘zilib... oq konvert izlaysan¹.*

Misralarga alohida ko‘rk va joziba bag‘ishlayotgan *zangori quti, oq konvert* birikmalari sifatlashga yana bir misol bo‘la oladi. Bu birikmalardagi *zangori, oq* so‘zlari badiiy vosita hisoblanadi.

Sifatlashlar ko‘p hollarda belgini ko‘chma ma‘no orqali ifodalaydi. Bu ilmiy tilda metaforik epitet deyiladi².

Navbatdagi she‘rda ham aynan shu ruh davom etadi:

*G‘aroyib ma‘ruza qildingiz domla
Tabiatning “qizil kitob”i haqda!
Qirilmoqda ekan noyob jonvorlar
Afrikami, Misissipi yoqda!³*

“Tabiatning qizil kitobiga” nomli she‘rida ham sifatlashlarni uchratishimiz mumkin. Bular, *g‘aroyib ma‘ruza, qizil kitob, noyob jonvorlar* birikmalaridagi *g‘aroyib, qizil* va *noyob* so‘zlaridir.

Aynan shu she‘rida birikmali sifatlashlardan tashqari qo‘shma sifatlashlarni ham uchratishimiz mumkin:

*Vulqonrux bizonlar tun ko‘z ohular
Yo jannatoshiyon humo qushlari...
Bari sekin-asta kamaymoqda ekan,
Tugab borayotgan ekan pushtalari⁴.*

Misralardagi *vulqonrux, jannatoshiyon* so‘zlari qo‘shma sifatlashlardir. Bular she‘rga birikmali sifatlashlardan alohida ajralgan holda ko‘rk va estetik joziba

¹ Omon Matjon. Umr o‘tar, vaqt o‘tar. – T.: O‘zbekiston, 2016. – B. 34.

² Куронов Д. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2013. – Б. 369.

³ Омон Матжон Ёнаётган дарахт. – Тошкент: Ф. Фулом, 1977. – Б. 10.

⁴ Омон Матжон Ёнаётган дарахт. – Тошкент: Ф. Фулом, 1977. – Б. 10.

bag'ishlamoqda. She'riyatda tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Bularning ahamiyati she'rning jozibasini yanada oshirganligi va tinglovchini yanada o'ziga jalb qila olishida. Badiiy tasvirni turli vositalar orqali ifodalash mumkin, ular asarga o'zgacha ma'no va joziba beradi. Omon Matjon so'zga chechan va novator shaxs sifatida so'zlarning qo'llanilishiga katta e'tibor bergan va asarlarini ham shunday badiiy tasvir vositalari bilan boyitgan.

Sifatlashlar Omon Matjon ijodida qahramon ichki olami, ruhiyati, nutq obyektini aks ettirishdan tashqari poetik matnda obrazlilikni hosil qiladi. Sifatlashlar Omon Matjon she'riyatida emotsionallikni ta'minlovchi asosiy lingvopoetik vositalardan biri sifatida baholash vazifasini bajaradi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar Omon Matjonning lingvopoetik vositalardan foydalanishda mohir so'z san'atkori ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Omon Matjon. Umr o'tar, vaqt o'tar.* – T.: O'zbekiston, 2016.
2. *Куронов Д. Адабиётшунослик лугати.* – T.: Академнашр, 2013.
3. *Мирзиёев Ш.М. Буюк келажегимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз.* – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
4. *Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилишунослик назарияси.* – Тошкент, 2008.
5. *Омон Матжон Ёнаётган дарахт.* – Тошкент: F. Фулом, 1977.
6. *Омон Матжон Ёнаётган дарахт.* – Тошкент: F. Фулом, 1977. – Б. 10.
7. *Омон Матжон Ўртамизда биргина олма.* – Тошкент: Ёш гвардия, 1990.
8. *Ҳожиев А. Тилишунослик терминларининг изоҳли лугати.* – T.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
9. *Шадиева Дилфуза Шамирзаевна. Муҳаммад Юсуф шеърляти лингвопозтикаси. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.* – T.: 2007.

НЕОБХОДИМОСТЬ, СУЩНОСТЬ И ФУНКЦИИ КРЕДИТА

Нуриддинова Умида, Мусурмонова Паризода
студенты, Самаркандский институт экономики и сервиса

Научный руководитель: **Каримова Азиза Махомадризовна**
PhD, и.о.доц., Самаркандский институт экономики и сервиса

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с необходимостью, сущностью и функциями кредита. Рассматриваются понятия субъектов и объектов кредита, а также подробно изложены принципы кредитования. Проведена классификация и даны подробные изложения касательно видов и форм кредита.

***Ключевые слова:** экономика, банк, деньги, кредит, капитал, кредитор, денежные средства, платёжные средства, движение средств, предприятие, продукция, объект кредитования, субъект кредитования*

Введение. Первые упоминания о кредите, а именно о его примитивных формах займа существовали ещё в эпоху Древнего Египта, Античных Греции и Рима. Первые кредитные отношения на уровне государства, весьма схожие по своим экономическим правилам к теперешнему времени, стали возникать в Европе в середине XV века. Это во многом было вызвано началом промышленного развития Старого Света, а также тому, что церковь перестала осуждать различные долговые займы, векселя, расписки. Одними из первых стали создаваться банки в Италии и Англии. Процентные ставки по кредитам европейских банков изначально доходили до 10%, а в последующие 100 лет снизились до 6 %. Считается, что кредитование уже существовало в Ассирии, Вавилоне и Древнем Египте. В те времена, 3 000 лет назад, были те, кто давал, и те, кто брал в долг, причем, как правило, согласно действующим законам, должник, не сумевший вовремя погасить свою задолженность, становился рабом кредитора.

Кредит обеспечивает трансформацию денежного капитала в ссудный и выражает отношения между кредиторами и заемщиками. При его помощи свободные денежные капиталы и доходы предприятий, личного сектора и государства аккумулируются, превращаются в ссудный капитал, который передается за плату во временное пользование.

Основная часть. По более современной и простой формулировке **кредит** — это финансовые отношения двух сторон, где одна предлагает деньги, а вторая обещает их вернуть в указанные сроки. С точки зрения банка, кредитование — это получение денег заемщиком на индивидуальных условиях, которые всегда прописаны в договоре: даты и размер ежемесячных платежей.

Если не хватает средств на приобретение нужных товаров, реализацию крупных целей, то можно обратиться в банк. Банк выдаст необходимую сумму под проценты — это и называется **банковским кредитом**.

Кредитные отношения возникают не в сфере производства, а в сфере обмена, где владельцы товаров противостоят друг другу как собственники, юридически самостоятельные лица, готовые вступить в экономические отношения. Экономической основой, опираясь на которую развиваются кредитные отношения, выступает **кругооборот и оборот средств (капитала)**. Процесс движения капитала создает объективную необходимость появления кредита.

Движение средств — не только их кругооборот, но и оборот. Денежные средства, полученные после реализации продукции, вновь расходуются: приобретаются новые средства производства, выплачивается заработная плата; кругооборот вновь и вновь повторяется, происходит постоянное круговращение средств.

Субъектами кредитования являются юридические либо физические лица, дееспособные и имеющие материальные или иные гарантии совершать экономические, в том числе кредитные, сделки.

Заемщиком может выступить любой субъект собственности, внушающий банку доверие, обладающий определенными материальными и правовыми гарантиями, желающий платить процент за кредит и возвращать его кредитному учреждению. Субъекты получения кредитов могут быть разного уровня - от частного лица, предприятия до государства.

Объект кредитования — это вещь, под которую выдается кредит и ради которой заключается кредитная сделка. Кредиты выдаются под разные элементы материальных запасов. В промышленности банки кредитуют сырье, основные и вспомогательные материалы, незавершенное производство, готовую продукцию и др., в торговле - товары, находящиеся в товарообороте.

Объект банковского кредитования может быть **частным** (то, под что выдается кредит, обособляется, отделяется от объекта других кредитов) или **совокупным** (кредит выдается под множество объектов, не обособленных друг от друга). Кредит не обязательно выдается на формирование материального

объекта – объектом может выступать его потребность в дополнительных ресурсах.

В широком смысле объект выражает материальный процесс в целом, который вызывает потребность в кредите и ради обеспечения непрерывности и ускорения которого заключается кредитная сделка. В этом случае объектом кредитования может быть временный разрыв в платежном обороте, когда собственных средств и поступающей выручки (доходов) предприятия оказывается недостаточно для осуществления текущих или предстоящих платежей. Причины такого разрыва носят объективный характер (сезонность производства, снабжения и сбыта продукции; текущие временные потребности в платежах).

Основными принципами кредитования, которые должны соблюдаться в процессе выдачи и погашения кредитов, являются:

1. *Срочность возврата*
2. *Обеспеченность*
3. *Целевой характер*
4. *Платность*

Срочность возврата предполагает возврат выданного кредита в установленных объемах и срок. **Обеспеченность кредита** увязывает его выдачу и погашение с материальными процессами, гарантирующими возврат предоставленных денежных средств. Обеспечение должно быть ликвидным и полным. Даже когда банк предоставляет кредит на доверии (бланковый кредит), у него должна быть безусловная уверенность в том, что кредит будет своевременно возвращен. Необеспеченные кредиты могут предоставляться в крупных суммах только крупным предприятиям, т.е. первоклассным заемщикам, имеющим квалифицированное руководство и прекрасную историю развития. **Целевой характер кредита** предусматривает выдачу и погашение кредита в соответствии с целями, заявленными при заключении кредитной сделки.

Платность кредита обуславливает плату за его использование, в частности в форме ссудного процента.

Под **условиями кредитования** понимаются требования, которые предъявляются к определенным (базовым) элементам кредитования: субъектам, объектам и обеспечению кредита. Иными словами, банк не может кредитовать любого клиента и что объектом кредитования может быть только та потребность заемщика, которая связана с его временными платежными затруднениями, с необходимостью развития производства и обращения продукта.

Условия кредитования состоят в следующем:

1. *совпадение интересов обеих сторон кредитной сделки;*
2. *наличие возможностей как у банка-кредитора, так и у заемщика*
3. *выполнять свои обязательства;*
4. *возможность реализации залога и наличие гарантий;*
5. *обеспечение коммерческих интересов банка;*
6. *заключение кредитного соглашения*

Кредит — как неотъемлемая часть рыночной экономики, выполняет **четыре основные функции:**

1. **Стимулирующая.** Заемщик обязуется вернуть всю сумму вместе с процентами, это делает его более мотивированным. Люди эффективнее распоряжаются полученными деньгами и снижают необязательные издержки — меньше тратятся на то, без чего можно обойтись.

2. **Социальная.** Банки предлагают оформлять образовательные кредиты, некоторые такие программы частично или полностью обеспечены за счет государственного бюджета.

3. **Распределительная.** Финансовая организация принимает наличные у вкладчиков и направляет полученные свободные деньги заемщикам под проценты.

4. **Контрольная.** В некоторых продуктах финансовая организация следит за целевым расходованием — сумма должна идти на определенные и заранее согласованные цели, указанные в договоре. Например, так работает автокредит, ипотека или кредит на образование.

Классификаций кредитов несколько. Например, если рассматривать программы по источникам и целям кредита, можно выделить следующие формы (виды) кредита:

1. **Банковские.** Эти средства выдают физическим и юридическим лицам, а также индивидуальным предпринимателям. Годовую процентную ставку в этом случае устанавливает финансовая организация на основе конкретного предложения, внутренней политики и ключевой ставки Центрального Банка.

2. **Коммерческие.** Еще их называют товарными. Кредит предоставляется продавцами покупателям (другой компании или индивидуальным предпринимателям) в виде отсрочки платежа за проданные товары или покупателями в виде аванса, предоплаты за поставляемые товары. Например, организация может получить всю партию товара сразу, а расплачиваться за нее частями. Законом процентная ставка в этом случае не регулируется, она оговаривается и согласуется сторонами, а затем условия прописываются в договоре.

3. Государственные. Финансовые отношения между государством и юрлицом или обычным человеком. Например, чтобы взять кредит у граждан, государство может выпустить облигации (долговые бумаги).

4. Потребительский. Заемные средства на любые цели и покупки. Кредит можно использовать на путешествие, приобретение товаров и техники для дома, лечение, ремонт — на все, что нужно заемщику.

5. Ипотечный. Ипотека предлагается для покупки недвижимости. Его особенности: часто длительный срок (до 30 лет), невысокая ставка (ниже, чем при потребительском кредите) и необходимость первоначального взноса. Объект кредитования — недвижимость, которая передается в залог банку. Также кредит на покупку жилья может выдаваться и под залог имеющейся у заемщика недвижимости.

6. Автокредит. Автокредит предназначен для приобретения автомобиля физлицом или компанией. Работает так же, как ипотека. Человек покупает понравившуюся ему машину и пользуется ею. Авто находится в залоге у банка до тех пор, пока заемщик не погасит свою задолженность, поэтому не может ее продавать или дарить.

7. Образовательный. Кредит на образование в специальных учреждениях — колледжах, вузах, дополнительных программах, центрах повышения квалификации или переподготовки. С его помощью можно сразу рассчитаться за весь курс получения образования и возвращать банку небольшими частями. Такой кредит выдается студентам, абитуриентам (если у них есть постоянное место работы) или их родителям.

8. Кредитные карты. Похожи на дебетовые карточки по механизму взаимодействия. Но на кредитной карте находятся средства банка (иногда с добавлением личных финансов владельца). С ее помощью оплачивают любые покупки безналичным способом. Можно рассчитаться за проживание в отеле, аренду авто, путешествие, лечение или другую трату. Кредитная карта — это один из видов банковских кредитов, которым можно воспользоваться в любое время в рамках суммы, которая находится на персональном счете. Чтобы погасить задолженность по кредиту, нужно внести потраченные средства обратно на карту переводом, в банкомате или другим удобным способом. За платежи и возврат долга в рамках льготного периода по кредитной карте клиенту не начисляются проценты. После окончания грейс-периода к задолженности добавляются проценты, которые нужно платить за использование заемных средств, как при оформлении стандартного кредита в банке.

6. Рефинансирование. Деньги выдаются для погашения финансовых обязательств перед другим банком. Они переводятся на счет займа, а клиент

выплачивает новый банковский кредит на более выгодных для него условиях (другая ставка, срок или сумма). Одновременно можно получить дополнительные средства на личные цели.

Заключение и предложение. Таким образом кредитование формирует необходимый механизм перераспределения денежных средств между отраслями экономики и субъектами хозяйства. В свою очередь значение которого характеризуется результатами его применения для экономики, государства и населения, а также особенностями методов, с помощью которых эти результаты достигаются. Результаты применения кредита очень важны и многообразны. Т.е. кредит, используемый для возвратного предоставления средств, влияет на процессы производства, реализации и потребления продукции и на сферу денежного оборота. Кредиторы, имеющие свободные средства, только благодаря их передаче заемщику имеют возможность получить дополнительные денежные средства. Кредит, предоставляемый в денежной форме, формирует новые платежные средства и дает возможность восполнить потребность в финансовых средствах как юридических, так и физических лиц.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Закон Республики Узбекистан «О Центральном банке Республики Узбекистан» от 11 ноября 2019 г.
2. У.Азизов, Т.Каралиев и др. «Банковское дело» учебное пособие. Ташкент 2018г.
3. Л.Г.Мишура. Банковское дело: Учебное пособие. - СПб: Университет ИТМО, 2016 - 61с.
4. BEKTEMIROV A. et al. MONEY AND BANKS. - 2019.
5. Mahommadrezaevna K. A. Sources of financing and factors hindering the development of innovative activities of the sphere of tourism //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2020. – Т. 9.
6. Каримова А. М. Необходимость совершенствования кредитной поддержки инновационного развития предприятий сферы туризма //Журнал Инновации в Экономике. – 2021. – Т. 4. – №. 1.
7. Mahomadrizoevna K. A. Analysis and the need to improve credit support for the development sphere of tourism //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – Т. 1. – №. 1.1 Economical sciences.
8. Каримова А. Совершенствование банковского кредитования инновационного развития предприятий сферы туризма //Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 59-65.

9. Karimova A. M. *Financial Support To Tourism Activities //International Journal of Advanced Science and Technology*. – 2020. – Т. 29. – №. 7. – С. 2010-2014.

10. Каримова, А. (2022). МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ БАНКОВСКОГО КРЕДИТОВАНИЯ И КЛАССИФИКАЦИИ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ КРЕДИТОВ. *Экономика и образование*, 23(4), 92–96.

11. Mahomadrizoevna K. A. *THE IMPORTANCE OF BANK LENDING IN THE DEVELOPMENT SPHERE OF TOURIST SERVICES //World Economics and Finance Bulletin*. – 2022. – Т. 7. – С. 11-17.

12. Ниёзов З. Д., Давронов Ш. З. *Обязательное медицинское страхование: сущность и вопросы внедрения в Узбекистане //Архивариус*. – 2020. – №. 2 (47). – С. 124-127.2.

13. Mahomadrizoevna K. A. *FEATURES OF BANK LENDING TO SUBJECTS OF THE TOURISM SERVICES SECTOR AND THEIR IMPACT ON THE ORGANIZATION OF THE LENDING PROCESS //GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY*. – Т. 25. – С. 8.

14. Abdullaeva S., Karimova A. *Credit support need for development of activities of tourism enterprises //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*. – 2020. – Т. 12. – №. 2. – С. 2855-2862.

15. Karimova A. M. *TURIZM SOHA SUBYEKTLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH ORQALI QO‘LLAB QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH //International journal of conference series on education and social sciences (Online)*. – 2021. – Т. 1. – №. 1.

16. Davronovich N. Z. *INCREASE THE EFFECTIVENESS OF USING A VEIN //World Economics and Finance Bulletin*. – 2022. – Т. 7. – С. 23-26.

17. Niyozov, Z. D., Karimova, A. M., Malikova, D. M., Togaev, S. S., & Alimova, N. K. (2019). *The introduction of innovations in the sphere of provision of services of Uzbekistan in the conditions of transition to digital economy. In International Scientific and Practical Conference " Innovative ideas of modern youth in science and education (pp. 376-378)*.

18. A. Bektemirov, A.Omonov, Z. Haydarov, Z.Niyozov. *Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. S. 2020 y. -173 b. ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi*.

19. Ниёзов З. *Организация и оплата труда в виноградарстве и их совершенствование (на материалах специализированных предприятий Самаркандского Узпдодоовошвинпром концерна)*. – 1994.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BOZOR IQTISODIYOTIGA O‘TISH DAVRI TARIXI

Hakimjon Hamdam o‘g‘li Xo‘jayev

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

xojayevhakimjon6@gmail.com

Orifjon Tohir o‘g‘li Ismoilov

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti talabasi

orifjonismoilov0525@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘lini tanlaganligi va bu borada olib borilgan ishlar haqida atroflicha yoritilgan.

***Kalit so‘zlar:** bozor iqtisodiyoti, o‘zbek modeli, milliy iqtisodiyot, milliy valyuta, mulkchilik, tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi, kichik biznes.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan vaqtdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli sho‘ro tuzumi davridagi aholini qora mehnatga mahkum etish va paxta yakkahokimligini o‘rnatish kabi iqtisodiy siyosatining natijasida juda tang ahvolga kelib qolgan edi.

O‘sha paytdagi O‘zbekiston o‘zining iqtisodiyotini rivojlantirish uchun markazdan boshqariluvchi ma‘muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish masalasini o‘z oldiga ko‘ndalang qo‘ydi. Bu yo‘lda jahon tajribasiga asoslanib, har bir mamlakat o‘zining taraqqiyot yo‘liga ega ekanligi va o‘z modelini ishlab chiqishini anglagan holda, Polsha, Chexoslovakiya, Rossiya va boshqa ayrim mamlakatlar qatori bozor iqtisodiyotiga o‘tishning revolyutsion yo‘lini emas, balki ijtimoiy himoyani mustahkamlagan holda asta-sekinlik, qat’iyatlilik bilan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning evolyutsion yo‘lini tanladi. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov shunday degan edi: “O‘zbekiston uchun o‘zi tanlab olgan yo‘l ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan, respublikaning

manfaatlariga, shart-sharoitlari va xususiyatlariga eng ko‘p darajada mos keladigan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgandir”¹.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mustaqil O‘zbekistonning bozor munosabatlari yo‘lini tanlashi milliy iqtisodiyotni shakllantirishda va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda “o‘zbek modeli” deb shuhrat qozongan taraqqiyot yo‘lini yaratishga asos bo‘ldi. Bu yo‘lni amalga oshirish uchun Islom Karimov tomonidan beshta muhim tamoyil ishlab chiqarilgan bo‘lib, bular quyidagilardan iborat: 1. Iqtisodning siyosatdan ustunligi, uni mafkuradan xoli etish. 2. Davlat bosh islohotchi va iqtisodiy o‘zgarishlarning tashabbuskori. 3. Qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning tengligi. 4. Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalashning ustuvorligi. 5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, izchil ravishda o‘tish.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning **dastlabki bosqichi** mustaqillikka erishilganidan to milliy valyutamizni ishlab chiqarishgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, bu davrda totalitar tizimning og‘ir oqibatlari yengib o‘tilib, iqtisodiyot barqarorlashtirildi va bozor munosabatlarining huquqiy asoslari yaratilib, qonuniy hujjatlar orqali mustahkamlandi. Jumladan, Oliy Kengash tomonidan iqtisodiyotga doir 100 dan ziyod qonunlar qabul qilinib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatning huquqiy-iqtisodiy negizlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo‘yildi. Shuningdek, bu bosqich bozor infratuzilmasini shakllantirish, bozorga xizmat ko‘rsatuvchi sohalarni, korxonalar, tashkilot va muassasalarni yaratish va shu asosda davlat mulkini nodavlat mulkka aylantirish, ya’ni xususiylashtirish ishlari; milliy valyutani yaratish va uni bozorga olib kirishda amaliy ishlar boshlanganligi va qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning yangi shakllarini yaratishga ilk qadamlar qo‘yilishi bilan ahamiyatlidir. Aynan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning birinchi bosqichi respublikadagi demografik vaziyatni va mamlakatdagi boshqa millatlarning madaniyati va an‘analarini unutmagan holda iqtisodiyotda va ijtimoiy sohada amalga oshirilgan tub o‘zgarishlar natijasida, davlatning taraqqiyotida sifat jihatdan yuqorilashiga shart-sharoit yaratdi. Chunki mustaqillikning ilk davrlarida respublikamiz aholisining 60% dan ortiq aholisi qishloqlarda yashaganligi kichik korxonalar va mini-zavodlarni, oilaviy va kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga zaruriy asos bo‘lib xizmat qilgan. Bozor munosabatlariga o‘tishning **ikkinchi bosqichi** o‘z o‘rnida dastlabki bosqichning mantiqiy davomi bo‘lib, unda boshlangan ishlarni davom ettirish va birinchi

¹ O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li kitobidan. Islom Karimov bosqich natijalari orqali belgilab olingan strategik maqsadlarni bajarishni o‘z ichiga oladi. Bunda davlat mulklarini xususiylashtirish ishlari oxiriga yetkazish, milliy

valyuta – so‘mni yanada mustahkamlash, makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, ishlab chiqarish sohasini xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarish bosqichiga olib chiqish va xorijdan keladigan investitsiyani rag‘batlantirish ishlari amalga oshirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyot sohasida rivojlanishini ta‘minlaydigan va erkin raqobatni yaratadigan, beshta tamoyilga asoslangan taraqqiyotning “O‘zbek modeli” o‘zining oldiga bir qancha muhim, siyosat darajasidagi masalalarni qo‘ydi. Jumladan, bulardan biri davlat mulkini **xususiylashtirish** bo‘lib, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan jamiyatni qurishning asosiy sharti hisoblanadi. Davlatda chek vositasi orqali xususiylashtirish g‘oyasidan voz kechilib, bozor qonuniyatlariga ko‘ra sotish yo‘li bilan mulkchilikning boshqa shakliga aylantirildi va imtiyoz tariqasida eskirgan asosiy fondlar, ijtimoiy infratuzilma obyektlari yangi mulkdorlarga tekinga berildi. Oliy Kengash tomonidan aynan shu masala yuzasidan 1991-yil 18-noyabrda “Mulknini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida” gi alohida qonunni qabul qildi va 1992-yil fevralda Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish Davlat qo‘mitasi ta‘sis qilindi. 1994-yilda u Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash Davlat qo‘mitasiga aylantirildi va shu yilda kichik xususiylashtirish tugallandi. 1998-yilga kelib xususiylashtirilgan korxonalar tarmog‘i keskin ko‘payib, katta ko‘lamli ishlar natijasida mamlakatda ko‘p ukladli iqtisodiyot va mulkdorlar sinfi vujudga keldi. Keyingi amalga oshirilgan eng muhim islohotlardan biri – milliy valyutani yaratish hisoblanadi. Respublika o‘sha paytda 1961-1992-yillarda chiqarilgan rublning muomalada ekanligi va rubl tazyiqi ostidaligi bozor iqtisodiyotiga o‘tishda dolzarb muammolarni keltirib chiqarayotgan edi. Ammo yangi milliy valyutani muomalaga kiritish uchun ancha vaqt va tajriba kerakligini e‘tiborga olib, 1991-1993-yillarda sobiq Ittifoqdan qolgan rubl zonasida bo‘lib turdi. 1992-yildayoq muomalaga chiqarishga mo‘ljallangan so‘m – kupon nusxalari tayyorlanadi va 1993-yil 1-noyabrda O‘zbekistonda so‘m-kupon muomalaga kiritiladi. Uning kursi oldin muomalada bo‘lib kelgan rublga tenglashtirildi va shu asosda hukumat zarur tajriba orttirib, milliy valyutani joriy qilish tadbirlarini ko‘rdi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to‘g‘risida” gi farmoniga muvofiq, 1994-yil 1-iyulidan boshlab respublikada yagona, cheklanmagan va qonuniy to‘lov vositasi sifatida milliy valyuta – so‘m muomalaga chiqarilgan. Milliy valyutaga ega bo‘lish O‘zbekiston uchun iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarning demokratlashtirish natijasidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mustaqillikka erishgan O‘zbekiston sho‘ro davridan qolgan murakkab iqtisodiy ahvoldan eng to‘g‘ri yo‘l – bozor iqtisodiyoti

yo'lini tanlagan holda, uni o'zining an'anaviy qadriyatlari, ijtimoiy, demografik holatiga va shart-sharoitlariga moslashtirilgan "O'zbek modeli" ni ishlab chiqib amalga tatbiq etdi. Bir qancha xorijiy iqtisodchi ekspertlarning fikriga ko'ra, "o'zbek modeli" – bu O'zbekistonning milliy yetakchisi Islom Karimovning kashfiyotidir. Birinchi prezidentimizning belgilab bergan beshta tamoyili qanchalik hayotga mos kelishini vaqtning o'zi ko'rsatib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <http://www.uzprogress.narod.ru/Islohotlar.htm#up>
2. <https://azkurs.org/asosiy-qisim-v2.html?page=11>
3. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/huquqshunoslik/o-zbekistonning-o-z-istiqlol-va-taraqqiyot-yo-li>
4. *O'zbekiston tarixi, o'rta ta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun darslik – T.: G'afur G'ulom, 2018*

АНДИЖОННИНГ ЭРАМИЗДАН АВВАЛГИ ҚАДИМИЙ АРХЕОЛОГИК ТОПИЛМАЛАРИ

Шавкатбекова Р.А.

ҚДПИ, тарих факультети 2-босқич талабаси

shavkatbekovarayxon081@gmail.com

Рузикулова М.Ю.

ҚДПИ, Тарих кафедраси PhD, катта ўқитувчи

АННОТАЦИЯ

Мақолада Фарғона водийсининг шарқий дарвозаси бўлмиш Андижон вилоятининг, географик ва тарихий жойлашувини ўрганар эканмиз, Шаҳар денгиз сатҳидан 450 метр баландликда географик жихатдан қулай ҳудудда жойлашган бўлиб, уни жанубий шарқдан Отчопар, Хакан адирлари ва тепаликлари ўраб туради. Фарбдан эса у водийнинг марказигача чўзилган паст-текисликлар, унумдор экин майдонлари, бог-роғлар, катта-кичик қишлоқлар билан туташиб кетган. Шаҳарнинг шимолий-шарқидан Қорадарё ва Андижонсой оқиб ўтади.

***Калит сўзлар:** Мингтепа, Эйлатон, Далварзинтепа, Сарвонтепа,*

ДРЕВНИЕ АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ НАХОДКИ АНДИЖАНА ДО НАШЕЙ ЭРЫ

Шавкатбекова Р.А.

КГПИ Кафедра истории студентка 2 курса

shavkatbekovarayxon081@gmail.com

Рузикулова М.Ю.

PhD, старший преподаватель кафедры История КГПИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается географическое и историческое положение Андижанской области, которая является восточными воротами Ферганской долины. Город расположен в географически благоприятном районе на высоте 450 метров над уровнем моря. С запада она связана с низкими равнинами, плодородными полями, садами, большими и маленькими деревнями,

простирающимися до центра долины. Реки Карадарья и Андижансай текут с северо-востока города.

Ключевые слова: *Мингтепа, Далварзинтепа, Эйлатон, Сарвонтепа*

ANCIENT ARCHAEOLOGICAL FINDS OF ANDIJAN BC

Shavkatbekova R.A.

KSPI Department of History 2-level student

shavkatbekovarayxon081@gmail.com

Ruzikulova M.Y.

PhD, Senior Lecturer department of History RSPI

ABSTRACT

In this article, we study the geographical and historical position of the Andijan region, which is the eastern gate of the Ferghana Valley. The city is located in a geographically favorable area at an altitude of 450 meters above sea level. From the west it is connected with low plains, fertile fields, orchards, large small villages extending to the center of the valley. The Karadarya and Andijansoy rivers flow from the north-east of the city.

Keywords: *Mingtepa, Dalvarzintepa, Sarvontepa, Eilatton*

«Андижон тупроғида неча асрлик маданият ва тараққийот намуналарини ўз бағрида асраб келаётган Далварзинтепа ва Эйлатон, Мингтепа ва Шўрабашот каби тарихий жойлар, кўхна ёдгорликларнинг борлиги бу заминнинг юртимиздаги қадимий цивилизация бешикларидан бири бўлганини эслатади». [1]

Неолит даври охирига келиб одамзод энг буюк кашфиётни яратди. Яъни, металлдан меҳнат қуроллари яшашни ўрганди. Дастлаб мис, кейинчалик брўнза ва темирдан тайёрланган меҳнат қуроллари пайдо бўлиши илгари асосан ёввойи ҳайвонлар ва қушларни овлаш, меваларни териб ейиш билан кун кечириб келган одамларни ерга ишлов беришга, экин экиб, қишлоқ хўжалиги махсулотлари етиштиришга ўргатди.

Тадқиқотчиларнинг фикрича, ушбу жараён қадимги Фарғона водийсида, жумладан, унинг шарқий худудидаги Қорадарё ҳавзасида тахминан милoddан аввалги иккинчи мингйилликнинг охири ва биринчи мингйилликнинг бошларига бориб тақалади. Кўчманчиликдан ўтроқ ҳолда деҳқончилик қилишга ўтилиши деярли 145 километрга чўзилиб кетган Қорадарёнинг юқори ва ўрта оқимларида одамлар истикомат қилувчи илк яшаш манзилларининг пайдо

бўлишига хизмат қилди. Ўшанда ушбу ҳудудда жойлашган. Далварзинтепа, Эйлтон археологик ёдгорликлари ўрнида энг йирик шаҳарлар мавжуд эди.

“Эрши шаҳри Андижондан унча узок бўлмаган жойда, бор-йўғи 30 чақирим нарида жойлашган эди. Шу боис Андижоннинг қадимги тарихини Даван давлати тарихи, Қорадарё бўйида жойлашган Далварзинтепа, Эйлтон маданий ёдгорликлари билан уйгун ҳолда ўрганиш мақсадга мувофиқцир”. [2]

Жалакудук туманининг Ойим қишлоғидан бироз нарида эрамиздан аввалги IX-VII асрларда Фарғона водийсида шаклланган энг қадимги шаҳар харобалари ястаниб ётибди. У Қорадарёнинг юқори оқимида, унинг чап соҳилида жойлашган бўлиб, оралиқ масофа бор-йўғи уч чақиримни ташкил этади. Дарё бўйидаги унумдор ерлар, сувнинг мўлқўллиги туфайли одамлар яшаш тарзини ўзгартириб, ўтроқ ҳолда дехқончилик килишга ўтади.

Археологларнинг аниқлашича, Далварзинтепа қадимда деворлар билан ўралган учта қисмдан иборат бўлган. Унинг 18 гектардан иборат асосий қисми турар-жой учун хизмат қилган, қолганлари эса хунармандчилик расталари, экин экиладиган ва чорва моллари боқиладиган майдонлардан иборат бўлган.

“Мингтепа, Далварзинтепа, Эйлтон археологик ёдгорликлари ҳамда Андижон шаҳридаги Сарвонтепа, Чордона, Арк ичи, Шаҳристон каби тарихий мавзеларида аниқланган археологик топилмалар, Хитой йилномаларида қайд этилган ёзма манбалар бундан 2,5 минг йил олдин ҳозирги Андижон шаҳри ҳудудида шаҳарсозлик маданияти вуджудга келганлигини ва ривожланганлигини тасдиқлайди”. [3] Одамларнинг ўтроқ ҳолда яшашга ўтиши туфайли бу ерда шаклланган дехқончилик маданияти, хунармандчиликнинг жадал ривожланиши кейинги босқичларида Андижоннинг янада тараққий этишига хизмат қилди.





Мингтепа йодгорликлари

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, археологларимиз томонидан турли даврларда олиб борилган тадқиқот ишлари натижасида Фарғона водийсининг шарқий ҳудудида, Қорадарёнинг юқори ва ўрта оқимларида эрамиздан аввалги IX-асрдан бошлаб II-асрга қадарли бўлган даврда бир қатор ривожланган шаҳарлар мавжуд бўлганлиги аниқланди. Шулардан бири Андижон шаҳридир. Биргина Сарвонтепада олиб борилган қазилма ишлари даврида аниқланган археологик комплекс ушбу шаҳарга эрамиздан аввалги VI-асрда асос солинганлигини исботлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Р.Т. Шамсутдинов А.А. Исҳоқов “АНДИЖОН ТАРИХИДАН ЛАВҲАЛАР” Т.; “SHARQ” НАШРИЁТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАҲРИРИЯТИ ТОШКЕНТ 2013. - Б. 18
2. Р.Т. Шамсутдинов А.А. Исҳоқов “АНДИЖОН ТАРИХИДАН ЛАВҲАЛАР” Т.; “SHARQ” НАШРИЁТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАҲРИРИЯТИ ТОШКЕНТ 2013. - Б. 20
3. Р.Т. Шамсутдинов А.А. Исҳоқов “АНДИЖОН ТАРИХИДАН ЛАВҲАЛАР” Т.; “SHARQ” НАШРИЁТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАҲРИРИЯТИ ТОШКЕНТ 2013. - Б. 22
4. Andijon, архитектурно-исторический ансамбль В предварительном списке всемирного наследия ЮНЕСКО с 2008 года, No529
5. Shamsiddinov R., Karimov Sh. “Vatan tarixi” (Ikkinchi kitob) Qayta tayyorlangan uchinchi nashr. “SHarq” nashriyoti, Toshkent – 2020. B. 347

JAMIYATIMIZDA IQTISODIY SOHALARDA AYOLLARNING O‘RNI

Karomat Atabayeva

UrDU Iqtisodiyot fakulteti Xotin-qizlar masalalari
bo‘yicha dekan maslahatchisi

Nazarova Oyshajon O‘rinboy qizi

UrDU Iqtisodiyot fakulteti “Buxgalteriya hisobiva audit”
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Jamiyat taraqqiyotida ayollarning ro‘li hamda iqtisodiy sohalardagi o‘rni haqida fikr boradi. O‘zbekistonda xotin-qizlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar va imkoniyatlar, ayollarga nisbatan e‘tiborning kuchliligi, bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar jarayonida gender tenglikmasalalari, xotin-qizlarni ta‘lim olishlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida so‘z yuritiladi.

***Kalit so‘zlar:** Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, gender tengli, ma‘naviy-ma‘rifiy yuksalish, ayollar himoyasi, islohotlar, ayollar bandligi, olima ayol.*

Ayol — yurt tarbiyachisi, shu bilan birga jamiyat rivojida asosiy yetakchi hisoblanadi. Uning mehr-muruvvati, muhabbati bilan sug‘orilgan navnihollari bo‘lmish ertamiz egalarining unib-o‘shishiga, kamol topishiga sabab bo‘ladi. Ayol baxtli bo‘lsa, jamiyat baxtli bo‘ladi. Xotin-qizlarni hurmat qilgan, qadrlagan yurtning esa buguni va kelajagi shubhasiz yuksakdir!

Tarixdan ham bizga ma‘lumki, ma‘rifatparvarlarning jadidchilik harakatlarida ham “xotin-qizlarni to‘laonli a‘zolari sifatida qabul qilmasdan, oila masalasini to‘g‘ri hal qilmasdan, yosh avlodni to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas, oxir-oqibatda millat taqdiri uning ayollar va oilasining holatiga bog‘liqdir” – deya xotin-qizlarni millat tayanchi, jamiyatning madaniy-ma‘naviy darajasi yuksalishida asosiy vositachi sifatida qarab o‘z g‘oyarini hayotga tadbiq etish uchun kurashganlar.

Yurtimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy faolligini oshirish masalasiga alohida e‘tibor berila boshladi. Hozirgi kunda ham davlatimiz tomonidan xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish, qadrini va qaddini ko‘tarish maqsadida ko‘plab ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ayol nozik xilqatdir, deb ta‘rif berilishi

bejizga emas. Shuning boisdan ham yurtimizda xotin-qizlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi, asrab-avaylanadi.

Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o'rnini va roli har qachongidanda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g'oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo'llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, o'zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta'minlashdan iborat. Zero, inson qadriini ulug'lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo'tabar onalarimizni e'zozlash, munis opa-singillarimizni qadrlash orqali ro'yobga chiqadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Yurtimizda xotin-qizlarning huquq-imkoniyatlarini kengaytirish, davlat boshqaruvi va jamiyatning barcha jarabalarida ularning rolini oshirishga qaratilgan tizimli yangiliklar amalga oshirilmoqda. Bu qilinayotgan ishlarning barchasi gender tenglik sohasida davlat siyosatining asosiy negiziga aylangani ham hozirgi kunda hech birimizga sir emas. Davlat boshqaruvi jarayonlarida ayollarning o'rnini oshirish uchun yetakchi lavozimlarni egallashga qodir 15 ming nafardan ortiq xotin-qizlardan kadrlar zaxirasi shakllantirilgan bunga misol bo'ladi.

O'zbekiston tarixida ilk bor milliy parlamentdagi ayollar soni 32 foizga yetdi. Mamlakatdagi rahbarlik lavozimidagi ayollar soni esa 30 foizdan oshganligini ko'rishimiz mumkin. Ayni paytda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni jamiyatda tutgan o'rnini oshirish, turli sohalarda faol xizmat qilayotgan olimalar, ziyoli ayollar hamda munis opa-singillarimizning qadr-qimmatini yuksaltirish, mehnatlarini e'tirof etish maqsadida Respublikamizda Ma'naviyat va ma'rifat markazi «Ma'rifat» targ'ibotchilar jamiyati tomonidan 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan «Ayolga ehtirom!» loyihasi o'tkazilishi va ushbu loyiha davomida yurtimizdagi 500 nafardan ziyod xotin-qizlarga bayram tuhfalari taqdim etilishini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Shunday qilib, ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida xotin-qizlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning huquqiy va institutsional mexanizmlari yaratilgan.

Iqtisodiy o'sish, bandlik va ayollar hamda kambag'allikni qisqartirish o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Davlatimiz salohiyatli kadrlarni tayyorlash hamda aholining ehtiyojmand qatlamlarini, ya'ni xotin-qizlar, yoshlar va nogironlar bandligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda.

2022 yil 1-mart kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimi hamda ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham bu

masalaga alohida e'tibor qaratildi. Kelgusi o'quv yilidan boshlab jamiyatimizda olima ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilishini ta'kidlab o'tdi.

Shu bilan birgalikda 18-iyul kuni prezident "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorga imzo chekdi. Unga ko'ra, 2022/2023 o'quv yilidan boshlab barcha xususiy, xorijiy va davlat oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shaklida xotin-qizlarning to'lov-kontrakt asosida tahsil olishi uchun imtiyozli shartlarda ta'lim kreditlarini davlat budjetidan ajratishning yangi tizimi joriy etilishi belgilab qo'yildi.

Bu yangiliklarni ilmga chanqoq opa-singillarimiz katta quvonch va hayajon bilan qarshi oldi. «Ma'rifat» targ'ibotchilar jamiyatining 150 nafardan ortiq ilm-fan, san'at va adabiyot sohalarida faoliyat olib borayotgan opa-singillarimiz, bir so'z bilan aytganda millatimizning ziyoli a'zolari ham ushbu yangilikdan xursand bo'ldi. Bu yo'lda davlatimiz rahbarining ishonchini oqlashga bel bog'laganlilarini guvohi bo'lishimiz mumkin. Shu bilan birga ko'rsatilayotgan mehr-muhabbatni yuksak baholab, barcha sohalarda o'z bilim va salohiyatlarini ko'rsatmoqda, jahon arenalarida davlatimiz bayrog'ini yanada baland tutmoqda, yer yuzidagi eng mashhur, yirik kompaniyalarda mehnat qilib, o'zbeklarning salohiyatini namoyish qilmoqda. Shuni ham ta'kislab o'tishimiz joizki iqtisod sohasida, tadbirkorlik sohalarida ham ayollarimiz peshqadamlik qilishayotganini kuzatamiz.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2020-yil 20-noyabrdagi "Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan parlament so'rovi natijalari haqida"gi qaori ham bunga misol bo'la oladi. Jumladan: Oila va xotin-qizlar qo'mitasi 2022-yilda xotin-qizlarning tadbirkorligini rivojlantirish uchun qo'shimcha 1 trillion so'm ajratiladi, deya ma'lum qilinadi. Shuningdek, soha rivoji uchun xalqaro moliya institutlaridan \$300 mln jalb etilishi ham rejaga kiritilgan edi.

Ayollarimizni huquqlarini himoya qilish uchun ham bir qancha ishlar olib borilmoqda. Ma'lumki, so'nggi to'rt yil ichida O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq

va manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyatdagi rolini kuchaytirish, oila institutini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu davr mobaynida, davlatimiz xotin-qizlarni har qanday kamsitilish va tahqirlashdan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan himoya qiladigan barcha yirik xalqaro shartnomalarga qo'shildi.

Unga ko'ra, "Ayollar va erkaklar teng huquqliligi hamda imkoniyatlarning kafolatlari to'g'risida", "Ayollarni zulmdan himoya qilish to'g'risida", "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish to'g'risida", "Oila kodeksining 15-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida", ilgari ta'qiqlangan ish shakllarini va mehnat qonunchiligining boshqa gender-assimetrik qoidalarini tanlash bilan bog'liq cheklovlarni olib tashlash to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi.

Shuningdek, bu borada mamlakatimiz rahbarining qariyb 20 dan ortiq farmonlari va qarorlari hamda hukumat qarorlari qabul qilindi. Ayni paytda, xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish uchun "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Temir daftar" kabi mexanizm joriy etildi.

Bu orqali aholining turmush darajasi chuqur o'rganilib, unda ehtiyojmand aholi qatlamlari bilan maqsadli ishlarni tashkil etishga hamda 30 dan ortiq turdagi ijtimoiy xizmatlarni elektron shaklda ko'rsatishga imkon beradi.

Shu maqsadda, 9 mezon asosida ularga 433 ming nafar xotin-qizlar kiritilib, elektron ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

Bugungi kunga qadar "daftar"ga kiritilgan xotin-qizlarning aksariyatini muammolari ijobiy hal etildi. Shunday qilib, ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida xotin-qizlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning huquqiy va institutsional mexanizmlari yaratilgan.

Iqtisodiy o'sish, bandlik va ayollar o'rtasida kambag'allikni qisqartirish o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Davlatimiz salohiyatli kadrlarni tayyorlash

hamda aholining ehtiyojmand qatlamlarini, ya'ni xotin-qizlar, yoshlar va nogironlar bandligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Gender tengligini ta'minlash, davlat va jamiyat barqarorligining asosi bo'lgan siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni amalga oshirishda ayollarning to'liq ishtirokini ta'minlashga doir ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar zamirida o'zbek ayolining ijtimoiy-madaniy, siyosiy-iqtisodiy qiyofasida katta o'zgarishlar yuz bermoqda. O'zbekistonda zamonaviy ayol ta'lim oladigan, kasb-hunar egallaydigan xizmat pillapoyalaridan ko'tarilib borayotgan, mamlakat va jamiyat hayotida bevosita ishtirok etadigan chin ma'nodagi ijtimoiy faol shaxs sifatida qaralayotganligi shu yurt farzandi sifatida bo'lg'usi onalarga kelgusi hayotlarida tayanch kuch bo'lib xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. N.Jo'rayeva. *O'zbekistonda xotin-qizlarga munosabat, (o'quv qo'llanma)*, T.-2013, - 268 b.
2. S.Djasanova. *Jamiyat hayotida xotin-qizlar va ularning ijtimoiy faolligi, (monografiya)*. T. "Tafakkur qanoti" -2014 96 b.
3. *O'zbekiston ayollari, (albom)*. Tahrir hayati: T.Norboyeva va boshqalar. T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" – 2019, 224 b.
4. *Lex.uz*
5. *gov.uz*

УСТАНОВЛЕНИЕ ДАВНОСТИ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НОСА МЕТОДАМИ ЛУЧЕВОЙ ДИАГНОСТИКИ

М.Р. Расулова

Самаркандский Государственный медицинский университет
Кафедра судебной медицины

М.З. Сайдалиева

Самаркандский Государственный медицинский университет
Медицинский профилактика 401-группы

З.Т. Бекмирзаева

Самаркандский Государственный медицинскогий университет
Медицинский профилактика 401-группы

АННОТАЦИЯ

Одним из актуальных вопросов в судебной медицине является установление давности механической травмы. В судебно-медицинской литературе большинство исследований в этом направлении были посвящены изучению реактивных изменений мягких тканей и внутренних органов [1,2].

Несмотря на большое число исследований, посвященных повреждением носа все еще остаются недостаточно изученными ряд проблем, касающихся судебно-медицинской экспертизы. К ним относится как недостаточная степень изученности морфологических особенностей повреждений, так и методологических подходов к судебно-медицинской диагностике и экспертной оценке давности травматических повреждений [3,4].

Ключевые слова: *механической травмы, судебно-медицинской экспертизы, диагностике, травматических повреждений, рентгенологических, остеокластическое рассасывание, деструктивно-резорбтивная, КТ, МСКТ.*

Цель исследования. Определить возможности установления давности переломов костей носа методами лучевой диагностики.

Материалы и методы исследования. Проанализированы данные 144 случаев судебно-медицинской экспертизы живых лиц с различными видами переломов костей носа. Динамика заживления переломов изучены результатами рентгенологических (71), КТ (48) и МСКТ (25) исследований, которые были

проведены в день получения травмы, в периоде до 4 суток, через 7, 14, 18 суток и 1 месяц после получения травмы.

При распределении потерпевших по полу в 105 (72,9%) случаях повреждения отмечались у лиц мужского пола, в 39 (27,1 %) случаях у лиц женского пола. Возраст потерпевших варьировал от 18 до 66 лет. Наиболее часто повреждения носа отмечались у лиц в возрасте 18-35 лет (72,3%). При выяснении обстоятельств травмы выявлено, что в 117 (81,3%) случаях повреждения носа были получены в результате бытовой и уличной травмы, в 22 (15,2%) случаях при автомобильной травме (12-наезд автомобилем, 14-травма внутри салона), в 5 (3,5%) при падении с высоты (3- с лестницы, 2-с высоты роста). В 141 случаях у лиц пострадавших отмечены закрытые переломы костей носа, у 3-х пациентов отмечены открытые переломы. Переломы костей носа без смещения костных отломков отмечены у 69 потерпевших, со смещением у -35. У 40 потерпевших обнаружено изменение формы наружного носа в виде западения ската и отклонения спинки носа.

Результаты исследования и их обсуждения. При рентгенологическом, КТ, МСКТ исследовании впервые 4 сутки в области переломов костей носа выявлены неровное и «мелкозубчатое» состояние краев отломков, заостренное состояние углов отломков, линия просветления между отломками хорошо прослеживается, но узкая. На 7-9 сутки линия просветления между отломками прослеживалась с некоторым затемнением (размытая), также узкая. На 10-20 дни после повреждения наблюдалась остеокластическое рассасывание - зубчики сглаживались и перестали быть видимыми, из-за чего линия перелома стала четкой. На 3-неделе после получения травмы на рентгенограмме линия просветления между отломками прослеживалась четко, и она была относительно широкая, максимально выраженная, концы отломков несколько притуплены. На 3-4 неделе, в зависимости от характера перелома отмечены рентгенологические признаки остепороза, которое характеризовалась светлыми участками округлой, овальной или многоугольной формы с нечеткими контурами на фоне не измененного или несколько более светлого рисунка кости. На 8-24 недели после перелома отмечался обызвествление остеоидной ткани и превращение ее в костную мозоль.

Формирование костной мозоли представляет собой совокупность процессов роста и развития, которые, как известно, исключают друг друга. В костной мозоли одновременно протекают различные процессы и в разных клеточных популяциях, которые предназначены для оптимизации каждой стадии процесса регенерации. По данным большинства авторов, восстановление костей

происходит через 3 недели, но при этом авторами были изучены переломы ребер, черепа, длинных трубчатых костей. Авторами выделены 3 стадии консолидации костных отломков: 1. Стадия пролиферации клеточных элементов (до 10-20 дней). 2. Репаративная фаза регенерации (формируется костная мозоль и появляются первые признаки сращения за счет проникновения мезенхимальных клеток из периоста, и образуется грануляционная ткань, в которой формируются остеогенные клетки -3-4 нед). 3. Фаза ремоделирования (возрастает активность остеокластов, что проявляется резорбцией неправильно сформированных трабекул и образованием новой кости-8-24 нед). Другими авторами выделены 5 стадий репаративной регенерации кости, которое подробно описывает процесс формирования костной мозоли:

I стадия — 1-2 дня после перелома — деструктивно-резорбтивная;

II стадия — 3-8 дней — сочетание дегенеративно-воспалительной и пролиферативной стадий;

III стадия — 9-14 дней — синтетическая стадия;

IV стадия — 15-21 день — стадия ремоделирования;

V стадия — 22-28 дней — стадия созревания костной мозоли.

В литературе сведений о признаках и сроках регенерации костей носа единичные, но имеются сведения, что репаративные процессы в костях носа происходят медленно, из-за особенности анатомического строения и кровоснабжения этого органа.

Таким образом. Критериями установления давности переломов костей носа в раннем посттравматическом периоде являются наличие и динамика отека мягких тканей носа. В отдаленном периоде травмы - рентгенологическая картина, КТ, МСКТ могут быть применены как методы исчерпывающее сомнения в судебно-медицинской практике. Изменение состояния краев и углов отломков, характер линии просветления между отломками могут быть использованы как критерий установления давности переломов костей носа.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Богданова Л.Е. Установление давности перелома костей носа при экспертизе «живых лиц». /Л.Е.Богданова, Д.Г.Гончар // В сб. науч. трудов «Теория и практика судебной медицины». Под ред. Бабаханяна Р.В., Заславского Г.И., Попова В.Л. – СПб.: Изд-во НИИХ СПбГУ, 2006.– С. 42-46.

2. Гончар Д.Г. Использование возможностей рентгенологии для установления давности перелома костей носа при судебно-медицинской экспертизе // Материалы XVII съезда Оториноларингологов России. Санкт - Петербург, 2006. -С.265

3. Гребеньков А.Б. Судебно-медицинская оценка переломов костей носа. // Справочно-информационные материалы. Курск, 2015. – 28 с.

4. Губин В. Н. - Судебно-медицинская оценка степени тяжести телесных повреждений в случаях травм гортани.// Экспериментальна и клинична медицина. №1 (58), 2013. -С. 301

5. Расулова М. Р., Индиаминов С. И. ВОЗМОЖНОСТИ УСТАНОВЛЕНИЯ ДАВНОСТИ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НОСА МЕТОДАМИ ЛУЧЕВОЙ ДИАГНОСТИКИ //The 6 th International scientific and practical conference—Eurasian scientific congress (June 14-16, 2020) Barca Academy Publishing, Barcelona, Spain. 2020. 612 p. – 2020. – С. 91.

НАЦИОНАЛЬНАЯ ВАЛЮТА УЗБЕКИСТАНА И ПУТИ ЕЁ УКРЕПЛЕНИЯ

Бахриддинова Ж. С., Баратова М.М.
студенты 2-курса группы Би-221
Самаркандский институт экономики и сервиса

Научный руководитель: **Каримова Азиза Махомадризовна,**
к.э.н. и.о., доцента,
Самаркандский институт экономики и сервиса

АННОТАЦИЯ

Введение в обращение национальной валюты в Узбекистане стало важным шагом на пути создания эффективной денежно-кредитной системы в стране, обретения экономической независимости. В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с понятием и сущностью национальной валюты Республики Узбекистан. Дана краткая характеристика номиналов банкнот, действующих в обращении на территории республики в настоящее время.

Ключевые слова: национальная валюта, иностранная валюта, центральный банк, денежно-кредитная система, ревальвация, дефляция и интервенция валют, отечественная промышленность, экспорт.

Введение. Одним из важнейших условий, определяющих государственную независимость, является национальная валюта. Основными факторами обеспечения экономической независимости выступают осуществление строгой денежно-кредитной политики, повышение экспортного потенциала страны, обеспечение стабильного роста валового внутреннего продукта. Основанная на пяти принципах «узбекская модель» развития и реформирования экономики, разработанная в первые годы независимости под руководством Президента Ислама Каримова, дает весомые результаты. Верность и обоснованность независимого пути развития Узбекистана еще раз нашли свое полное подтверждение в условиях мирового финансово-экономического кризиса.

Национальная валюта Узбекистана — это сум. В процессе поэтапного осуществления реформ в банковско-финансовой системе страны были созданы достаточная ресурсная база и надежный резерв. Самое важное – приняты необходимые меры по защите экономики от влияния спекулятивного капитала, неуправляемых процессов на мировых финансовых и фондовых рынках.

Степень изученности. Исследованиями области сущности национальной валюты Республики Узбекистана занимались многие ученые экономисты, к числу которых можно отнести В. И. Бариленко, В. В. Бердников и Е. И. Бородина, С. В. Щурина, М. В. Михайлова О.П. Кобзева, Р.Б. Сиддигов, Р.М.Абдуллаев, Н.С. Зиядуллаев, К.К. Мамбетжанов и другие.

Методология исследования. Данное исследование проводилось с использованием методов научного абстрагирования, индукции и синтеза.

Основная часть. Национальная валюта — это национальная денежная единица, которая отражает денежную систему государства выпуск которой предназначен для использования на территории конкретного государства, выпускаемого данную единицу и предназначен для расчета за товары и услуги на всей территории государства.

Сум (узб. сўм, so‘m) — денежная единица Узбекистана, состоит из 100 тийинов. Буквенный код ISO 4217 — UZS, цифровой — 860. Первоначально введена 15 ноября 1993 года в виде сум-купонов — параллельной советскому рублю валюты для защиты экономики страны от избыточной рублёвой массы. С 1 июля 1994 года — в качестве единственного законного средства платежа в Узбекистане.¹

Введение в обращение национальной валюты в Узбекистане стало важным шагом на пути создания эффективной денежно-кредитной системы в стране, обретения экономической независимости. Достижение Узбекистаном стабильности и устойчивости национальной валюты не за счёт получения займов извне, а в результате производства конкурентоспособной продукции, рационального использования имеющихся ресурсов.

Постановлением Кабинета Министров от 12 ноября 1993 года № 550 «О введении в действие на территории Республики Узбекистан «сум-купонов» в качестве параллельного платежного средства» с 15 ноября 1993 года в Республике Узбекистан для защиты внутреннего рынка от избыточной рублёвой массы, а также для обеспечения своевременной выплаты денежных средств населению, были введены дополнительные временные денежные знаки «сумы», образца 1992 года (сум-купоны). На территории Узбекистана сум-купоны использовались в качестве параллельного платёжного средства с рублём образца 1961—1992 годов, в соотношении 1:1. Одновременно, с 22 ноября 1993 года

¹Материал из Википедии — свободной энциклопедии. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Узбекский сум](https://ru.wikipedia.org/wiki/Узбекский_сум).

отменялось действие карточек с одноразовыми купонами, введёнными ранее для защиты потребительского рынка¹. Номинал банкнот сум-купонов составлял 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1 000, 5 000, 10 000 сумов.

С 1 июля 1994 года в качестве единого неограниченного и законного средства платежа на территории Республики Узбекистан был введен в обращение «сум». Государство со стабильной собственной валютой и в политике, и в экономике будет действовать независимо, исходя из интересов своего народа. Сум введённый в обращение после независимости, предоставил нам такую возможность. Номиналы банкнот данного периода являлись 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500 сумов.

С 2004 года узбекский сум является конвертируемой валютой. И Указом Президента Республики Узбекистан «О первоочередных мерах по либерализации валютной политики» от 02.09.2017 г. №УП-5177 установлено:

1. запрещается осуществление платежей в иностранной валюте за товары (работы и услуги), за исключением платежей посредством международных платежных карт в соответствии с международной практикой;

2. государственные пошлины, сборы и иные обязательные платежи взимаются только в национальной валюте, за исключением консульских сборов и т.д.

Особое внимание уделяется укреплению покупательной способности сума путем наполнения рынка отечественной продукцией, обеспечению последовательности денежно-кредитной политики, росту экспортного потенциала страны, достижению пропорционального соотношения потребительских товаров на внутреннем рынке и наличных денежных средств.

В период 2001—2019 годов в обращении действовали банкноты номиналом 1000 сумов, 5 000 сумов, 10 000 сумов, 50 000 сумов и 100 000 сумов, которые рассмотрим в виде таблицы ниже

¹ О введении в действие на территории Республики Узбекистан «сум-купонов» в качестве параллельного платежного средства.

(см: рис.1.)











Изображение		Номинал (сумов)	Размеры (мм)	Основные цвета	Даты	
Лицевая сторона	Оборотная сторона				введения	печати
		1000	144×78	сиреневый коричневый	1 сентября 2001	2001
		5000		зелёный	1 июля 2013	2013
		10 000		светло- синий	10 марта 2017	2017
		50 000		фиолетовый	22 августа 2017	
		100 000		светло- коричневый	25 февраля 2019	2019

Рис.1. Банкноты, находящиеся в обращении на территории Республики Узбекистан в период 2001-2019 гг.¹

С августа 2019 года Центральный банк установил режим плавающего курса для сума. Купюры различного достоинства отличаются по цветовой гамме, а в 2021 году были введены банкноты нового образца с улучшенной степенью защиты, отличающиеся более плотной бумагой и узкой формой.

На сегодняшний день в активном обращении находятся банкноты номиналом от 1000 до 200 000 сумов. Самая главная причина обновления внешнего вида купюр — противодействие фальшивомонетчикам. Кроме того, новый дизайн позволяет обновить политические символы.

С июня 2021 года Центральный банк Республики Узбекистан вводит в обращение новые банкноты. По данным регулятора, представленные банкноты объединены между собой тематикой Великого шёлкового пути, проходившего

¹Материал из Википедии — свободной энциклопедии. https://ru.wikipedia.org/wiki/Узбекский_сум.

когда-то также по территории современного Узбекистана. На всех банкнотах нанесены очертания карты республики с изображением направлений караванных дорог. Карта помещена на фон с изображением национальной ткани хан-атлас, которая используется не только как элемент украшения, но и в целях защиты. Ниже рассмотрим новые банкноты, выпущенные в обращение с 2021 года. (см.: рис.2)

Изображение		Номинал (сумов)	Размеры (мм)	Основные цвета	Даты	
Лицевая сторона	Оборотная сторона				Введения	Печати
		2000	142x69	розовый, бирюзовый	14 июня 2021	2021
		5000		зелёный, коричневый	26 августа 2021	
		10 000	147x69	синий, фиолетовый, розовый	14 июня 2021	
		20 000		синий, фиолетовый, коричневый		
		50 000		фиолетовый, синий, желтый	22 декабря 2021	
		100 000	152x69	светло-коричневый, лимонный, розовый	15 июля 2022 ¹	
		200 000		бирюзовый		

Рис.2. Новые банкноты, выпущенные в обращение с 2021 года¹

Когда начали выпускать новые виды купюр, конечно же были и хорошие стороны, и недостатки. Эти недостатки были в цветовой гамме и в шрифте цифр. Так как банкноты с номиналом 20 000 сум и с номиналом 200 000 сум очень были похожи друг на друга по цветовой гамме и по шрифту. Людям было трудно

¹ Материал из Википедии — свободной энциклопедии. https://ru.wikipedia.org/wiki/Узбекский_сум.

различить их и в последствии этого были случаи, когда люди хотели заплатить за что-либо, но по ошибке платили в 10-кратном размере, то есть вместо 20 000 сум платили 200 000 сум. Но уже сейчас население стало хорошо отличать друг от друга все новые виды купюр.

Хорошая сторона новых видов банкнот была в том, что новые банкноты были из более плотной бумаги и узкой формы, чтобы их было удобно носить и хранить.

Следует отметить, что банкнота Республики Узбекистан с номиналом 200 000 сумов номинирована за награду IBNS (The International Bank note Society) "Банкнота года 2022".

Валютная интервенция - скупка или продажа Центральным банком национальной валюты с целью повлиять на её курс.

Ревальвацию часто путают с экономическим понятием-дефляцией. Оба процесса характеризуются укреплением национальной валюты. Ревальвация валюты означает её рост на внешнем рынке, а дефляция- на внутреннем рынке.

Основным фактором укрепления сума являются продажа золота и денежные переводы трудовых мигрантов, объём которых за пять месяцев 2022 года составил 4,19 млрд долларов, что на 1,58 млрд долларов, или 61%, больше по сравнению аналогичным периодом прошлого года.

Когда национальная валюта укрепляется, поездки в другие страны будут по более выгодным ценам. Правительство получает возможность приобретать зарубежные активы по более выгодным ценам, рынок будет полон дешевым импортным товарам. Такие процессы плохо сказываются на отечественной промышленности. Не выдержав конкуренцию с иностранными производителями, многие фирмы, предприятия будут вынуждены закрываться или снижать объёмы производства. Снижение производства приводит к сокращению рабочих мест, росту безработицы и к социальной напряжённости в обществе.

Заключение. Изучив сущность валюты Республики Узбекистан, мы пришли к заключению что национальная валюта нашей страны прошла не мало этапов, чтобы прийти к той значимости, которую она имеет в настоящее время. В целях дальнейшего укрепления национальной валюты считаем, что, следует увеличить количества крупных компаний в Узбекистане, способные производить новые, инновационно-полезные товары, реализующиеся на мировом рынке. Продавая товары за границей компании, фирмы, предприятия в Узбекистане зарабатывают доллары США или евро. Отсюда вытекает, что экспорт является важным источником иностранной валюты в страну. Это показывает, что рост экспорта сможет укрепить национальную валюту и

сбалансировать торговые отношения. Если курс национальной валюты неуклонно повышается, то в результате роста цен на товары и услуги, их спрос и конкурентоспособность будут падать на внешнем рынке, что приведёт к сокращению экспорта. Т.е. для укрепления национальной валюты Узбекистан должен пытаться сохранить баланс экспорта и импорта.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О первоочередных мерах по либерализации валютной политики» №УП-5177 от 02.09.2017 г.
2. Лаврушин, О.И. Оценка финансовой устойчивости кредитной организации: учебник / коллектив авторов; под ред. О.И. Лаврушина, И.Д. Мамоновой. -М.: КНОРУС, 2011. 304 с.
3. Бариленко, В.И. Экономический анализ: учеб. пособие / В.И. Бариленко, В.В. Бердников, Е.И. Бородина. – М.: Эксмо, 2010. – 352 с.
4. Щурина, С. В. Финансовая устойчивость компании: проблемы и решения / С.В. Щурина, М.В. Михайлова // Финансы и кредит. – 2016. – № 42. – С. 43–60.
5. Каримова А. М., Равшанов А. МЕТОДЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ И СТАБИЛИЗАЦИИ ДЕНЕЖНОГО ОБОРОТА //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 24. – С. 644-648.
6. Mahomadrizoevna K. A., Sodirovich U. B. The Concept of Islamic Banking and Its Essence in the Banking System of Uzbekistan //Open Access Repository. – 2022. – Т. 8. – №. 04. – С. 211-216.
7. Mahomadrizoevna K. A. Analysis and the need to improve credit support for the development sphere of tourism //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – Т. 1. – №. 1.1 Economical sciences.
8. Karimova A. M. Development of tourism business with the help of bank lending in Uzbekistan //НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ, ИННОВАЦИИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ. – 2021. – С. 106-108.
9. Shamsiddinov S. M., Akmalov J. I. Formation of a new investment climate and creation of new opportunities for investors Uzbekistan //Достижения вузовской науки 2021. – 2021. – С. 77-80.
10. Karimova A. M. Financial Support To Tourism Activities //International Journal of Advanced Science and Technology. – 2020. – Т. 29. – №. 7. – С. 2010-2014.
11. Ниёзов З. Д., Давронов Ш. З. Обязательное медицинского страхование: сущность и вопросы внедрения в Узбекистане //Архивариус. – 2020. – №. 2 (47). – С. 124-127.
12. <http://UzReport.news>; <https://lex.uz/docs/3326423>
13. <https://www.advantour.com/rus/uzbekistan/currency.htm>
14. https://www.theibns.org/joomla/index.php?option=com_content&view=article&id=138&Itemid=51
15. <https://stat.uz/ru/110-press-tsentr/analiticheskie-stat-i/3956-vneshnyaya-torgovlya-i-ee-rol-v-ekonomicheskom-razvitii-uzbekistana>
16. <https://finlit.uz/ru/articles/money/currencies/>

OILADA MADANIY VA MA'RIFIY TARBIYA ASOSLARI, FARZAND TARBIYASI VA UNDA OILA A'ZOLARINING ROLI

Yusupova Dilnoza To'liboy qizi

Urganch davlat universiteti,
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Oilada madaniy va ma'rifiy tarbiya asoslari, oilaviy muhit va uning farzandlar tarbiyasiga ta'siri shuningdek, ota va onaning farzand oldidagi burchlari haqida zarur ma'lumotlar berilgan. Ayniqsa, maqoladan onalar va yangi turmush qurgan juftliklar yaxshi ma'lumotlarni olishi mumkin.

Tayanch iboralar: *Oila, oila vazifalari, oila maqsadi, oilaviy muhit, farzandning ota-ona oldidagi va aksincha ota-otaning farzand oldidagi burchlari.*

Bilamizki, mustaqil O'zbekistonimizda Oila, jamiyat, mahalla, qarindosh-urug'chilik, qo'ni-qo'shnichilik kabi muqaddas tarbiya asoslari mavjud. Demak biz eng avvalo oila tarbiyasiga, oila a'zolarining jamiyatga ta'sirini ko'rib chiqmog'imiz darkor. Chunki farzand tarbiyasi va uning jamiyat tizimida tutgan o'rni bizning ertangi kunimizni belgilab beradi. Bu masalaning yechimi yana jamiyatimizning asosi, oilalarning suyanchi bo'lmish onalarga borib taqaladi.

Oila bu nima? Er va xotin – ikki tirik vujudning, ikki olamning o'zaro ittifoqidan paydo bo'lgan uchunchi bir olam bu oiladir. Oila faqat er-xotinning o'zidan iborat deb aytish noto'g'ri. Oila er-xotin ularning bola chaqalari eng yaqin tug'ishganlaridan iborat kishilar guruhi–xonadonidir. Oila, odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligidir.

Oilaviy tarbiya ota-onalarning o'z hayotlari turmush tarzlari, bola shaxsida ilmiy dunyoqarash asoslari, ma'naviy ahloqiy, nafosat, mehnat va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko'rsatish jarayonidir. Oilaning maqsadi–ikki jinsning o'zaro kelishuvi asosida farzandni dunyoga keltirish hamda tabiat va jamiyatning davomiyligi ta'minlash.

Oilaning vazifasi esa er-xotinning birgalikda xo'jalik yuritish asosida oilani ham ma'naviy, ham iqtisodiy jihatdan ta'minlash, hamda jamiyatga sog'lom, aqlli, har tomonlama barkamol farzandni tarbiyalash ekanini barcha oilalar bilishimiz kerak.

Oilaviy tarbiya, ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, o'sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta'minlash mumkin. Oila tarbiyasidagi yutuqlar ota onalarga pedagogik bilimlar berish, oilaviy tarbiya bo'yicha tajribalar almashishi ota onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga ham bog'liqdir.

Oilaning jamiyat oldidagi 2 ta vazifasi bor:

1. Tabiiy biologik vazifasi
2. Ijtimoiy vazifasi.

Barcha tirik mavjudotlarga xos bo'lgani kabi insonni ham farzandni dunyoga keltirishi uning tabiiy biologik vazifasidir. Faqat insongagina xos bo'lgan ikkinchi asosiy vazifa shu dunyoga kelgan farzandlarni jamiyat el yurt uchun xizmat qiladigan inson qilib tarbiyalash uning ijtimoiy vazifasidir. Ko'rinib turibdiki, oila tarbiyasi ota onaning shaxsiy ishi emas balki, davlat jamiyat oldidagi burchi hamdir, chunki bola qobil bo'lib o'ssa undan nafaqat ota-ona, balki butun el yurt, mahalla kuy davlat ham manfaatdor bo'ladi.

Agar bola noqobil bo'lib o'ssa, undan faqat ota-ona oilagina emas, balki el, yurt, jamiyat, davlat ham aziyat chekadi. Shuning uchun ham oilaviy tarbiya muhim siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, tarbiya tizimida asosiy markaziy o'rinni egallaydi, chunki xohlagan tarbiya turini olsak—axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, estetik tarbiya hammasi avvalo, oilada shakllanadi. Demak oila tarbiyaning dastlabki debochasidir.

O'zbek oilasi a'zolarining barchasini savodxon, ma'lumotli deb atasak, xato qilmagan bo'lamiz, ana shu imkoniyatlar ta'sirida o'g'il va qizlar bilimli, fikr-mulohazali, topqir, ishbilarmon, aql-zakovati bo'lib voyaga yetmoqdalar.

Oiladagi bola tarbiyasi ikkiyoqlama ahamiyat kasb etadi, ota-onalar farzandlariga ahloq-odob, ruhiyat va ma'naviyatga oid bilimlardan saboq berish bilan qanoatlanib qolmasliklari, balki o'zlari ham tarbiyaning o'ziga xos sir-sinoatlari, hususiyatlari, uning mazmun-mohiyati va ma'nosiga doir eng yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lib turishlari kerak bo'ladi.

O'z farzandlariga oqilona tarbiya bera olgan ota-onalar, umrlarini rohat va farog'atda o'tkazadilar, bolalaridan hamisha olijanoblik, mehribonlik, yaxshilik ko'radilar, dillari aslo jaroxat azobini sezmaydi; o'kinish hissiga duchor bo'lmaydilar. Shu to'grida S. Smail oilaga quyidagicha ta'rifni aytgan: "Ta'lim-tarbiyaning eng oliy maktabi oiladir" degan.

Oilaning asosiy tayanchi bo'lgan ota, hayotning barcha mashaqqatlaridan totib ko'radi, o'zining bukilmay irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshlilik bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi.

Ota — oilaning boshlig'i, posbonidir. Zero, oilaning har bir ko'z ilg'amas nuqtalarini ilg'ay olish, oila a'zolariga faqat to'g'ri, haq yo'lni ko'rsatib turishdek insoniy mas'uliyat ota zimmasida turadi.

Ota oilada o‘z farzandlariga har tomonlama yurish-turishda, nutq odobida, o‘zaro muomala madaniyatida, eng muhimi amaliy ish faoliyatida to‘g‘rilik va haqqoniylik, samimiylik va xolislik yuzasidan namuna ko‘rsatadi.

Murg‘ak tasavvurli bola ilk tarbiyani oilada oladi. Bola tarbiyasining ilk saboqlari haqida atoqli o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud Axloq” kitobida quyidagi ibratli o‘g‘itlarni aytgan edi: “Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvatlantirmak, zexnimizni ravshanlashtirmak lozim”.

Oilada kattalarning obro‘si qo‘rqitish asosida emas, balki samimiylik, o‘zaro hurmat-ehtirom zamiriga qurilishi maqsadga muvofiqdir. Oila a‘zolarining inoqligi, o‘zaro hamjihatligi, kiyinish madaniyati, mehnat faoliyati, o‘zga kishilar to‘g‘risidagi suhbatlari va ularning boshqa sifat hamda fazilatlarini bolaning murg‘ak tasavvuriga yangi timsollarni olib kiradi.

Oila tarbiyasi bolaning kelajakda kim bo‘lib yetishishida muhim o‘rin tutadi, bola dastlab oilada jamiyatning qiyofasini quradi, bo‘lajak fuqaroning huquq va burchlari, dunyoqarashi va axloqiy qarashlari oilada shakllanadi, shu asosda jisman va ruhan kamol topib boradi. Bola uchun oiladagi sog‘lom ijtimoiy-ruxiy muhit, madaniy-ma‘naviy va axloqiy qadriyatlar, an‘analar, ijtimoiy-hayotiy tajribalar, ko‘nikma va malakalar manbaidir.

Bu oilaviy tarbiya jarayonida sayqallanib boradi, tarbiyaning mohiyati kishini hayotga tayyorlashdan iborat bo‘lib, tarbiyaning mazmuni, yo‘nalishi, maqsadi va vazifasi kishilarning ijtimoiy munosabatlariga bog‘liq.

Oiladagi ma‘naviy-ruxiy muhit, bola tarbiyasida g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lib, oila a‘zolarining turmush tarzi ko‘p hollarda farzandlarning ruhiy kayfiyati, tasavvuri va xislotlarini belgilab beradi. Demak oila sog‘lom, barkamol insonni tarbiyalab voyaga etkazishda jamiyat oldida mas‘uldir.

Oilada tarbiya topgan xar bir inson xar jixatdan umuminsoniy ahloqiy, ilmiy, e‘tiqod va boshqa sohalarda kamolatga yetgan hislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi lozim, kamolot sari intilgan kishi asta-sekin olamni, o‘zligini taniy boshlaydi.

Yosh avlodni barkamol, sog‘lom, Vatan tuyg‘usini his qila oladigan shaxs qilib voyaga yetkazish, birinchi navbatda, oilaga va ota-onaga bog‘liqdir.

Yosh avlodda kelajakka bo‘lgan ishonch xissini uyg‘otish uchun esa, ajdodlarimizning ma‘naviy-axloqiy merosini chuqur o‘rgatish, ularning iste‘dodi va qobiliyatini buyuk maqsadlar sari yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda oilada bola tarbiyasining milliy o‘ziga xos qoidalari mavjud bo‘lib, ota-onalar ulardan o‘rinli foydalanishlari lozim. Oilada ma‘naviy-ruhiy hotirjamlik, o‘zaro totuvlik hukmron bo‘lsa, oila a‘zolari bir-birlariga g‘amxo‘r bo‘lsalar, bola tarbiyasining tayanch nuqtasini topa olsalar, bunday muhit bola tarbiyasiga ijobiy ta‘sir etadi va ular farzandlariga haqiqiy baxt hadya etadilar, bu bilan ishimizda rivojlanish, jamiyatimizda olg‘a siljish bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A. Avloniy. *“Turkiy guliston yohud axloq”*. T., *“O‘qituvchi”*. 1994
2. Jamoa. *Oila pedagogikasi*. T., *“Aloqachi”*, 2007
3. M. Imamova. *Oilada bolalarning ma‘naviy axloqiy tarbiyasi* — T. *“O‘qituvchi”*. 1999

O‘ZBEKISTONDA “PAXTA ISHI”, “O‘ZBEK ISHI” KAMPANIYALARI BOSHLANISHI

Abduraxmonov Abdulaziz Telmanjon o‘g‘li

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Qo‘qon filiali
Elektronika va elektr texnikasi fakulteti, Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi.

ANNOTATSIYA

Maqolada XX asrning 80-yillarida O‘zbekiston SSR da ro‘y bergan siyosiy-ijtimoiy kampaniya «paxta ishi», «o‘zbek ishi» haqidagi ma‘lumotlar tahlil qilingan. Butun sobiq Sovet ittifoqidagi «qayta qurish» jarayonining bir qismi bo‘lgan mazkur kampaniya arxiv hujjatlari, tadqiq etilgan ilmiy ishlar va adabiyotlar yordamida tahlil etilgan. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A.Karimovning Qashqadaryo oblast kompartiya kotibligi davrida boshlangan o‘zgarishlar haqida qisqacha ma‘lumotlar berilgan.

***Kalit so‘zlar:** oqlanish, sud, jinoiy javobgarlik, qamoq, ozozdlikdan mahrum etish, paxta, xomashyo, pora, inqiroz, kadr.*

LAUNCH OF "COTTON AFFAIR", "UZBEK AFFAIR" CAMPAIGNS IN UZBEKISTAN

Abdurakhmanov Abdulaziz Telman ugli

a student of Kokand branch of Tashkent State Technical University named after
Islam Karimov Faculty of Electronics and Electrical Engineering, Economics.

ABSTRACT

The article analyzes the information about the political and social campaign «Cotton affair» and «Uzbek affair» that took place in the 80s of the XX century in the Uzbek SSR. The campaign, which is part of the «reconstruction» process throughout the former Soviet Union, has been analyzed using archival documents, research papers and literature. There is also information about the changes that began during the presidency of the First President of the Republic of Uzbekistan I.A Karimov in the Kashkadarya regional Communist Party Secretariat.

***Keywords:** acquittal, trial, criminal liability, prison, deprivation of liberty, cotton, raw materials, bribe, crisis, personnel.*

XX asrning so‘nggi o‘n yilliklariga kelib mamlakat ichki hayotini qamrab olgan jiddiy iqtisodiy nuqsonlar qishloq xo‘jaligini o‘z domiga torta boshladi. O‘zbekiston SSR ham mamlakatning asosan xomashyo yetishtirib beradigan mintaqasi hisoblangani sababli, respublika qishloq xo‘jaligi rivoji boshqa ittifoqdosh respublikalarga nisbatan ancha og‘ir, ziddiyatli jarayonlar ta‘sirida qoldi. O‘ta markazlashtirilgan boshqaruv, “umumxalq manfaatlarini” ro‘kach qilib olib borilgan siyosat O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligini, shu sohada band bo‘lgan aholining ijtimoiy, iqtisodiy ahvolini ham nihoyatda og‘irlashtirib yubordi. O‘rta Osiyo, ayniqsa O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining “Paxta” xomashyo kompleksi atrofida rivojlantirishi bu yillarda o‘z salbiy ta‘sirini ko‘rsata boshlagan edi. Yillar davomida partiyaning paxta hosildorligini oshirish uchun ketma – ket berib kelgan besh yillik rejalari yerlarning chala o‘zlashtirib, belgilangan vaqtda “topshirishga”, yerning meliorativ holatini buzilishiga, ketma - ket bir xil ekinlar ekib, katta miqdordagi sarf - harajat qilinishiga sabab bo‘la boshladi. Biroq, bu sarf – harajatlar o‘zini oqlamas, markaz esa besh yillik paxta planini bajarishni qat‘iy turib talab qilar edi. Natijada olinadigan real daromad to‘liq bo‘lmas, buyruqbozlik, qattiq nazorat, tazyiq o‘tkazish kuchayib borar, kamomad, o‘g‘rilik, ichki nazorat va hisob - kitobning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi ortib borar edi. Bu holatlar butun mamlakatda qo‘shib yozish degan illatlarni kuchaytirib yubordi. X.Yunusovning ilmiy tadqiqot ishida ta‘kidlanishicha, SSSR FA olimlari o‘tkazgan hisob - kitoblarga ko‘ra, qo‘shib yozishlar butun mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotning 3 foiziga teng bo‘lgan. Xomashyo yetkazish sohalarida esa, qo‘shib yozishlar 5 foizdan 25 foizgacha bo‘lgan. Mamlakat iqtisodiyotidagi holatlar boshqa ittifoqdosh respublikalarda ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, 1977- yilda Belorussiya SSRda qo‘shib yozishga yo‘l qo‘yilganligi uchun 1075 kishi jinoiy javobgarlikka tortilgan. Tojikiston SSRning Leninobod viloyatidagi qurilish tashkilotlarida 1983 - 1984 yillarda 700 ming rubllik qo‘shib yozishga yo‘l qo‘yilganligi aniqlangan. Ozarbayjon SSRda esa 1983- yilning o‘zida 667 sanoat korxonasi va qurilish tashkilotlarida qo‘shib yozishga yo‘l qo‘yilgan. Moldaviyada esa qo‘shib yozishlar nihoyatda avj olgan bo‘lsa-da, kishilar tobora ko‘proq mansab

kursilarini egallab borganlar. Biroq, mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy hayotidagi barcha salbiy illatlarning tub mohiyati tahlil etilmagan va ochib berilmagan. Aksincha, ularga ayrim olib qaralgan mahalliy kadrlarning faoliyati bilan bog‘liq tarzda milliy, mintaqaviy voqelik sifatidagina baho berildi. Mazkur holatlar mansabni suiste‘mol qilish, poraxo‘rlik, qo‘shib yozishlar avj olishiga olib kelgan asosiy omillardan biri deb qaralgan [1]. O‘zbekiston mamlakatning asosiy paxta xom ashyosi bilan ta‘minlovchi mintaqasi bo‘lganligi sababli qo‘shib yozishlar illati “rivojlangan” joy O‘zbekiston deb qaraldi va qo‘shib yozishlarga qarshi mamlakat miqyosida katta harakatlar boshlanib, O‘zbekiston birinchi nishonga olingan respublikalardan bo‘lib qoldi. Shu o‘rinda ta‘kidlab o‘tish lozimki, darhaqiqat xalq xo‘jaligidagi qo‘shib yozishlar O‘zbekistonda mavjud bo‘lib, aksariyat hollarda kolxoz va sovxozlarning mansabdor shaxslari tomonidan qo‘shib yozishlar paxta tozalash korxonalarining tayyorlov tashkilotlariga tayyorlanmagan va topshirilmagan paxtani topshirildi deb tovarsiz fakturalarni tuzish yo‘li bilan amalga oshirilgan. Bunday qo‘shib yozishlarga kolxoz va sovxozning brigadasida, bo‘limida tuzilgan, ichki xo‘jalik hisobga olish ma‘lumotlari, so‘ngra zavod paxta punktining tovarsiz yozilgan, bir tomondan – kolxoz va sovxoz tomonidan, ikkinchi tomondan – paxta tozalash sanoati korxonasi tomonidan rejaning bajarilganligi to‘g‘risidagi davlat hisoboti ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni balanslashtirgan tovarsiz kvitansiyalar asos qilib olingandi. Zavod direktori va buxgalteri ushbu ma‘lumotlardan rejani bajarishgani to‘g‘risidagi hisobot ma‘lumotlarini oshirish uchun foydalanishgan va ularni respublika paxta tozalash sanoati vazirligiga hamda statistika boshqarmasiga topshirganlar [2]. O‘zbekiston janubidagi Qashqadaryo viloyati sanoatining asosiy yo‘nalishlari ham paxtachilikka ixtisoslashgan bo‘lib, paxtani qayta ishlash Qashqadaryoda 51 foizga teng bo‘lgan[3]. Buning ustiga respublikada yetishtirilgan mahsulotlarning o‘z qiymatidan bir necha marta past bahoda sotilishi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ko‘p qismi xom ashyo tariqasida sotilib, boshqa joylarda iste‘mol qiymatlariga aylanishi respublika byudjetiga ham sezilarli ta‘sir etar edi. XVI Plenum (1984-yil) va O‘zbekiston Kompartiyasining XXII syezdi qarorlari bilan respublikadagi yetuk, har tomonlama

tajribaga ega bo'lgan rahbar kadrlar ishdan olindi. Ming-minglab odamlar hibsga olindi. Qanchadan-qancha oilalar xonavayron qilindi. Natijada, odamlarda loqaydlik, ertangi kunga ishonchsizlik kayfiyati paydo bo'ldi. Ishlab chiqarish maromi buzildi. Siyosiy parokandalik oddiy oila tashvishidan tortib, umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan masalalargacha barcha-barchasini boshi berk ko'chaga kiritib qo'ydi. "Paxta ishi", "qo'shib yozishlar" masalasi ham aslida 1983-yilda boshlangan. O'zbekiston Kompartiya MQsining XVI Plenumi va unda Inomjon Usmonxo'jayevning Markazdan O'zbekistonga kadrlar bilan "yordam berish"ni so'rab qilgan murojatidan so'ng bu ish avj oldi. O'zbekistonga yuzlab, minglab kadrlar yuborildi. Bular – Anishchev, Ogarok, Klepikov, Satin, Nesterenko, Buturlin, O.Gaydanov, E.Didarenko, Lyubimov, Kalinichenko, Korolyov, Maydanyuk, Mavrin, Litvinenko, Ivanov, Galkin, Kartashyan va boshqalardir. "Paxta ishi" bo'yicha juda ko'p guruhlar tashkil qilindi. Mahalliy xalqning "arakter va psixologiyasi"ni yaxshi bilgan amaldorlar bu guruhlariga tub yerlik prokuror va tergovchilarni bosh qilib, ularga "yaxshi konsultatsiya"lar berdilar va shu tariqa sopini o'zidan chiqardilar. Yuqori saviyada "maslahat" olgan guruh a'zolari amaliy ishga tushib ketdilar. Ular 70-80-yillarda mamlakatda keng tus olgan qo'shib yozishlar bo'yicha jinoyatchilarni aniqlab berishlari kerak edi. Haqiqatan ham shu yillarda paxta, chorva va boshqa sohalar bo'yicha qo'shib yozishlar davlat rejalarini sun'iy ravishda bajarish usuli bo'libgina qolmay, millionlab so'm davlat mablag'larini suiste'mol qilish va talon-taroj etishning sinalgan usuli edi. Poraxo'rlik avjiga mingandi. Bunday qo'shib yozishlar, poraxo'rliklarning asosiy ilhomchisi va tashkilotchisi Moskvaning o'zi bo'lib, respublika, viloyat, tuman rahbarlari, davlat xo'jaligi direktorlari, jamoa xo'jaligi raislari, paxta tayyorlash korxonalarini va paxta tozalash zavodlari rahbarlari bu ish bilan bog'liq edilar. Ular asosli ravishda jinoiy javobgarlikka tortildilar va sudlandilar. Shu bilan bir qatorda, qo'shib yozishlarga bevosita aloqador bo'lmagan, bu ishga ongsiz sur'atda yoki tasodifan o'ralashib qolgan, rahbarlarning ta'siri va tazyiqi ko'zbo'yamachiliklarga noiloj qo'shib qolgan, undan shaxsan hech qanday moddiy manfaatdor bo'lmagan yuzlab va minglab gunohsiz kishilar ham jabr ko'rib, aziyat

chekdilar. “O‘zbeklar ishi”, “Paxta ishi” bo‘yicha qancha odamning qamoqqa olinganligi to‘g‘risida turlicha ma‘lumotlar bor. Ba‘zi manbalarda 22 ming, boshqasida 30 ming, hatto 48 ming odam hibsga olinganligi ko‘rsatiladi. O‘zbekiston janubida shu jumladan, Qarshi cho‘li, Surxon - Sherobod cho‘llarini o‘zlashtirib, Respublikaning janubida joylashgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridan XX asrning 80 - yillariga kelib, o‘rtacha 1 million tonna paxta yetishtirish vazifasini kun tartibiga qo‘ydi. Gektaridan olinishi lozim bo‘lgan hosildorlik yildan - yilga ortib borib, uni bajarishning iloji bo‘lmagandan keyin, qo‘shib yozish degan bir illat paydo bo‘ldi. Shu yo‘sinda O‘zbekistonda “paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi” degan uydurma vujudga keldi. Bu ishning yaqqol ko‘zga tashlangani 1981- yilga to‘g‘ri keladi [4]. O‘zbek xalqining fidokorona mehnatiga qaramasdan, Markaz o‘ylab topgan «paxta ishi», «o‘zbeklar ishi» siyosatining asorati XX asrning 80-yillaridan boshlab Qashqadaryoda yaqqol ko‘zga tashlandi. Birgina 1981-83 yillarda Qashqadaryoda halol mehnat qilib obro‘ topgan mashhur kolxoz raislari, sovxoz direktorlaridan, viloyat rahbarlari 36 kishi ishdan bo‘shatilib, ma‘muriy yo‘l bilan jazolandi [5]. Ular orasida shahrisabzlik mashhur raislar A.Turopov, Qurbonov, sovxoz direktori N.Sharopov, Kasbi rayon xalq kontroli qo‘mitasining raisi Ziyod Arabov, O‘zbekiston KP Bahoriston tuman qo‘mitasining ikkinchi kotibi R.Suyarov, Qarshi tuman paxta tozalash zavodi direktori Tohirovlar bor edi [6]. «Paxta ishi» bo‘yicha surishtirish ishlariga jalb etilgan «malakali» tergovchilar «talon-taroj» qilingan boyliklarni undirib olish bilan ovora bo‘lib ketib, qishloq–xo‘jalik va sanoatdagi qo‘shib yozishlarning tub mohiyatini tabiiyki, ochib bera olmaganlar. Mamlakatda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy sohadagi inqiroziy holatlar, avvalo, sovet hukumatining ma‘muriy-buyruqbozlik siyosati natijasi ekanligini tergov guruhi mutlaq anglab yetmas edi. Shahrisabz tuman partiya qo‘mitasining birinchi kotibi X.Xoliqov S.Jo‘rayev bilan birgalikda 4.651.000 ming so‘m pulni paxtaga qo‘shib yozish hisobiga pora sifatida olganliklarida ayblanganlar. Aslida, bu miqdordagi pulning 3.100.000 so‘mi Serpuxovo, Kutaisi, Boku, Orexovo-Zuevo va boshqa shaharlardagi to‘qimachilik korxonalariga qabul qilinmagan xomashyo uchun pora sifatida berilgan edi.

Xullas, “paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi” siyosati markazning SSSR inqirozi kuchayib ketib, tanazzul topishi muqarrar bo‘lgan davrdagi uydurmasi edi. Ushbu o‘zbek xalqiga qaratilgan nohaq siyosat va ayblovdan O‘zbekiston xalqi, jumladan, uning janubiy viloyatlari ahli juda og‘ir, tuzatib bo‘lmaydigan moddiy va ma’naviy zararga duchor bo‘ldilar. Nohaq ayblangan kishilarni oqlash, adolatni qaror toptirish uchun o‘zbek xalqiga mustaqillik zarur edi va mustaqillik tufayli nohaq ayblangan kishilarning yuzlari yorug‘bo‘lib, mustabid tuzum qamoqxonalariга bardosh berib, sog‘–omon qolganlari o‘z oilalariga qaytib kelishga muvaffaq bo‘ldilar. Azob-uqubatlarga chiday olmay olamdan o‘tganlari esa, qatag‘on qurbonlari singari oqlanib, ularning farzandlari oldidagi munosib nomlari tiklandi, insoniy qadriyatlarini o‘rniga qo‘yildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Юнусова Х. XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистонда ижтимоийиқтисодий жараёнлар ва маънавий ҳаёт. Тарих фан. Док. илм. дар. олими учун ёзилган дисс... – Тошкент, 2009. – Б. 197-198.
2. Хакимов И. Қўшиб ёзиш – жиноят. // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – Тошкент, -№11, 1989. – Б. 51.
3. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет муштамлакачилиги даврида. – Б. 530.
4. Юнусова Х.Е. Ўзбекистонда совет давлатининг миллий сиёсати ва унинг оқибатлари. - Тошкент: Зар қалам, 2005.
5. ҚВДАнинг Қарши филиали, 1-жамғарма, 28-рўйхат, 5-иш, 47-варақ.
6. ҚВДАнинг Қарши филиали.1-жамғарма, 28-рўйхат, 5-иш,48-варақ.
7. Юнусова Х.Е. Ўзбекистонда совет давлатининг миллий сиёсати ва унинг оқибатлари. - Тошкент: Зар қалам, 2005.
8. Ўз РПДА ҚВФ. 1-жамғарма, 28-рўйхат, 5-иш, 47-варақ.
9. Илюхин В. Қабохат ёхуд – Тошкент. Ўзбекистон, 1993. - Б.
10. Қаранг: // Совет Ўзбекистони. 1989, 27 декабр.
11. Илюхин В. Қабохат ёхуд... – Б. 32.

12. Қашқадарё вилоят суди архиви. - 5-6- варақ.
13. Қашқадарё вилоят суди архиви.. – . 2- варақ.
14. Қашқадарё вилоят суди архиви.– . 3- варақ.
15. Қашқадарё вилоят суди архиви. 2-варақ.
16. Қашқадарё вилоят суди архиви. 4-варақ.
17. Қашқадарё вилоят суди архиви. 11-варақ.
18. Тошев, С. (2020). Ўзбекистоннинг совет мустамлакачилиги даври тарихини ўрганишда турк тилидаги манбаларни ўрни. In Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари (pp. 121-127)
19. Toshev S. (2020). TARIX FANINI O‘QITISHNDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *Science and Education*, 1(Special Issue), 6
20. .JI Suyundikovich. (2020). TARIXNI O‘QITISH METODIKASI RIVOJLANISHI TARIXIDAN. *Fan va ta’lim*, 1 (5), 195.
21. Abdurakhmanova, J. N. (2020). The policy of tolerance in Uzbekistan (in the case of Greeks). *International Journal on Integrated Education*, 2(5), 212.
22. Mardonov, S., Toshtemirova, S., Ahmadjonov, B., & Koshanova, N. (2020). Structure and Mechanisms of Action of the Educational Cluster. *International Journal of Psychological Rehabilitation*, 24(7), 8104-8111.
23. Сулаймон Хайдаров. (2020). ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ ФАНИ ДАРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВОСИТАЛАРИНИНГ РОЛИ. *Science and Education*, 1(6), 174.
24. Javlonbek Rayimnazarovich Begaliyev. (2020). XIVA XONLIGI TARIXSHUNOSLIGI. *Science and Education*. 1 (6), 153-160.
25. Дониёр Бахтиёрович Аҳмаджанов. (2020). УРУШ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАР ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДАГИ ХУСУСИЯТЛАР. *Science and Education* 1 (6), 161.
26. G‘afforov, Y., Nafasov, A., & Nafasova, Z. (2020). From the History of the Beginning of the «Great Game». *Journal of Critical Reviews*, 7(11), 2798-2802.

27. Gaffarov, Y. (2019). *Technical approach in the education system. International Journal on Integrated Education*, 2(6), 40-41. Retrieved from <http://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/195>
28. Toshtemirova, S. (2020). *Factors Affecting the Quality of Education and the Importance of the Education Cluster to Address Them. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(4), 151-156.
29. Toshtemirova Saodat Abdurashidovna. *Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida //Uzluksiz ta'lim.-2020.- № 1 (86). — S.5*
30. Toshtemirova S.A. (2020). *THE QUALITY OF EDUCATION IS A PEDAGOGICAL PROBLEM. Актуальные вопросы современной науки Материалы VI международной научно-практической конференции. – С. 39-40*
31. Toshtemirova S. A. (2019). *KLASTER YONDASHUVI ASOSIDA MINTAQAVIY TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH. NamDU ilmiy axborotnomasi. Volume 1 Issue 11. 361-367.*
32. Jumagul Namozovna Abdurakhmanova, Shoira Berdiyarovna Jumaeva, & Ulugbek Kuchkarovich Ismailov. (2020). *The Importance of Shrines in The Spiritual Life and Mentality of Uzbek People. International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(09), 2389-2398.

QUYOSH QURILMASIDA TAYYORLANGAN KERAMIK PLITANING TEXNIK-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

A.I. Mustafoyev, M.O. Mustafoyeva,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali.

mustafoyevakmal@gmail.com

B.G. Kodirov, M.U. Djalilov

Samarqand davlat tibbiyot universiteti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada katta quyosh qurilmasi yordamida mahalliy xomg'ashyolar, jumladan, serpentin asosida tayyorlangan keramik plitalarning hozirgi rivojlanish jarayonida iqtisodiy tomonlama xossalari keltirilgan. Katta quyosh pechida eritilgan serpentin asosida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Serpentin, keramik plita, termostatlangan pech.

ABSTRACT

This article presents the economic properties of ceramic tiles made on the basis of local raw materials, including serpentine, in the current development process using a large solar device. The technical and economic indicators of the production of products based on molten serpentine in a large solar furnace are highlighted.

Key words: Serpentine, ceramic plate, thermostatic oven.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены экономические свойства керамической плитки, изготовленной на основе местного сырья, в том числе змеевика, в современном процессе разработки с использованием крупной солнечной установки. Выделены технико-экономические показатели производства изделий на основе расплавленного серпентина в большой солнечной печи.

Ключевые слова: серпантин, керамическая плита, термостатическая печь.

Bugungi kunda intensiv rivojlanib borayotgan keramika sohasida bir qancha yutuqlarga erishilmoqda. Shu jumladan yuqori haroratga chidamli olovbardosh

keramik plitalarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Keramik plitalarning bir qancha turlari mavjud bo'lib, biz ulardan tadqiqot uchun yuqori haroratga chidamli olovbardosh chinni buyum tayyorlash plitasini tanlab oldik. Chinni buyum tayyorlash plitasi chinni mahsulotlarini sintez qilish davomiyligida yuqori haroratli pechlarda bir necha sutka davomida ushlab turiladi. Chinni mahsulotlarining sifat darajasi unga xizmat qilayotgan plitaga bog'liq. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan chinni buyum tayyorlash tashkilotlari karbid kremniy asosidagi keramik plitalardan chinni mahsulotlarini sintez qilishda foydalanib kelishmoqda. Karbid kremniy asosidagi keramik plita bugungi kunda respublikamizda ishlab chiqarilmaydi, import yo'li bilan olib kelib foydalanishmoqda.

Tayyorlangan materiallar yuqori haroratga chidamli olovbardosh o'zida issiqlik saqlab qolish imkoniyatiga ega. Serpentinning erish temperaturasi 650°C uning kimyoviy tarkibi MgO , SiO va H_2O lardan iborat. Katta quyosh pechida eritilgan serpentina 60% AlO qo'shilsa hosil bo'lgan aralashmaning erish temperaturasi 2000°C ni tashkil qiladi. Bunday aralashmali keramik materialdan foydalanib, yuqori haroratga chidamli olovbardosh keramik g'ishtlar tayyorlanadi. Tayyorlangan yuqori haroratga chidamli olovbardosh g'ishtlar chinni buyum tayyorlash plitasini olishga mo'ljallangan 1700°C haroratda ishlaydigan termostatlangan elektr pechida qo'llaniladi.

Yuqori haroratga chidamli olovbardosh chinni buyum tayyorlash plitasi asosan karbid kremniy materialidan tayyorlanadi. Lekin, serpentin materialidan ushbu chinni tayyorlash plitasi tayyorlanganda bir qancha qulayliklarga olib keldi.

Karbid kremniy va serpentin materiallarini xarakterlovchi holatlar.

№	Materialning nomi	Materialning tarkibi	Material ning erish temperatura si $^{\circ}\text{C}$	Material ning termal aylanishlar soni №	Material ning 1kg tannarxi (so'm)	Plitani tayyorlash dagi energiya sarfi (kVt*soat)
1	2	3	4	5	6	7
1.	Karbid kremniy	SiC	2730	250	4547	12
2.	Serpentin	3MgO $2\text{SiO}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$	650	350	1000	2,5
3.	Serpentin +60% AlO	60% (3MgO $2\text{SiO}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$) +{40% (3MgO $2\text{SiO}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$) +60% (AlO)}	2000	400	1500	3

Termal aylantirishlardan keyin g'isht tayyor holatga keladi. Tayyor serpentini asosidagi yuqori haroratga chidamli olovbardosh keramik g'ishtdan chinni buyum tayyorlash plitasini tayyorlashga mo'ljallangan yuqori haroratli 1700 °C haroratli termostatlangan elektr pechi tayyorlanadi.

Yuqori haroratga chidamli olovbardosh keramik plitalarni mahalliy hom-ashyolardan bo'lgan Kumushkon serpentini katta quyosh pechida tayyorlash bir qancha samarali yutuqlarga erishishga olib keladi.

Keramik plitaning tarkibini tashkil qiluvchi karbid kremniy materiali tabiiy holatda respublikamizda mavjud emasligini hisobga olgan holda import mahsulotlardan bo'lgan chinni buyum tayyorlash plitasini mahalliy xom – ashyolarga asoslanib tayyorlash imkoniyatlari ham mavjud.

Jadvalda import mahsulot va mahalliy xomashyolarga asoslangan mineralining xarakterli parametrlari keltirilgan. Ko'rishimiz mumkinki Karbid kremniy materialining erish temperaturasi 2730°C, termal aylanishlar soni 250 va 1 kgning tannarxi 4547 so'mni tashkil etadi. 1 ta plitasini tayyorlash uchun 12 kVt soat energiya sarflanadi. Tabiiy holatdagi serpentini moddasining ham parametrlarini ko'rishimiz mumkin.

Biz taklif etayotgan serpentini materialiga 60% aluminiy oksidining aralashmasining erish temperaturasi 2000°Cni tashkil etadi. Chinni buyum tayyorlash pechlaridagi maksimal harorat 1580°Cni tashkil etishini hisobga olsak, bu aralashmadan tayyorlangan plitadan foydalanish mumkin. Chunki plita 2730°Cga temperaturaga chidashi shart emas. Termal aylanishlar soni 400 bo'lib, karbid kremniy aralashmasidan 1.6 barobar ko'proq ishlatiladi. Materialning tannarxi ham 3 martadan ko'proq arzonlashishini ko'rishimiz mumkin. 1 ta plitasini tayyorlash uchun 4 marta kam energiya sarfi sarflanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kamanov BM M. M. A. Mustafоеv AI localization of imported ceramic tiles //Journal of Irrigation and melioration. – 2020. – T. 3. – C. 28-32. -

2. Мустафоев А. И. и др. Влияние нагрева на фазовые превращения в геомодификаторе трения на основе слоистого серпентина //AGRO ILM» журналы. – Т. 4. – С. 97-99.

3. Каримов А. А., Мустафоев А. И. Технология керамики для материалов электронной промышленности: монография //Ташкент: Типография ТИИИМСХ. – 2020.

4. Каманов Б. М., Маматкосимов М. А., Мустафоев А. И. Юқори хароратга чидамли оловбардош плитани ишлаб чиқариш //Irrigatsiya va melioratsiya" jumali. – 2019. – Т. 4. – С. 18.

5. Sapaev J. et al. Development of automated water detection device //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – Т. 2432. – №. 1. – С. 020018.

6. Suvanova L. et al. Study of the technological possibilities of the large sole furnace in localization of imported electric heaters //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – Т. 2432. – №. 1. – С. 020017.

7. Мустафоев А. Юқори иссиқликка чидамли керамик плиталар учун оловбардош материаллар //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 380-382.

8. Мустафоев А. Маҳаллий хом-ашёларга асосланган юқори иссиқликка чидамли керамик плиталар //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 378-380.

9. Isaqulovich M. A. QUYOSH QURILMASIDA QAYTA ISHLANGAN MAHALLIY XOM-ASHYOLAR ASOSIDA TAYYORLANGAN KERAMIK PLITANING TEXNIK-IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 404-406.

10. Isaqulovich M. A. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA 17000C HARORATDA ISHLAYDIGAN TERMOSTATLANGAN ELEKTR PECHINI ISHLAB CHIQRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 389-391.

11. Mustafoev A. MANUFACTURE OF HIGH-TEMPERATURE ELECTRIC HEATERS BASED ON THE SOLAR ENERGY //Журнал иностранных языков и лингвистики. – 2022. – Т. 6. – №. 6. – С. 269-286.

12. Мустафоев А. И. и др. ИЗГОТОВЛЕНИЕ ЭЛЕКТРОНАГРЕВАТЕЛЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ БОЛЬШОЙ СОЛНЕЧНОЙ ПЕЧИ //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 167-171.

13. Мустафоев А. И. и др. КУМУШКОН СЕРПЕНТИНИНИНГ КАТТА ҚУЁШ ПЕЧИГА АСОСЛАНГАН ТАДҚИҚОТЛАРИ //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 98-103.

14. Abduganiyev A., Mustafoyeva M. Educational resources based on virtual reality //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 2035-2042.

15. Мустафоева М. Talabalarni individual ta 'lim trayektoriyasi orqali oqitishning samaradorligi //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 88-90.

16. Мустафоева М. Individual ta 'lim trayektoriyasi-talabaning ta 'lim sohasidagi shaxsiy imkoniyatlarini amalga oshirishning individual yonalishi //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 87-88.

17. Oltinbekovna M. M. PSYCHOLOGICAL APPROACH TO TEACHING A FUTURE PHYSICS TEACHER //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 86-92.

18. Oltinbekovna M. M. KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN TA'LIM: NAZARIYA VA AMALIYOT MUAMMOLARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 622-625.

19. Sapaev J. et al. Development of automated water detection device //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – Т. 2432. – №. 1. – С. 020018.

20. Suvanova L. S. et al. Studying the technological possibilities of the large sun face in the localization of imported jewelry stones //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – Т. 2432. – №. 1. – С. 020016.

21. Муратов И. М. и др. СУПЕРОКСИДНЫЙ КАТАЛИЗ МЕТАЛЛОКОМПЛЕКСАМИ ПОРФИРИНОВ И ФТАЛОЦИАНИНОВ //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 6-2 (96). – С. 41-44.

22. Мукумов И. У. и др. Распространение рода Шренкия во флоре Узбекистана //Вестник современных исследований. – 2019. – №. 5.2. – С. 25-27.

ҚУЁШ ҚУРИЛМАСИДА ҚАЙТА ИШЛАНГАН МАҲАЛЛИЙ ХОМ-АШЁЛАР АСОСИДА ТАЙЁРЛАНГАН КЕРАМИК ПЛИТАНИНГ ХОССАЛАРИ

А.И. Мустафоев, М.О.Мустафоева,

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Жиззах филиали.
mustafoevakmal@gmail.com

Б.Г. Кодиров, М.У.Джалилов

Самарқанд давлат тиббиёт университети.

ANNOTATSIYA

Ушбу мақолада Қуёш қурилмасида қайта ишланган маҳаллий хом-ашёлар асосида тайёрланган керамик плитанинг хоссалари тўғрисида маълумотлар келтирилган. Маҳаллий хом-ашё асосида импорт ўрнини босадиган керамикаларни ишлаб чиқариш жараёнини оптималлаштириш мумкинлиги қайд этилган. Табиий ҳолатда учрайдиган серпентин таркибини қисман ўзгартириш орқали импорт қилинадиган карбид кремний ўрнига ишлатиш мумкин бўлган юқори ҳароратга чидамли материаллар олиш мумкинлиги кўрсатилган. Катта қуёш печида эритилган серпентин асосида маҳсулот ишлаб чиқаришни таъкил этишнинг техник-иқтисодий кўрсаткичлари асосланган.

Калим сўзлар: Серпентин, нодир металл, керамик плита, катта қуёш печи.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о свойствах керамической пластины из местного сырья, обработанного в гелиоустановке. Отмечается возможность оптимизации процесса производства импортной керамики на основе местного сырья. Показано, что путем частичной модификации состава природного серпентина можно получить жаропрочные материалы, которые можно использовать вместо импортного карбида кремния. Обоснованы технико-экономические показатели организации производства изделий на основе серпентина, выплавленного в большой солнечной печи.

Ключевые слова: Серпентин, редкий металл, керамический плита, большой солнечный печ.

ANNOTATION

This article provides information on the properties of a ceramic plate made from local raw materials processed in a solar device. It is noted that it is possible to optimize the production process of imported ceramics based on local raw materials. It has been shown that by partially modifying the composition of naturally occurring serpentine, it is possible to obtain high temperature resistant materials that can be used instead of imported silicon carbide. Technical and economic indicators of the organization of production of products based on serpentine melted in a large solar furnace are based.

Key words: *Serpentine, rare metal, ceramic plate, large sunflower.*

Тайёрланган материаллар юқори ҳароратга чидамли оловбардош ўзида иссиқлик сақлаб қолиш имкониятига эга. Серпентиннинг эриш температураси 650°C унинг кимёвий таркиби MgO , SiO ва H_2O лардан иборат. Катта қуёш печида эритилган серпентинга $60\% \text{Al}_2\text{O}_3$ қўшилса ҳосил бўлган аралашманинг эриш температураси 2000°C ни ташкил қилади. Бундай аралашмали керамик материалдан фойдаланиб, юқори ҳароратга чидамли оловбардош керамик ғиштлар тайёрланади. Тайёрланган юқори ҳароратга чидамли оловбардош ғиштлар чинни буюм тайёрлаш плитасини олишга мўлжалланган 1700°C ҳароратда ишлайдиган термостатланган электр печида қўлланилади.

Юқори ҳароратга чидамли оловбардош чинни буюм тайёрлаш плитаси асосан карбид кремний материалдан тайёрланади. Лекин, серпентин материалдан ушбу чинни тайёрлаш плитаси тайёрланганда бир қанча қулайликларга олиб келди

Серпентин керамик маҳсулоти ва унга қўшилган керамик материалларнинг химиявий таркиби $\{60\% (3\text{MgO} \cdot 2\text{SiO}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O} - 40\% , \text{Al}_2\text{O}_3 - 60\%) + 40\% \text{серпентин}\}$, $\{1800^{\circ}\text{C}$ да 144 соат давомида синтез қилинган $\}$.

Серпентин керамик маҳсулоти ва унга қўшилган керамик материаллардан тайёрланган керамик плитани яъни, чинни буюм тайёрлаш плитасини синтез қилиниш жадвали 1-жадвалда келтирилган.

Тайёрланган керамик плитани мустаҳкамлигини ошириш учун термал айлантериш 2-жадвалда келтирилган. Бунда чинни буюмларни синтез қилишда, чинни буюм тайёрлаш плитасини термал айланишлари сони яъни, юқори ҳароратли печда чинни буюмларни тайёрлаш жараёнида бир неча юз бор термал айланишларга дуч келади, бундай термал айланишларга бардош беришлиги учун ушбу кўрсатилган тажрибадан ўтишлиги лозим.

1-жадвал

Серпентин ва унга қўшилган аралашмалардан тайёрланган плитани синтез қилиниши.

№	Температура °С	Вақти (соат)
1	300	2
2	400	1
3	600	1
4	800	1
5	1000	0,5
6	1100	0,5
7	1200	0,5
8	1250	0,5
9	1300	1

Термал айлантиришлардан кейин ғишт тайёр ҳолатга келади. Тайёр серпентин асосидаги юқори ҳароратга чидамли оловбардош керамик ғишдан чинни буюм тайёрлаш плитасини тайёрлашга мўлжалланган юқори ҳароратли 1700 °С ҳароратли термостатланган электр печи тайёрланади.

2-жадвал

Плитани мустаҳкамлигини ошириш учун термал айланишлар вақти

№	Температура °С	Печда туриш вақти (минут)	Термал айланишлар сони	Хона температурасида туриш вақти (минут)
1	1350	10	50	10
2	1450	10	50	10
3	1550	10	50	10

Юқори ҳароратга чидамли оловбардош керамик плиталарни маҳаллий хом-ашёлардан бўлган Кумушкон серпентинидан катта қуёш печида тайёрлаш бир қанча самарали ютуқларга эришишга олиб келади. Қуйидаги 3-жадвалда серпентин ва ундан тайёрланган юқори ҳароратга чидамли оловбардош керамик плитанинг таркибидаги материалларни характерловчи ҳолатлар келтирилиб ўтилган.

3-жадвал.

Карбид кремний ва серпентин материалларини характерловчи ҳолатлар.

№	Материалнинг номи	Материалнинг таркиби	Материалнинг эриш температураси °C	Материалнинг термал айланишлар сони №	Материалнинг 1кг таннархи (сўм)	Плитани тайёрлашдаги энергия сарфи (кВт*соат)
1	2	3	4	5	6	7
1.	Карбид кремний	SiC	2730	250	4547	12
2.	Серпентин	3MgO 2SiO ₂ ·2H ₂ O	650	350	1000	2,5
3.	Серпентин +60% Al ₂ O ₃	60%(3MgO 2SiO ₂ ·2H ₂ O) +{40%(3MgO 2SiO ₂ ·2H ₂ O) +60%(Al ₂ O ₃)}	2000	400	1500	3

Бунда Quanta 200 микроскопида сканер қилувчи электрон микроскопия (SEM) тадқиқоти, EDAX рентген микроспектрал анализатори ёрдамида маҳаллий кимёвий микроанализ ўтказилди. Намуналарнинг тузилишини таҳлил қилиш учун намунанинг кесишган қисми ёки унинг майдони 1 см² гача бўлган қисми устида абразив қисмлар қилинган. Сараланган участкаларни абразив материали сифатида, олмос абразив материаллар ишлатилган. Намуналарни металлографик тадқиқоти МЕЛІ -7200 оптик микроскопда ёритилган, 1000* тагача нурли нурда ўтказилган. Доналарнинг ўртача ҳажми Thixomet дастуридан фойдаланиб аниқланган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Kamanov VM M. M. A. Mustafiev AI localization of imported ceramic tiles //Journal of Irrigation and melioration. – 2020. – Т. 3. – С. 28-32. -
2. Мустафоев А. И. и др. Влияние нагрева на фазовые превращения в геомодификаторе трения на основе слоистого серпентина //AGRO ILM» журналы. – Т. 4. – С. 97-99.
3. Каримов А. А., Мустафоев А. И. Технология керамики для материалов электронной промышленности: монография //Ташкент: Типография ТИИИМСХ. – 2020.

4. Каманов Б. М., Маматкосимов М. А., Мустафоев А. И. Юқори хароратга чидамли оловбардош плитани ишлаб чиқариши //Irrigatsiya va melioratsiya" jumali. – 2019. – Т. 4. – С. 18.

5. Saraev J. et al. Development of automated water detection device //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – Т. 2432. – №. 1. – С. 020018.

6. Suvanova L. et al. Study of the technological possibilities of the large sole furnace in localization of imported electric heaters //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – Т. 2432. – №. 1. – С. 020017.

7. Мустафоев А. Юқори иссиқликка чидамли керамик плиталар учун оловбардош материаллар //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 380-382.

8. Мустафоев А. Маҳаллий хом-ашёларга асосланган юқори иссиқликка чидамли керамик плиталар //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 378-380.

9. Isaqulovich M. A. QUYOSH QURILMASIDA QAYTA ISHLANGAN MAHALLIY XOM-ASHYOLAR ASOSIDA TAYYORLANGAN KERAMIK PLITANING TEXNIK-IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 404-406.

10. Isaqulovich M. A. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA 17000C HARORATDA ISHLAYDIGAN TERMOSTATLANGAN ELEKTR PECHINI ISHLAB CHIQRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 389-391.

11. Mustafoev A. MANUFACTURE OF HIGH-TEMPERATURE ELECTRIC HEATERS BASED ON THE SOLAR ENERGY //Журнал иностранных языков и лингвистики. – 2022. – Т. 6. – №. 6. – С. 269-286.

12. Мустафоев А. И. и др. ИЗГОТОВЛЕНИЕ ЭЛЕКТРОНАГРЕВАТЕЛЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ БОЛЬШОЙ СОЛНЕЧНОЙ ПЕЧИ //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 167-171.

13. Мустафоев А. И. и др. КУМУШКОН СЕРПЕНТИНИНИНГ КАТТА ҚУЁШ ПЕЧИГА АСОСЛАНГАН ТАДҚИҚОТЛАРИ //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 98-103.

14. Abduganiyev A., Mustafoyeva M. Educational resources based on virtual reality //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 2035-2042.

15. Мустафоева М. Talabalarni individual ta'lim trayektoriyasi orqali oqitishning samaradorligi //Современные инновационные исследования

актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 88-90.

16. Мустафоева М. *Individual ta 'lim trayektoriyasi-talabaning ta 'lim sohasidagi shaxsiy imkoniyatlarini amalga oshirishning individual yonalishi //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 87-88.*

17. Oltinbekovna M. M. *PSYCHOLOGICAL APPROACH TO TEACHING A FUTURE PHYSICS TEACHER //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 86-92.*

18. Oltinbekovna M. M. *KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN TA'LIM: NAZARIYA VA AMALIYOT MUAMMOLARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 622-625.*

19. Sapaev J. et al. *Development of automated water detection device //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – Т. 2432. – №. 1. – С. 020018.*

20. Suvanova L. S. et al. *Studying the technological possibilities of the large sun face in the localization of imported jewelry stones //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – Т. 2432. – №. 1. – С. 020016.*

21. Муратов И. М. и др. *СУПЕРОКСИДНЫЙ КАТАЛИЗ МЕТАЛЛОКОМПЛЕКСАМИ ПОРФИРИНОВ И ФТАЛОЦИАНИНОВ //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 6-2 (96). – С. 41-44.*

22. Мукумов И. У. и др. *Распространение рода Шренкия во флоре Узбекистана //Вестник современных исследований. – 2019. – №. 5.2. – С. 25-27.*

MAKTABGACHA TA'LIMNING NOAN'ANAVIY SHAKLLARINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Davlatboyeva Nodira Zokirjon qizi

Urganch davlat universiteti,
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi.

ANNOTATSIYA

Maqolada an'anaviy faoliyatlar va noan'anaviy faoliyatlar tahlili bayon etilgan. Bu faoliyatlarning bola rivojlanishiga ta'siri. An'anaviy faoliyatlarning noan'anaviy faoliyatlardan farqi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning bola tarbiyasidagi ahamiyati haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: noan'anaviy mashg'ulotlar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, noan'anaviy metodlar texnologiyasi, noan'anaviy faoliyatlarning bola ta'lim va tarbiyasidagi ahamiyati, noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining vazifalari.

Bugungi kunga qadar maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar bilan ishlashning turli shakllarini qo'llash bo'yicha boy tajriba to'plangan. Maqolamizning bir qismi sifatida biz maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashning bunday shakliga ta'lim holati sifatida murojaat qilamiz. Ta'lim holati bolalarning kichik kichik guruhining ishtirokini o'z ichiga oladi: bolalarning xohishiga va vaziyat mazmunining o'ziga xos xususiyatlariga qarab, uchdan sakkizgacha. O'quv jarayonida bir didaktik vosita (syujetli rasm, o'yinchoq, kitob, tabiiy material) bilan bir nechta o'quv vaziyatlarini tashkil qilish mumkin, ammo kognitiv-nutq xarakteridagi murakkabroq vazifalarni bosqichma-bosqich hal qilish uchun.

Bugungi kunda maktabgacha ta'limda dizayn alohida o'rin tutadi. Zamonaviy pedagogikada loyiha usuli samarali ta'lim tizimining tarkibiy qismi sifatida tizimli fan ta'limi bilan bir qatorda qo'llaniladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida loyiha usulining asosiy maqsadi - rivojlanish vazifalari bilan belgilanadigan bolaning erkin ijodiy shaxsini rivojlantirish, Loyiha usuli - bu pedagogik texnologiya bo'lib, uning o'zagi bolalarning mustaqil faoliyati - tadqiqot, kognitiv, samarali bo'lib, uning davomida bola atrofdagi dunyoni o'rganadi va yangi bilimlarni haqiqiy mahsulotlarga kiritadi.

Boshqacha qilib aytganda, nazariyadan amaliyotga - o'qitishning har bir bosqichida tegishli muvozanatni saqlagan holda, akademik bilimlarni pragmatik bilimlar bilan uyg'unlashtirish. Zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalari amaliyotida qo'llaniladigan va maktabgacha yoshdagi bolalarda ob'ektiv dunyo

tarixiga qiziqish paydo bo'lganda foydalanish mumkin bo'lgan loyihalar turlarini ko'rib chiqish muhim ko'rinadi:

Noan'anaviy ta'lim aniq bir mavzudan uzoqlashmagan holda, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda, turli ta'lim metodlaridan foydalanib mashg'ulotni tashkil etishdir.

An'anaviy ta'lim - ta'lim tizimining negizidir. Uni noan'anaviy qilish uchun talabalarni qiziqtiradigan yangi texnologiyalaridan foydalanish kifoya.

Davr shiddat bilan o'zgarib borayotganligi sababli maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uchun nostandart, noan'anaviy yondashuvni talab qiladi. Bizning davrimizda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishni tashkil etishning yangi shakllari va usullarini izlash nafaqat tabiiy hodisa, balki zaruriy hodisa hamdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir bolaning faol ishtirokini ta'minlaydigan, ularning diqqatini chorlaydigan, bolalarning shaxsiy javobgarligini oshiradigan, mustaqil tarzda ish qobiliyatini shakllantiradigan faoliyatlarni tashkil eta olish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Buni nostandart, noan'anaviy ta'lim va tarbiya shakllari texnologiyasi orqali muvaffaqiyatli hal etish mumkin.

Noan'anaviy faoliyatlarning vazifalari: bolaning rivojlanish darajasini yaxshilash. Insonning axloqiy fazilatlarini, qarashlari va individulliligini shakllantirish tarbiyalanuvchilarda bilimga qiziqish, ijodkorlik, iroda, his-tuyg'ular, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishga o'rgatishda - nutq, xotira, e'tibor, tasavvur, idrok. Ta'limni noan'anaviy tashkil etish shakllari hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim muassasalari amaliyotida eng samarali qo'llanilmoqda.

Darsning noan'anaviy shakllari, qoida tariqasida, bitta yoki bir nechta mavzularni, mashg'ulotlarni o'rgangandan so'ng, mustahkamlash funktsiyalarini bajarish uchun amalga oshiriladi. Bunda birinchi navbatda ta'lim muhiti o'zgartiriladi. Xato qilish qo'rquvi tufayli an'anaviy sharoitda paydo bo'ladigan ruhiy to'siqni yo'q qiladi va bajarilgan ish natijalarini sarhisob qilishda bayramona muhit yaratadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun noan'anaviy faoliyatlarni tashkil etish faoliyatlarda uslubiy, pedagogik va psixologik xarakterdagi maqsadlarga erishish mumkin. Bular quyidagilar: talabalarning ma'lum bir mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilinadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyatlarni jiddiy qabul qilish ko'nikmasi vujudga kelib, ijodiy muhit tashkil etiladi.

Tarbiyachi faoliyat davomida minimal ishtirok etadi. Ta'lim jarayonining pedagogik samaradorligini pasaytiradigan noan'anaviy faoliyatlarning kamchiliklariga quyidagilar kiradi. Ijobiy o'zgarishlar - bilim va ko'nikmalar sifatining oshishi, talabalar rivojlanishidagi siljishlar prognozining yo'qligi. Hamma tarbiyachilar faoliyatlarning asosiy g'oyasini, uning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini aniqlay

olmaydilar. Reproduktiv ta'lim texnologiyalarining tarqalishi. Ta'lim jarayonining mazmuniga emas, balki asosan uni tashkil etish shakliga e'tibor beriladi. Ba'zi bir faoliyat turlarida haddan tashqari didaktik materiallar ortiqcha yuklanadi. Faoliyatlar doimo integratsiyalashgan, ko'ngil ochar shaklda tashkil etiladi. Bu kabi faoliyatlarda alohida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lmagan faktik materiallar bilan ishlash ustunlik qiladi.

Noan'anaviy faoliyatlarni tashkil etishda qo'yiladigan talablar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachi, pedagoglari, psixologlari noan'anaviy faoliyatlarni tashkil etishda bir necha talablarga javob berishlari kerak.

Bular quyidagilar:

Noan'anaviy faoliyatlar maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini umumlashtirish va mustahkamlashda yakuniy mashg'ulot sifatida ishlatilishi kerak. Ta'lim jarayonini tashkil etishning bunday shakllariga juda tez-tez murojaat etish noo'rin, chunki bu mavzuga va o'quv jarayoniga doimiy qiziqishni yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Noan'anaviy faoliyatlardan oldin puxta tayyorgarlik ko'rish va birinchi navbatda ta'lim va tarbiyaning aniq maqsadlari tizimini ishlab chiqish kerak.

Noan'anaviy faoliyatlar shakllarini tanlashda tarbiyachi, pedagog, psixolog maktabgacha ta'lim yshidagi tarbiyalanuvchilarning xarakteri va temperamentining xususiyatlarini, tayyorgarlik darajasi va umuman butun guruhning va tarbiyalanuvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishlari kerak.

Noan'anaviy faoiyatlarni tashkil etishning didaktik talablari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar noan'anaviy faoliyatlarini tashkil etishda – faoliyat nafaqat bola uchun bilim bera olishi, birinchi navbatda ijodiy muhitni yaratib berishi zarurdir.

Noan'anaviy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishini orttirishi, faoliyatlar davomiaesa, bolalarni mustaqil tarzda ishchanligini oshirishi kerak. Faoliyat tarbiyachiga maktabgacha yoshdagi bolalarning individual qobiliyatlarini o'rganishga, ular orasidan iqtidorli, qobiliyatli bolalarni aniqlashga yordam beradi. Noan'anaviy faoliyat tarbiyalanuvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish bilan birga o'quv dasturining asosiy mazmunidan chalg'itmasligi kerak.

Noan'anaviy faoliyat davomida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi ijodiy yoki amaliy ma'noda muhim tadqiqotlarni izlayotgan tadqiqotchi sharoitida o'zini his etib, shu yo'sinda mashg'ulotlarda ishtirok etishi kerak. Noan'anaviy faoliyat talabani ixtiyoriy ishni bajarish majburiyati bilan birlashtirish asosida rivojlantirishi va takomillashtirishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatida loyiha usuli: Pos. maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari va amaliyotchilari uchun / Avt.-komp.*
2. *L.S. Kiseleva, T.A. Danilina va boshqalar - M.: ARKTI, 2011. - 196 p. Somkova O.N. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil etishga yangi yondashuvlar // Bolalar bog'chasi: nazariya va amaliyot. - No 3. - S. 6 - 17.*

**OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATIDA MIS ISHLAB
CHIQRISHNING CHIQINDISIZ TEXNOLOGIYASINI
ISHLAB CHIQISH MUAMMOLARI**

Olmos Najmiddinovich Boltayev

I.Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali

Ikrom Ismatillayevich Shaymanov

I.Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali

Farrux Umidovich Abdinazarov

I.Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida mis ishlab chiqarishning chiqindisiz texnologiyasini ishlab chiqish muammolari keng yoritilgan va klassik texnologiyalardan voz kechilib yangi texnologiya ishlab chiqarish taklifi berilgan.

***Kalit soʻzlar:** Pirometallurgik sxema, sulfidli mis, yalligʻ qaytaruvchi, Vanyukov pechi, shlak, klassik texnologiya, temir.*

**PROBLEMS OF DEVELOPMENT OF WASTE-FREE TECHNOLOGY OF
COPPER PRODUCTION AT ALMALYK MINING
AND METALLURGY COMBINATION**

Olmos Najmiddinovich Boltayev

Almalyk branch of TSTU named after I.Karimov

Ikram Ismatillayevych Shaymanov

Almalyk branch of TSTU named after I.Karimov

Farrukh Umidovich Abdinazarov

Almalyk branch of TSTU named after I.Karimov

ABSTRACT

In this article, the problems of developing waste-free technology of copper production at the Almalyk mining and metallurgical combine are widely covered and

a suggestion is made to produce a new technology by abandoning the classical technologies.

Key words: *Pyrometallurgical production, sulphide copper, new reducer, Vanyukov furnace, slag, classical technology, iron.*

Olmaliq kon-metallurgiya kombinati (OKMK) singari dunyoning aksariyat korxonalarida xomaki misni ishlab chiqarishning klassik pirometallurgik sxemasi qo'llaniladi. Bunga ko'ra, sulfidli mis rudalari dastlab flotatsion usulda boyitilib, tarkibida 16 – 20 % mis tutgan konsentrat olinadi. Olingan misli konsentrat yuqori haroratda termik qayta ishlash maqsadida metallurgik pechlarga yuklanadi. Metallurgik zavodlarda misli xomashyolarni qayta ishlashga mo'ljallangan bir necha xil eritish pechlari mavjud. Ularga Yallig' qaytaruvchi, Kislorod-mash'alali va Vanyukov kabi eritish pechlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Bu eritish pechlarining ishlash prinsiplari har xil bo'lishiga qaramay olinadigan mahsulotlari bir-biriga o'xshash bo'ladi, ya'ni mahsulot sifatida misli shteyn (30 – 50 % Cu), shlak va sanoat gazlari hosil bo'ladi. Oraliq mahsulot – misli shteynni konvertorlash jarayoniga beriladi, u yerda havo kislorodi ishtirokida shteyn tarkibidagi keraksiz elementlarni oksidlantirish yo'li bilan misni tozalab xomaki mis olinadi (96 – 98 % Cu). So'ngra xomaki misni olovli tozalash jarayonida anod qoliplarga quyib elektroliz jarayoniga yuboriladi va natijada yuqori sifatli misli katodlar olinadi (99,99 % Cu).

Bu klassik texnologiya o'zining yutuqlari bilan birga bir nechta kamchiliklarga ham ega. Masalan, eritish pechlaridan va konvertordan katta miqdorda chiqindi shlak hosil bo'ladi. Bu chiqindi shlaklarni qayta ishlash uchun yana qo'shimcha dastgohlar, maydon va mablag' talab etiladi. Agar shlaklarni qayta ishlanmasa ular borgan sari ko'payib, atrof-muhitga zarar yetkaza boshlaydi va ekologiyani yomonlashtiradi. Bundan tashqari, Yallig' qaytaruvchi, Vanyukov va olovli tozalash pechlarida yuqori haroratni ta'minlash uchun juda ko'p miqdorda tabiiy gaz va mazut ishlatiladi. Bu esa olinadigan misning tan-narxini oshiradi va mis ishlab chiqarishdan qoladigan sof foydani kamaytiradi. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, ba'zi pechlardan chiqadigan shlaklar tarkibida misning miqdori yuqori, masalan, kislorod-mash'alali pechi shlaki tarkibida misning miqdori 1 % atrofida, konvertor pechi shlaki tarkibida misning miqdori esa 3 % atrofida bo'ladi. Bu esa chiqindi uchun ruxsat etilgan miqdordan ancha yuqori ko'rsatkichdir. Endi bu shlaklarni qayta ishlash majburiy hisoblanadi va qurilish materiali sifatida ishlatish mumkin emas. Chunki bu chiqindilarning tarkibida ko'p miqdorda mis, oltin va kumush kabi qimmatbaho metallar mavjud. Xo'sh, bu metallarni shlakdan ajratib olish mumkinmi degan savol tug'ilishi tabiiy. Javob tariqasida shuni aytishimiz mumkinki, shlaklar sekin soviganda juda mustahkam kristall panjara hosil qiladi, bu mustahkam strukturani buzish uchun esa katta kuch va

energiya talab etiladi. Bundan tashqari, shlaklardagi misning ko‘p miqdori oksidlangan ko‘rinishda bo‘lib, uni flotatsion usulda ajratib olib bo‘lmaydi. Bundan kelib chiqadiki, qattiq shlaklarni maydalash qiyin va buning uchun ko‘p kuch, energiya hamda mablag‘ sarflanadi. Natijada mis ishlab chiqarishda tayyor mahsulotning tan-narxi ortib, texnologiya iqtisodiy samara bermaydi.

Metallurglar misni ko‘p miqdorda chiqindiga chiqib ketishining asosiy sababini o‘rganishdi va bunga sabab “jarayon mobaynida katta miqdorda shlak massasining hosil bo‘lishidir” degan xulosaga kelishdi. Chunki agar jarayonda 1 tonna 2 % mis tutgan shlak hosil bo‘lsa, uning miqdori 20 kilogramni tashkil etadi, agar 100 kg 2 % mis tutgan shlak hosil bo‘lsa, bu miqdor 2 kilogramni tashkil etadi. Misning sarfi qariyb 10 martaga kamayadi. Demak, bu muammoni asosiy sababchisi shlakning massasi ekan.

Bizning holatimizda asosiy shlak hosil qiluvchi komponent – bu temir. Chunki ruda tarkibida mis ko‘proq xalkopirit (CuFeS_2) minerali ko‘rinishida uchraydi. Bunday rudalarda misning xalkopirit (CuFeS_2) va kovellin (CuS) minerallariga taqsimlanishi mos ravishda 9:1 nisbatni tashkil qiladi. Bu holat minerallarni selektiv flotatsiya usulida boyitishda temirdan xalos bo‘lish imkoniyatini bermaydi. Natijada mis bilan kimyoviy bog‘langan temir ham konsentratga o‘tib misning foiz miqdorini oshishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Demak, qilingan tahlildan shunday xulosaga kelish mumkinki, temirdan yo eritishdan oldin qutilish kerak, yoki eritish o‘rniga boshqa usul tanlash kerak. Hozircha xomashyoni qayta ishlashga tayyorlov jarayonida temirdan xalos bo‘lishning choralari topilmagan. Lekin eritish jarayoni o‘rniga boshqa samaraliroq usul izlab topish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Norqobilov Y.F., Raxmataliyev Sh.A., Suyunova M.N. *Yosh metallurg [Matn]: savol-javoblar, qiziqarli ma‘lumotlar va metallar ishlab chiqarish texnologik jarayonlari.* – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2019. - 140 b.

2. A.A. Yusupkhodjayev, Sh.T. Khojiyev. *Methods of decreasing of Copper loss with Slag in Smelting Processes// International Academy Journal Web of Scholar.*

3. *Pyrometallurgical Processing of Copper Slags into the Metallurgical Ladle // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, Vol.6(2), February 2019. P. 8094 – 8099.*

4. Suyunova M.N., Babaev B.S., Yavkochiva D.O. *Recycling of copper slags with local reductants // Современные технологии: Актуальные вопросы, достижения и инновации: сборник статей XXVII Международной научно-практической конференции.*

5. Хожиев Ш.Т. Разработка эффективной технологии извлечения меди из конверторных шлаков// *Journal of Advances in Engineering Technology*, Vol.1(1), Sept, 2020. P. 50 – 56.

REFERENCES

1. Norqabilov Y.F., Rakhmataliyev Sh.A., Suyunova M.N. *Young metallurgist [Text]: questions and answers, interesting information and technological processes of metal production.* - Tashkent: "Tafakkur" publishing house, 2019. - 140 p.

2. A.A. Yusupkhodzhayev, Sh.T. Khojiyev. *Methods of decreasing copper loss with slag in smelting processes*// *International Academy Journal Web of Scholar*.

3. *Pyrometallurgical Processing of Copper Slags into the Metallurgical Ladle* // *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, Vol.6(2), February 2019. P. 8094 – 8099.

4. Suyunova M.N., Babaev B.S., Yavkochiva D.O. *Recycling of copper slags with local reductants.*

5. Khojiev Sh.T. *Razrabotka effektivnoy tekhnologii izvlecheniya medi iz konvertornykh shlakov*// *Journal of Advances in Engineering Technology*, Vol.1(1), Sept, 2020. P. 50 – 56.

MAKTABGACHA TA'LIMDA MEZONLAR ASOSIDA BOLALARDA RIVOJLANISH JARAYONINING SIFAT VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Karriboyeva Lobarxon Fayzulla qizi

Urganch davlat universiteti,
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi.

ANNATATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, bolalarda kompetensiyaviy faoliyatlarni amalga oshirish mexanizmlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Tayanch iboralar: Rivojlanish, tarbiya, ta'lim sohalari, rivojlanish sohalari, ta'lim sohalarining mazmuni, ta'lim sifatiga oilaning ta'siri.

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunga muvofiq Maktabgacha ta'lim va tarbiya ta'lim turlarining dastlabki bosqichi sanaladi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan belgilanadi.[1]

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-sonli qaroriga muvofiq Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartida belgilangan vazifa va talablarni joriy etish bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi faoliyat markazlarini tashkil qilish, har bir markazni bolalarning yosh xususiyatlarini, qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularga o'yinlar orqali ta'lim - tarbiya berish, ularning rivojlanish ko'rsatkichlarini belgilab borish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida barcha rejim momentlari amalga oshiriladi va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturning mazmuni bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga o'rgatiladi. Maktabgacha ta'limning mazmuni beshta ta'lim yo'nalishi bo'yicha amalga oshiriladi: Jismoniy rivojlanish va

sogʻlom turmush tarzining shakllanishi; Ijtimoiy-hissiy rivojlanish; Nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari; Bilish jarayonining rivojlanishi; Ijodiy rivojlanish.

Taʼlim sohalarining mazmuni bolalar faoliyatining barcha turlarini qamrab oladi. Taʼlim sifati mavzuni rivojlantiruvchi muhitni rivojlanishiga bogʻliq boʻlib, uning boyitilishi va toʻldirilishi bolaga oʻz-oʻzini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.

Mavzuni rivojlantirish muhiti barcha faoliyat turlari ishtirok etishi uchun tashkil etilishi kerak. Ota-onalarning yordamisiz barcha zamonaviy talablarga javob beradigan rivojlanayotgan muhitni yaratish, taʼlim sifatini oshirish va maktabgacha taʼlim muassasasi imidjini yaxshilash mumkin emas. Ammo ota-onalarni taʼlim jarayoniga qanday jalb qilish kerak? Buning uchun pedagoglar ota-onalar bilan ishlashning yangi shakllari va usullarini izlashlari kerak (bular - davra suhbatlari, tanlovlarda, musobaqalarda qatnashish, tarbiyachiga turli tadbirlarda yordam berish). Oila taʼsiri sifatlari taʼlim jarayonining bir qismidir.

Soʻnggi tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, zamonaviy bolalar asosan “motor” tanqisligini boshdan kechirishadi, ular stressga moyil boʻlib, bolalarning stressi - bu bolada ijobiy hissiyotlar yetishmasligi va oiladagi salbiy muhit va boshqalar.

Shu sababli, tarbiyachilar oldida turgan vazifalardan biri bu taʼlim va tarbiya jarayonida bolalar salomatligini har tomonlama saqlash, sogʻlikni saqlovchi taʼlim texnologiyalaridan foydalanishdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlash uchun bolaning psixologik qulayligi taʼminlanishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ushbu komponent umuman taʼlim sifatini belgilaydi. Aynan “farovon” bola bilimlarni optimal darajada oʻzlashtiradi, faoliyatida rivojlanadi, tengdoshlari va kattalar bilan aloqa oʻrnatadi.

Maktabgacha taʼlim sifatining ikkita asosiy koʻrsatkichi mavjud: Maktabgacha taʼlim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining maktabda oʻqishga tayyorligi darajasi va tarbiyalanuvchilarning salomatligi darajasi.

Maktabgacha taʼlim tashkilotimizda maktabgacha taʼlim sifati muammosini hal qilishda zamonaviy yondashuv sifatida biz integratsiya usulidan keng foydalanamiz. Bizning tashkilotimizdagi tarbiyachilar barcha rejim momentlarini bajaradilar va ularda bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda dastur mazmunini shakllantiradilar. Maktabgacha taʼlimning mazmuni beshta taʼlim yoʻnalishi boʻyicha amalga oshiriladi Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi; Ijtimoiy-hissiy rivojlanish; Nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari; Bilish jarayonining rivojlanishi; Ijodiy rivojlanish. Taʼlim sohalarining mazmuni bolalar faoliyatining barcha turlarini qamrab oladi. Har bir pedagogning umumiy maqsadi - obyektini har xil tomondan oʻrganadigan bolaning har tomonlama rivojlanishiga hissa qoʻshishdan iborat. Maktabgacha taʼlim sifati bu bolalar bogʻchasidagi har bir bolaning hayot sifatidir. Ushbu muammo bugungi kunga qadar

hal qilinmagan. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi maktabgacha yoshdagi bolalarni parvarish qilish va nazorat qilish, ularni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish bo'yicha xizmatlar sohasi sifatida qabul qilinadi. O'zbekiston ta'limi Standartiga muvofiq maktabgacha ta'lim ta'limning birinchi bosqichi hisoblanadi.

Bizning maktabgacha ta'lim tashkilotimizda biz maktabgacha ta'limning taxminiy umumiy ta'lim dasturini tanladik va ishlayapmiz. Veraksy, T.S. Komarova, M.A. Vasileva "Tug'ilgandan maktabgacha", shuningdek, bolalarni maktabga tayyorlash, ingliz tilini o'qitish, ritmni, rasm chizishni o'rgatish, tuzli hamirni modellashtirishni o'rgatish va h.k. Uchun qo'shimcha ta'lim xizmatlari joriy etildi. Maktabgacha ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omil shundaki, bolalar bog'chasida yuqori pedagogik ma'lumotlarga ega va birinchi malaka toifasiga ega bo'lgan tarbiyachilar shtati mavjud bo'lishi kerak.

Tarbiyachilar doimiy ravishda o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanadilar, tanlovlarda qatnashadilar. Shuningdek, muassasada barcha kerakli mutaxassislar ishlaydi: logoped, jismoniy tarbiya o'qituvchisi, psixolog, musiqa rahbari va tibbiyot xodimi. Barcha mutaxassislar bolalar salomatligi, rivojlanishi va ta'lim olishlari uchun bir-biri bilan hamkorlik qiladi. Bu sohani rivojlanayotgan muhit holati, shuningdek, maktabgacha ta'lim sifati muammolarini hal qilishda zamonaviy yondashuvdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotimizda rivojlanayotgan muhit doimiy ravishda to'ldirilib, takomillashtirilmoqda. Yosh xususiyatlariga ko'ra ta'limiy o'yinlar va o'yinchoqlar mavjudligi. Oila ta'siri ham ta'lim sifati jarayonining bir qismidir. Tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan juda ko'p ishlar olib borilmoqda, bularda ota-onalar va bolalar faol ishtirok etadigan davra suhbatlari va muhokamalardan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni. O'zbekiston respublikasi qonuni, 23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son.*
2. *Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qaroriga ilova.*

FARG‘ONA VODIYSI TO‘QAYZORLARI VA TO‘QAY O‘SIMLIKLAR MUHOFAZASI

Nurmatov Abbosbek Botirjon o‘g‘li
Andijon Davlat Universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Farg‘ona vodiysida tarqalgan to‘qayzorlar hamda ularning muhofaza etilishi yoritilgan. Biz asrab-avaylashimiz kerak bo‘lgan to‘qayzorlarning qanchalik tabiatimizga kerakli ekanligini tushuntirib, to‘qay o‘simliklarni himoya qilish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona soyliqi, Farg‘ona cho‘li, buta, na‘matak, O‘simliklar muhofazasi.*

АБСТРАКТ

В данной статье рассказывается о садах и их охране в Ферганской долине. Он заключается в том, чтобы объяснить, насколько важны для нашей природы рощи, которые мы должны охранять, и разработать меры по защите лесных растений.

Ключевые слова: *Ферганская долина, Ферганская пустыня, кустарник, вереск, защита растений.*

ABSTRACT

This article describes orchards and their protection in the Fergana Valley. It is to explain how important the groves that we need to protect are to our nature, and to develop measures for the protection of grove plants.

Key words: *Fergana valley, Fergana desert, bush, heather, plant protection.*

KIRISH

Bizga ma‘lumki, Farg‘ona vodiysi o‘zining go‘zal tabiati, mo‘tadil iqlimi, boy xilma-xil o‘simliklari hamda hayvonot olami bilan barchani o‘ziga jalb etadi. Farg‘ona soyliqi — O‘rta Osiyodagi tog‘lar orasida joylashgan vodiy, Uning geografik o‘rni chuqurlikda joylashib, atrofni baland tog‘lar orab olgan.

Farg‘ona vodiysi daryolari va soylari yaqinida bir qancha to‘qaylar mavjud. Bu yerdagi o‘sayotgan o‘simliklar vodiy tabiati uchun beqiyos ahamiyatga ega. To‘qayzorlar daryo suvini taqsimlashda eng asosiy sababchilardan biridir, bundan tashqari toshqinlarning oldini olish tuproq eroziyasi hamda daryo bo‘yi qirg‘oqlari

yemirilishining oldini oladi . Tuproq tarkbidagi tuz me'yorini saqlaydi. Ammo, to'qayzorlarga bo'lgan no'tog'ri munosabat, ularga jiddiy zarar yetkazib inqirozga uchratmoqda. Vodiy hududlari atrof-muhitiga kimyoviy birikmalar, yog'ekstraksiyalari, hamda boshqa zavodlar tufayli turli xil chiqindilar, gazlar chiqarilayapti.

Tadqiqot metodologiyasi.

To'qay, to'qayzor - daryo bo'yidagi qalin, changalzor o'rmon. Suv serob, mikroiklimi atrofda cho'ldan namroq va yumshoqroq bo'lganidan o'simlik hamda hayvonot dunyosi o'ziga xos bo'ladi. Tuprog'i ham allyuvial, gidromorf. To'qaylarda daraxtlar bilan birga butalar ham qalin o'sadi. O'zbekiston to'qaylarida terak, tol, zarang, yulg'un, jiyda, qamish va boshqalar o'sadi. Hayvonot dunyosi: to'ng'iz, kiyik, chiyabo'ri, to'qay mushugi, tustovuq va boshqalar yashaydi.

O'zbekistonda mavjud 4 mingdan ortiq o'simlik turlarining 10-12 %i muhofaza talab (4148 tur). Eng qimmatli tog' o'rmonlarining maydoni o'nlab marta qisqarib ketgan. To'qaylar va qayir o'rmonlari ko'plab kesib tashlangan. Tabiiy yaylovlarning maydoni 6,5 mln.ga qisqargan. Tabiatni, shu jumladan uning ajralmas qismi o'simliklar dunyosini muhofaza qilish ayni zamonning eng muhim muammolaridan biriga aylandi. To'qayzordagi har bir o'simlik O'zbekiston florasining genofondini tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari.

O'simliklar dunyosi yerdagi hayotning birlamchi manbai hisoblanadi. Ular yiliga 380 mlrd.tonna organik modda hosil qiladi, buning 330 mlrd.tonn asi dengiz va okean o'simliklariga, 40 mlrd.tonnasi o'rmonlarga, 8-10 mlrd. tonnasi o'tloqlarga to'g'ri keladi. O'simliklar yer yuzidagi hayotning asosi hisoblanadi. Vodiya cheklangan maydonlarda Markaziy Farg'ona cho'li saqlanib qolgan, bu joylarda 120 ming gektar qumliklar, 80000 gektar sho'rxok joylar shuningdek, to'qayzorlar saqlanib qolgan.

Farg'ona vodiysida oqar suv ko'p. Tog'lardan daryo va soylar oqib tushadi: Norin, Qoradaryo, So'x, Isfara, Shohimardonsoy, Oqbura, G'ovasoy, Chodaksoy. Bu daryolar atrofida o'ziga xos to'qayzorlar mavjud. Bundan tashqari, O'zbekistonda Sirdaryoning Farg'ona vodiysidan o'tuvchi qismida to'qay o'simliklarining ko'p turlari yo'qolib ketgan. Respublikamizning xilma-xil, bebaxo o'simliklarini muhofaza qilish bizning muqaddas burchimiz deb bilishimiz shart. Biz faqat foydali o'simlik

turlarini emas balki, O‘zbekiston hududida o‘sayotgan har bir o‘simlik turlarini asrab avaylashimiz va ularni kelgusi avlodlarga hozirgisidan ham a’lo darajada in’om etishimiz kerak.

Muhokama.

To‘qayzorda o‘sadigan o‘simliklarning aksariyat qismidan insoniyat ayrim maqsadlarda foydalanadi. Vaqti kelib, tabiat in’omlarining zaxirasi ham bir kun borib tugaydi. Shuning uchun undan oqilona foydalanishimiz kerak. O‘simliklar tugaydigan va tiklanadigan tabiiy resurslarga kiradi. Lekin oxirgi yillarda insoniyat tomonidan o‘simlik dunyosiga bo‘lgan munosabat ularning tiklanish imkoniyatini brogan sari kamayishiga olib kelmoqda. To‘qayzorlardagi o‘simliklar haddan ziyod ko‘p kesilishi, chorva mollari yaylovlariga aylantirilishi, tabiiy ofatlar, yong‘inlarning ta’siri yosh tuplarni ham zararlantirdi. Ular o‘sadigan hududlarning keng o‘zlashtirilishi, daryo suvi rejimining o‘zgarishi, so‘nggi yillardagi iqlim o‘zgarishlari va yong‘inlar daraxtlar arealining keskin qisqarishiga sabab bo‘lmoqda. Zirk, chakanda, na’matak, jiyda, kabi bebaho dorivor butalarni ham o‘rinsiz ishlatilishi hamda kesilishi sababli keskin kamayib ketdi. Bu butalar dorivor o‘simliklik hisoblanadi va shu bilan birga, ularning mevasi to‘qayzordagi yovvoyi hayvonlar, qushlar uchun ozuqa hamdir. Bu o‘simliklarni yo‘q bo‘lib ketishini oldini olish maqsadida to‘qayzorlarning ochilib qolgan joylariga qaytadan ekishimiz lozim. Ular to‘qayzor sharoitida tez o‘sib, o‘sha joyda yana tabiiy muhitni hosil qiladi. Bu to‘qayzor ekotizimini qayta tiklashning eng samarali yo‘li hisoblanadi. Shundagina to‘qayzorlarda o‘sadigan shifobaxsh dorivor o‘simliklarni ko‘paytirish va uni qayta ishlashni yanada rivojlantirish mumkin.

To‘qayzorlar ham boshqa tabiat ne’matlar singari umumxalq boyligi hisoblanadi. Uning tabiiyligini saqlash o‘simliklar olamini asrash insoniyat uchun zarur bo‘lgan ekotizim yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zaxidov A. 3., *Vodoxozyaystvennie sistemi Sredney Azii*, T., 1971.
2. Mo'minov O., Baratov P., Mamatkulov M., Raximbekov R. *O'zbekiston tabiiy geografiyasi*. –Toshkent.: 2000
3. Tolipov G.A. G'ulomov X.G. Maxsudov J.M. Akramov I.A. *O'zbekiston Respublikasi yer kadastr*. T.: «O'zinformagroprom», 1994.
4. Toshqo'ziyev M.M., Sherbekov A.A. Yunusova D.I. *g'o'za-g'alla ekinlari tizimida tuproqlarni organik moddaga boyitishga doir izlanishlar natijalari. O'zbekiston tuproqshunoslar va agrokimyogarlar jamiyatining IV–qurultoyi materiallari*. Toshkent, 2005, b. 198-201.
5. *Туркестан – наш общий дом. Проблемы экологии и окружающей среды Центрально – Азиатского региона*. Изд. Фонда им Конрада Аденауэра в сотрудничестве с международным комитетом по экологии и охраны окружающей среды Центрально – Азиатского региона и при содействии представительства ООН в республике Узбекистана Редакторы: В.Шрайбер, П.Шермухамедов. Konrad Adenauer – Stiftung. TURAH. 1996.
6. Shuls V. L., Mashrapov R., *O'rta Osiyo gidrografiyasi*, T., 1969;

RESPUBLIKAMIZDA RANGDOR METALLURGIYANING ISTIQBOLLARI

Xolmatov Abbos Qo‘ldoshevich

Hududiy Elektr tarmoqlari AJ Surxondaryo filiali Denov TETK xodimi.

E-pochta orit4069@gmail.com

Ergasheva Zarifa Sodiqovna

Termiz muhandislik-texnologiya instituti sanoat texnologiyalar fakulteti

kimyoviy texnologiya yo‘nalishi 1- bosqich talabasi.

E-pochta zarifaergasheva686@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonda rangli va qora metallurgiya sohasini rivojlantirish kamyob tarqoq metallarni ishlab chiqarish suratini o‘stirish hamda xalqimiz turmush tarzini yaxshilash.

***Kalit so‘zlar:**Metallar kamyob nodir tarqoq qimmatbaho metallar,metallurgiya istiqbollari ishlab chiqarish korxonalari.*

Rangdor asl va nodir metallarni qazib olish, boyitish va eritishni o‘z ichiga oladigan rangdor metallurgiya uning keng tarmoqlari O‘zbekistonning dunyoviy ahamiyatga ega bo‘lgan iqtisodiy sohalaridan biri hisoblanadi. Respublikamiz xududida zahira buyicha ancha istiqbolli, qazib olishning texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlari qulay bo‘lgan qator miss, polimetall, folfram, molebden konlari, alyuminiy va magniy xom ashyolari boshqa rangdor hamda nodir metallar topilgan.

O‘zbekistonning rangdor metallurgiyasi ancha yosh ishlab chiqarish tarmoqlaridandir. Shunga qaramay uning hissasi O‘rta Osiyo Respublikalarida ishlab chiqarilgan rangdor metallarning 2.3 qismidan ko‘pi to‘g‘ri keladi.

Konlarni ishga solish jarayonida Respublikamizda 1935 yillarda volfram, molebden, 1941 yilda flyuorit, 1952 yilda qo‘rg‘oshin, rux, 1956 yilda esa mis qazib chiqarish va boyitish va hamda ularni konsentratlarini tayyorlash sanoati vujudga keldi. Dastlabki davrlarda O‘zbekistonning rangdor metallurgiyasi rudalarni qazib chiqarish, boyitish, hamda tayyorlangan konsentrantrlarni boshqa Respublikalarga tayyor mahsulot olish uchun jo‘natish bilan shug‘ullangan bo‘lsa, endilikda u mazkur sanoat hamma ishlab chiqarish bosqichlarini o‘z ichiga oluvchi to‘la siklli sanoat tarmog‘iga aylandi.

Bu sanoatning korxonalari Olmaliq, Mirintov (Zarafshon), Navoiy tog' metallurgiya kombinatlari, O'zbekiston qiyin eriydigan va issiqqa bardoshli qotishmalar kombinati (Chirchiq) Ingichka hamda Qo'ytosh, kon boshqarmalari, "O'zbekiston oltini" kombinati va boshqalardir.

Olmaliq tog' metallurgiya kombinati rangdor metallurgiyaning yirik korxonalaridan biridir. Bu kombinat mis, polimetall rudalarni qazib olish, boyitish, mis va rux eritish korxonalarini birlashtiradi.

Mis, Qalmoqqir va Sarichekuv konlaridan qazib olinadi hamda kombinat tarkibiga kiruvchi boyitish fabrikasi boyitilib, mis zavodida eritiladi. Qo'rg'oshin kon va Oltintopgan polimetall konlaridan qazib olinadigan rudalar qo'rg'oshin, rux boyitish fabrikasida boyitiladi. rux konsentrlantlari kombinat tarkibidagi rux zavodida eritiladi. Qo'rg'oshin konsentrlantlari esa eritish uchun xozircha Respublikadan tashqariga chiqarilmoqda. Olmaliq tog' metallurgiya kombinatining rux va qo'rg'oshin sanoati bilan bog'liq korxonalari tarkibiga sulfat kislotalari ishlab chiqaruvchi korxonalar xam kiradi.

Umuman Respublikamizda rangdor metallurgiyaning mis, rux va qo'rg'oshin tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari juda yaxshi.

Mis sanoatining istiqboli ishlab turgan Qalmoqqir, Sarichekuv konlarida hamda shu nihoyadagi Dalneye, Baliqti kabi konlarini ishga solish bilan cheklanmaydi. Respublikaning bir qator boshqa nohiyalarida ham istiqboli mis konlari topilgan. Ulardan muhimlari Janubiy O'zbekistondagi Xandiza Charchar, Buxoro viloyatidagi Qizilqum, Farg'ona vodiysi va boshqa joylardagi mis konlaridir. Bu 15 dan ortiq mis konini ishga solish, mis sanoatini xom ashyo bazasini kengaytiradi, yangi boyitish fabrikalari qurish, Olmaliq tog' metallurgiya kombinatidagi mis zavodini quvvatini oshirish imkonini beradi. Qalmoqqir mis konlari negizida tugal metallurgiya sikliga ega bo'lgan Olmaliq kon-metallurgiya kombinatidir. Kombinatlarning mis majmuasiga Qalmoqqir mis koni (1954) ruda boyitish fabrikaga (1957) metallurgiya zavodi (1962) dan qurg'oshin-rux kompleksi Qurg'oshinkon (1950), Oltintopgan (1955), Chlata (1971), Ruda boyitish fabrikasi (1954) metallurgiya zavodi (1970) dan iborat.

O'zbekistonda mis, qo'rg'oshin va rux sanoatining bir yerda joylashganligi muhim qulayliklar tug'diradi. Bu esa ularning chiqindilaridan xalq xo'jaligida foydalanish, rangdor metallurgiya konlari o'rtasida bog'lanish va ularning kimo sanoati bilan koorperasiyasini amalga oshirish imkonini beradi.

Mis metallurgiya kombinati Olmaliq ammos zavodiga sulfat kislotasi yetkazib bermoqda, kimyo sanoati korxonalarida sintetik tolalar, qishloq xo'jaligi uchun zaharli kimyoviy moddalar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur ishlab chiqarish komponentlari bilan ta'minlab turibdi.

O‘zbekiston rangdor metallurgiyasining kata ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir tarmog‘i volfram, molebden rudalarini qazib olish, boyitish va ular asosida qiyin eriydigan va o‘tga chidaydigan qotishmalar tayyorlash sanoatidir.

Volfram, molebden konsentratlari Chirchiqdagi O‘zbekiston qiyin eriydigan va o‘tga chidamli qotishmalar kombinatida eritiladi. Kombinat Hamdo‘stlikdagi eng yirik kombinatlardan biri bo‘lib, xilma-xil mahsulotlar (volfram va molibden simlari qattiq qotishmalar propan, tog‘ jinslarini parmalaydigan asoslar) ishlab chiqariladi.

O‘zbekiston rangdor metallurgiyasining eng ahamiyatli tarmoqlaridan biri oltin sanoatidir. Bu tarmoq ancha boy va nodir xususiyatlarga ega bo‘lgan yirik oltin konlariga ega.

O‘rta Osiyoda xususan O‘zbekiston hududidan oltin qazib olish undan turli taqinchoqlar, zargarlik buyumlari bezaklar yasash mil.av. VI-V asrlardayoq bo‘lganligi arxeologik topilmalardan ma‘lum. Sochma va tugma oltin konlari mavjud bo‘lib, sochma oltin X-XI asrlarda Chotqol, Chirchiq, Norin, Koson, Suh, Zarafshon, Darvoz daryolari vodiylarida olib borilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar bor.

Ma‘lumki, O‘zbek oltini markazga olib ketilgan 30 yillarda “O‘zbekoltinoyobmet” tresti tashkil etildi. O‘sha davrda Ohangaron, Chirchiq daryo vodiylarida, Qurama tog‘larida oltin izlovchilar, oltinli qumni yuvish usulida olganlar. 1950 yillardan boshlab razvetka qilish kuzaytirilib, Qoraquton, Bichanzor, Pirmirob, Guzaksoy, so‘ngra Kuchbuloq, Murintov, Chormiton, Marjonbuloq, Kauldi, Qizilolmalisoy, Sarmich va boshqa konlar topildi.

1970 yil Chodak oltin koni ishga tushirildi. O‘sha yillari oltin qazib olish uch marta ko‘paydi. 1972 yil Kuchbuloq koni va Angren oltin ajratish fabrikasi quvvatlarida ishlay boshladi. 1977 yil Kauldi, 1980 yil Marjonbuloq oltin qazib olish kompleksi, 1989 yil Zarmitan va Qizilolmalisoy konlari foydalanishga topshirildi.

Mustaqillik yillarida «O‘zbekiston” birlashmasi negizida O‘zRning Qimmatbaho metallar davlat qo‘mitasi tashkil etildi va bu qo‘mita 1994 yil O‘zbekiston uyushmasi (“O‘zolmosoltin”) ga aylantirildi. Navoiy shahrida bo‘lgan «Qizilqumkamyobmetalloltin” konserni (1991) faoliyat ko‘rsatmoqda.

Garchi O‘zbekistonda qadim-qadimdan oltin qazib chiqarilgan bo‘lsada, uning asosiy konlari hozirgi o‘n yilliklar davrida izlab topildi va ishga solindi. Hozirgi paytda Nurota, Chotqol tog‘lari yon bag‘irlari va markaziy Qizilqumdagi Marjonbuloq, Chodak, Murintov konlaridan oltin qazib olinmoqda. Zarafshon shahrida yirik oltin tayyorlash kombinati ishlab turibdi. 1991 yildan boshlab Olmaliq tog‘ metallurgiya kombinati tarkibida yo‘ldosh asl metallar (oltin, kumush) ni ajratib oladigan sex ishga tushirildi. Buyuk Britaniyaning «Lonro” firmasi bilan hamkorlikda markaziy Qizilqumda oltin rudalari konini ishga tushirish va oltin ajratib olish bo‘yicha katta korxonasi-“Amantayu Golfiluz” qo‘shma korxonasi loyihasi amalga oshirildi.

O'zbekiston oltinni sifati jihatidan yuqori bo'lib, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida olingan oltin yombilar London rangli metallar birjasining sertifikatini olgan (1994). Bu qimmatbaho resurslar endi mustaqil O'zbekistonning iqtisodiyotini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda alyuminiy sanoatini rivojlantirish uchun ham zarur sharoit va zahiralari mavjuddir.

Respublikada shuningdek, surma, qalay va boshqa rangdor metall konlari ham aniqlangan.

Qora metallurgiya barcha iqtisodiy nohiyalar va butun Respublika xo'jaligini har tomonlama majmui rivojlantirish uchun zarur moddiy negizdir. Qorametallurgiya mahsuloti xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida texnika taraqqiyotini belgilab beruvchi mashinasozlik sanoati uchun xom ashyo, uning asosiy poydevori hisoblanadi.

O'rta Osiyodagi birinchi zamonaviy metallurgiya zavodi qurilishi ulgum xalq xashari yo'li bilan 1942 yilda boshlangan, 1944 yilning 5 martida zavoddan dastlabki eritmasi olindi. 1945 yilning fevralida esa 2-marten pechi, 1949 yilda 3-marten pechi mahsulot bera boshladi. 1978 yil avgustda quvvati yiliga 250 ming tonna elektr bilan po'lat eritish (EPES) mahsulot bera boshladi.

Zavod tamg'ali propan mahsulotlari quvuri bilan birga 50 ga yaqin xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilmoqda.

70-yillar ikkinchi yarmida O'zbekiston metallurgiya zavodida elektr quvvati yordamida po'lat eritish sexi va yangi prokat sexi ishga tushirildi. Po'lat eritish sexidagi texnologik jarayonlarni boshqarish avtomatlashtirilgan. Zavoda keng iste'mol buyumlari, (sirlangan metall idishlar va hakoza) ishlab chiqaradigan sex ham ishlaydi.

Korxonada ishlab turgan barcha yillar davomida po'lat va prokat ishlab chiqarish uzluksiz ko'payib bordi. 1946 yilda 23 ming t. Po'lat va 3000 t. Prokat ishlab chiqarilgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar 1965 yilda tegishli ravishda 368 ming t. Po'lat va 255 ming t. Prokatni, 1990 yilda esa 1015 ming tonna pulat hamda 955 ming t. Prokatni tashkil qildi. 2005 yil 607.3 ming t. Va 562.2 ming t. Tayyor prokat ishlab chiqarildi.

Toshkentdagi «Ikkilamchi qora metall» zavodida (Buxoro, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida) temir-tersaklarni qayta ishlash maxsus korxonalar hamda sexlar qurildi.

O'zbekiston shaxar va qishloqlarini to'la gazlashtirish va ichimlik suvi bilan ta'minlash rejalari Bekobod metallurgiya zavodida metall quvurlar tayyorlaydigan maxsus sexning ishga tushurilishiga olib keldi. Gaz va suv quvurlari ishlab chiqarish yanada kengaydi.

Zavodni kelajakda yanada kengaytirish va qayta tuzish jarayonida ishlab chiqariladigan prokat turlarini mahalliy ehtiyojlarga qarab o'zgartirish mo'ljallanadi.

Bekobod zavodining quvvatini yanada oshirish davr talabidir, chunki bu korxonada hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikalarida yig'ilib qolayotgan temir-tersakning choragini ham qayta eritib ulgura olmayapti.

XULOSA

Respublika xududida qora metallurgiyani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan temir va marganes rudalari, flyus materiallari va o'tga chidamli xom ashyolar ham topilgan. Muhtaram prezindtimiz iqtisodimizni rivojlantirish yo'lida rangli metallurgiyani alohida takidlab o'tdilar. Bu xom ashyolar asosida kelajakda to'la sikli qora metallurgiya sanoatini barpo etish mumkin. Jumladan o'zbekiston hududida joylashgan foydali qazilma konlarida georazvedka ishlarini olib borib nodir metallar hamda insoniyatga zarur bo'lgan hom ashyolarni ishlab chiqarishni jadallashtirish va qora va rangli metallurgiya sanoatini rivojlantirsak iqtisodiy jihatdan yuqori samaradorlikka erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Otrabotka polimetallicheskogo mestorojdeniya Xandiza Kniga 1. Poyasnitelnaya zapiska.* V.A.Potylitsyn; M.A.Shadrin; A.V. Sredanovich; g. Moskva, 2010 g.

2. *Burovzryvnye raboty, Kurs leksiy*, YU.D.Norov, Navoiy 2006 3. *Foydali qazilmalarni er osti usulda qazib olish asoslari*, Norov YU.D., SHemetov P.A. NAVOIY-2012.

4. *Burg'ulash va portlatish ishlari*; V.R.Rahimov, N.U.Ubaydullaev. TOSHKENT «TURON-IQBOL» 2016

6. *Gorno-metallurgicheskiy kompleks: dostijeniya, problemy i prespektivy innovatsionnogo razvitiya*; Navoi 15-16 noyabrya 2016 g.

7. <http://mggu.ru> – Moskva davlat konchilik instituti .

TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA AGRORUDALARNING AHAMIYATI

Boboqulova Zilola Salimboy qizi

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti talabasi

zilolaboboqulova31@gmail.com

Mingnorova Farog‘at Fayzullo qizi

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti talabasi

farogatmingnorova@gmail.com

Boboqulova Zaynab Salimboy qizi

Buxoro davlat universiteti talabasi

boboqulovazaynab30@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tuproq unumdorligini oshirishda agrorudalrning roli, samarali foydalanish yo‘llari va uni tuproq unumdorligiga ta’siri bayon etilgan. Bentonit asosida tayyorlanagan kompost me‘yorlarining tuproq tarkibidagi chirindi miqdoriga ta’siri bo‘yicha ilmiy tadqiqot natijalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Tuproq unumdorligi, chirindi, mahalliy o‘g‘it, go‘ng, agroruda, bentonit, kompost.*

IMPORTANCE OF AGRO-MINERALS IN INCREASE OF SOIL FERTILITY

ABSTRACT

In this article, the role of agro-minerals in improving soil fertility, ways of effective use, and its effect on soil fertility stated. The results of scientific research on the effect of bentonite-based compost standards on the amount of humus in the soil were analyzed.

Key words: *Soil fertility, humus, local fertilizer, manure, agro-ore, bentonite, compost.*

KIRISH. 2022 yil yakuni bilan 3 million 501 ming tonna paxta, 7 million 995 ming tonna don, 11 million 163 ming tonna sabzavot, 2 mln 421 ming tonna poliz, 3 mln 442 ming tonna kartoshka, 2 mln 948 ming tonna meva va 1 mln 761 ming tonna

uzum yetishtirilgan. Respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Ushbu mahsulotlar tuproqdan bir necha ming tonnalab ozuqa moddalarni o'zi bilan olib chiqib ketadi. Tuproq unumdorligini saqlash hamda uni oshirish uchun ozuqa moddalarni ortig'i bilan qaytarish zarur.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun turli xildagi mineral va organik o'g'itlar qo'llanilmoqda. Ammo ilmiy manbaaladagi ma'lumotlarga tuproq unumdorligi pasayishi kuzatilmoqda. Jumladan Surxondaryo viloyatida tuproqdagi chirindi miqdori so'ngi 25 yil davomida ko'paymagan, aksincha 0.35% ga kamaygan. Uni tiklash uchun ko'plab yillar kerak bo'ladi. Agar maydonning gektariga har uch yilda 30 tonnadan mahalliy o'g'it-go'ng solib borilsa o'n yilda 0.1 foizga ko'payadi.

Gollandiya, Germaniya kab mamlakatlarda tuproq tarkibidagi chirindi miqdori 4-4,6 foizni tashkil etsa bu ko'rsatkich Rossiyada 2,4; Ukrainada 3,2; Belorussiyada 2,4; O'zbekistonda 1,1 Surxondaryo viloyatida esa 0.75 foizni tashkil etadi [1].

Mahalliy o'g'itlar qatoriga go'ng bilan bir qatorda parranda qiyi, eski devor qoldiqlari, sapropel (ko'l va suv omborlari loyqalari), shahar chiqindilar hamda kompostlarni kiritish mumkun. Kompostlar mahalliy o'g'it salmog'ini oshirishda muhim o'rin tutadi. Organik o'g'it – kompostlarning qishloq xo'jalik ekinlari o'sishi va rivojlanishiga ta'siri ko'p jihatdan tuproq tipi, iqlim xususiyatlari va tayyorlangan kompostning sifatiga bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA. Hozirgi kunda mamlakatimizda to'planadigan go'ng va boshqa organik o'g'itlar miqdori yetishmasligi sababli ularning bir gektar maydonga to'g'ri keladigan qismi o'rta xisobda 5-6 tonnadan oshmayapti. Organik o'g'itlar miqdorini ko'paytirish va sifatini yaxshilash maqsadidagi tadbirlardan biri bu turli xil organik o'g'itlarga boshqa qoldiqlar, daraxt barglari, yem xashak bo'lmaydigan ziroat qoldiqlari, eski devor qoldiqlari bir biri bilan aralashtirilib organo-mineral kompostlar tayorlash maqsadga muvofiqdir chunki, tuproqqa solingan go'ng yoki kompost mikroorganizmlar yordamida parchalanib, undagi uglerodlar esa oksidlanadi.

Buning natijasida hosil bo'ladigan karbonat angidrid tuproqdagi fosfatga ta'sir ko'rsatib uning eruvchanligini kuchaytiradi. Go'ng va kompost tarkibidagi uglerod yana mikroorganizmlar tomonidan qayta ishlanib, chirindi tarkibiga kiradigan murakkab birikmalarga aylanadi.

Mineral va mahalliy o'g'itlar taqchilligini yumshatish, tuproqning suv-fizik xossalarini yaxshilash, unumdorligini oshirishda noan'anaviy agrorudalarni qo'shimcha oziqa sifatida kompost holatida qo'llash borasida tadqiqotlar o'tkazilgan [2].

Noan'anaviy agrorudalar glaukonit, fosforit va bentonit loyqalari ko'plab mikroelement va makroelementlarga boydir, ularni arzonligi va samarasi yuqoriligi bilan dehqonlarga manzur bo'lmoqda.


Hozirda agrorudalarni ekin turi, tuproq iqlim sharoiti, oziq moddalar bilan ta'minlanish darajasi, oziq moddalarni olib chiqishi, o'g'itdan foydalanish koeffitsientini hisobga olgan holda qo'llash me'yori, qo'llash usullari va muddatlarini o'rganish kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi[3].

Keyingi yillarda Respublikamiz qishloq xo'jaligida kaliyli va fosforli o'g'itlarga bo'lgan talabning oshib borishi arzon mahalliy agrorudalardan keng miqiyosda foydalanishni taqazo etmoqda. Shu munosabat bilan mineral xom ashyolardan foydalanish nafaqat sanoat ishlab chiqarishda balki maxalliy xom ashyo sifatida qishloq xo'jaligida ham keng qo'llanilmoqda[4].

NATIJALAR. Bentonit tarkibida 0.3-4.7 % uglerod, 0.4-3.0 % kaliy, 0.3-1.0 % fosfor mavjud. Bundan tashqari ko'plab mikrounsurlar: mis, rux, bor, kobal't, molibden, marganes, oltingugurt bor. O'simlik ildizi tarqalgan tuproq qatlamidan bentonit loyqalari xarakatchan shakldagi oziqa unsurlari va gumusni suv bilan yuvilib ketishidan saqlaydi hamda tuproqda uglerod, azot, fosfor va kaliy zaxirasini ko'paytiradi[5].

Tuproqning suv-fizik xossalari, agrofizik xossalari, agrokimyoviy xossalari va unumdorligiga agrorudalarning ta'siri olimlar tamonidan o'rganilgan. Jumladan S.M.Boltayev, O.Xolmurodov ishlarida bentonint agrorudasidan tayyorlangan kompostlar tuproqning agrokimyoviy va agrofizikaviy xossalariga sezilarli ta'sir qilishin ko'rishimiz mumkun[6].

Bentonit asosida tayyorlangan kompost me'yorlarining tuproqdagi chirindi, miqdorlarining o'zgarishiga ta'siri, %



MUHOKAMA. S.Boltayev va boshqalarning tadqiqotlaridanoan'anaviy agrorudalar asosida tayyorlangan kompostlar tuproqdagi chirindi miqdoriga sezilarli darajada ta'sir etgan[6].

Bunda mineral o'g'itlar N_{150} , P_{105} , K_{75} kg/ga me'yorlarda qo'llanilgan 1 variantda (nazoratda) 0-30 sm li haydov qatlamlida gumus miqdori 0,890 haydov osti qatlamida esa 0,700% ga teng bo'lganligi aniqlangan.

Mineral o'g'itlar $N_{200}P_{140}$, K_{100} kg/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantda (2), tuproqning yuqoridagi qatlamlarida, umumiy chirindi miqdori mutanosib ravishda 0,898-0,711% ni tashkil qilgan.

Mineral o'g'itlar $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga me'yorlari fonida 15 t/ga go'ng qo'llanilgan variantda tuproqning 0-30 va 30-50sm qatlamlarida chirindi miqdori, 0,980 va 0,708% ni tashkil qilib, dastlabki holatiga nisbatan 0-30 sm da 0,092% ga ortganligi aniqlangan. Qo'llanilgan go'ngning birinchi yili minerallasuvi natijasida tuproqning haydov (0-30) qatlamida chirindi miqdori nisbatan ortganligi kuzatilgan. Nazorat variantiga nisbatan chirindi miqdori 0-30 sm qatlamda 0.09 % ga, 30-50 sm li qatlamda 0.010 foizga ortgan.

Bu holatni bentonit bilan aralashtirilgan go'ngning sifati yaxshilanganligi va ta'siri ham ortganligi bilan ifodalash mumkin.

Bu variantlarda kompost me'yorlari (16,5; 18,0; 21,0 va 24,0 t/ga) ga mutanosib ravishda tuproqning 0-30 va 30-50 smli qatlamlarida chirindi miqdori 0,990-0,710; 0,990-0,710; 1,010-0,715; 1,000-0,710 % tashkil qilgan.

Ta'kidlash joizki kompost me'yorlarining tuproqdagi chirindi, o'zgarishiga nisbatan maqbul ta'siri 21,0 t/ga qo'llanilganda kuzatilgan. Bu variantda chirindi miqdori nazoratga nisbatan 0,12-0,015% ga ortganligi aniqlangan.

Faqat (9,0 t/ga) bentonit $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga o'g'it me'yorlari fonida qo'llanilgan variantda tuproqdagi umumiy azot miqdorining nazoratga nisbatan ortishi kuzatilmagan. Chunki buni mualliflar agrorudaning tarkibida azot yo'qligi bilan ifodalaydi. Lekin umumiy fosfor miqdori tuproqning (faqat) haydov qatlamida 0,006% ga ortganligi aniqlangan.

XULOSA. Tuproqqa organik o'g'it bermay, almashlab ekish tizimlarini qo'llamay, faqat mineral o'g'itlari hisobiga hosil olinaversa yildan-yilga tuproq unumdorligining pasayib borishidan dalolat beradi. Qolaversa, noan'anaviy agrorudalarning faqat o'zini ishlatgandan ko'ra, ularni go'ng bilan aralashtirib kompost sifatida qo'llanilsa tuproq unumdorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. X.X.Zokirov va boshqalar (2021) “Tuproq unumdorligi iqtisodiy o‘shning samaradorlik manbai” *Tuproq va atrof muhit masalalari nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami*.

2. Дилбар Абдукаюмовна Тунгушева, Сайдулло Болтаев, Ренат Саидович Назаров, “Применение Нетрадиционных Агроруд И Компостов В Хлопководстве” современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования

3. С.М Болтаев, Д.Тунгушова “Нетрадиционные Агроруды Узбекистана И Их Роль В Сох Ранении Плодородия Почв. “*Ўзбекистон Қишлоқ Хўжалиги*”,

4. В.М Холиков, S.O Abduraxmonov, D.Tungushova, SM Boltayev, Abdullayev “Kuzgi bugdoy yetishtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni kullash buyicha Toshkent va Surxondaryo viloyati fermer xo‘jaliklariga tavsiyalar” Tavsiyanoma.-Toshkent

5. DA Tungushova, SO Abdurahmanov, EM Belousov, SM Boltaev “The effect of bentonite mud on the growth, development and yield of cotton” *Uzbek Cotton Research Institute. Collection of articles on the basis of reports of the international scientific–practical conference “Scientific and practical bases of increasing soil fertility”(Part I).*

6. S Boltaev, OA Kholmurodov, T Khamzaev “Efficiency of approximate organo-mineral composts for soil productivity” *Academicia Globe: Inderscience Research* 2021 2 (6)

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN ATROF-OLAMGA OID TAJRIBALAR VA MASHG'ULOTLAR TASHKIL ETISH

Nurmetova Bonu Ganjabayevna

Urganch davlat universiteti Maktabgacha
ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ilm-fan va tabiatga doir qiziqarli tajribalarni tashkil qilish va bolalarni atrof-olamga oid tassavvurlarini tajribalar asosida shakllantirish yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *Tajriba, kamalak tajribasi, "Olov havoni ifloslantiradi", g'ayrioddiy rasm, sehrli magnit.*

Xozirgi kunda maktabgacha yoshdagi shaxsni shakllantirish jarayoni va xususan ekologik ta'lim biosfera (yovvoyi tabiat: o'simliklar, hayvonlar, odamlar; jonsiz tabiat) haqidagi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bilimlar tizimiga asoslangan bo'lishi kerak; harakat, sog'liq, hayot, o'lim kabi tushunchalar haqida; ekologik makon haqida. Biosferaning kelajagi ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan eng aqlli mavjudot sifatida insonni tabiatning bir qismi sifatida bilishi ushbu tizimda alohida o'rin tutishi kerak. Ushbu bilimlar ichki madaniyatning bir qismiga aylanishi va bola xulq-atvorining motivlarini belgilaydigan ehtiyojlar tizimiga ta'sir eta boshlashi uchun, ularni egallash va o'zlashtirishni hissiy rangga, tabiat bilan uchrashish quvonchiga, istakka aylantirish zarur uni chuqurroq anglash, hamdardlik, ona yurtga muhabbat, unga nisbatan mas'uliyatni his qilish...

Bolaning tetiklantiruvchi energiyasini va qaytarib bo'lmaydigan qiziqishini qanday to'xtatish mumkin?

Qanday qilib bolaning ongidagi qiziquvchanlikdan maksimal darajada foydalanish va bolani dunyo haqida bilim olishga undash kerak? Bolaning ijodkorligini rivojlantirishga qanday yordam berish kerak? Bu va boshqa savollar, albatta, ota-onalar va tarbiyachilar oldida paydo bo‘ladi.

Maqsad: tajriba va tajribalar orqali tarbiyachilarni ekologik madaniyat bilan tanishtirish

Vazifalar: Tabiatni o‘rganishga qiziqishni uyg‘otish, aqliy operatsiyalarni rivojlantirish (tahlil, sintez, tasnif, umumlashtirish va boshqalar).

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishida tabiatga doir tajribaning ahamiyati to‘g‘risida tarbiyachilarning bilimlarini kengaytirish.

O‘zingizning kuzatuvlaringiz, tajribalaringiz, o‘zaro bog‘liqlik, muntazamlik va boshqalarni o‘rnatish asosida dunyoning rasmini ongningizda modellashtiring.

Maktabgacha yoshdagi bola bilan Tajribani to‘g‘ri tashkil etish to‘g‘risida g‘oyani shakllantirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik ongning qaysi elementlari eng xarakterlidir? Tabiat bilan aloqa qilish zarurati. Har bir bola uchun individual, tabiat bilan aloqani uyg‘otadigan estetik va axloqiy tuyg‘ular.

Tajribalar o‘tkazish, Tajribalarni tashkil etish maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatini tarbiyalashning eng samarali usullaridan biridir. Tadqiqot faoliyati bolalar uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Tajribalar “fokuslar” ga o‘xshaydi. Faqat hiyla-nayranglarning jumbog‘i hal qilinmagan bo‘lib qoladi, ammo hamma narsa tushuntirilishi va tushunilishi mumkin. Tajribalar bolaning tafakkurini, mantig‘ini, ijodkorligini rivojlantirishga, tabiatda yashash va yashamaslik o‘rtasidagi bog‘liqlikni vizual tarzda ko‘rsatishga yordam beradi. Tadqiqotlar bolaga “qanday qilib”? Degan savollarga javob topish imkoniyatini beradi. va nima uchun?

Tajribalar davomida olingan bilimlar uzoq vaqt davomida eslab turiladi. Har bir bola uchun o‘z tajribalarini o‘tkazish muhimdir.

Bola hamma narsani o‘zi qilishi kerak, kuzatuvchi rolida bo‘lmasligi kerak.

Bolalar uchun tajriba - bu atrofdagi dunyoni bilishga yo‘l.

Tabiat buyuk tarbiyachidir, shuning uchun bolalarda tirik mavjudotlar - yer, suv bo‘lmaganida – odamlarni yer yuzida yashamasligini aniq anglab yetish zarur.

Atrofdagi dunyo qanchalik boy bo‘lsa, kattalar va bolalar uchun bu dunyoda yashash yaxshi bo‘ladi. Bola tabiatni qanchalik tez o‘rgansa, unga g‘amxo‘rlik qilishni, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatni his qilishni o‘rgansa, u shunchalik boy va mehribon bo‘lib o‘sadi. Tarbiyachi bolalar ongiga jonli va jonsiz tabiat tushunchasini singdirishi kerak.

Tajriba usulining asosiy afzalligi shundaki, u bolalarga o‘rganilayotgan obyektning turli jihatlari to‘g‘risida, uning boshqa obyektlar bilan atrof-muhit bilan aloqalari to‘g‘risida haqiqiy g‘oyalarni beradi. Tajriba jarayonida bolaning xotirasi boyitiladi, uning fikrlash jarayonlari faollashadi, chunki tasniflash, umumlashtirish va ekstrapolyasiyalarni taqqoslab, tahlil va sintez operatsiyalarini bajarish zarurati doimo paydo bo‘ladi. Tajribalarning bolaning hissiy sohasiga, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishga va jismoniy faollikning umumiy darajasini oshirish orqali sog‘lig‘ini yaxshilashga ijobiy ta‘sirini qayd etmaslik mumkin emas.

Shunday qilib, tajribalar qobiliyatlarni rivojlantirishni amalga oshirish uchun yangi ekologik fikrlash, yo‘l bilan yangi turdagi bolani shakllantirish kerak o‘z harakatlarining atrof-muhit bilan bog‘liq oqibatlaridan xabardor bo‘lish va kim tabiat bilan nisbatan uyg‘unlikda yashashni biladi

Sizning e‘tiboringizga muammoli savollar bilan ertak beraman, unga tajribalar yordamida javob berish kerak. (Hikoya davomida tarbiyachilar taqdimotchi bilan yurishadi va tajribalar o‘tkazadilar va nima bo‘lganini ko‘rishadi.)

“Tovuq sayohati yoki parrandachilik hovlisining panjarasi ortidagi dunyo” mavzusidagi tajribalar

Qishloqda, parrandachilik hovlisida juda qiziq tovuq yashar edi. Uning ukalari va opa-singillari juda itoatkor edilar u esa hamma narsaga qiziqar edi. Bir marta u parrandachilik hovlisining panjara ortida nima borligini bilmoqchi bo‘ldi va u dunyoni kashf etish uchun ketdi.

To'siqdan chiqib, u yo'l bo'ylab yurdi va to'satdan u yerda tog'oradagi suvni ko'rdi. Yaqinroqdan nazar tashlamoqchi edi? Bolalar, kimda fanar bor? Keling, buni o'zimiz qilaylik.

1-tajriba

“Kamalak tajribasi”. Idishdagi suvning tagiga ko'zguni tashlaymiz. Fanarni yoqib suvning tubiga qaratamiz. Qo'limizga qog'oz olib hosil bo'lgan suvdagi nurni qog'ozda ushlab turamiz. Natijada turli hil ranglar ya'ni kamalak ranglari hosil bo'ladi. Demak suv o'zidan nurni qaytarar ekan. Tovuq bu tajribadan keyin juda xursand bo'lib yo'lida davom qiladi. To'satdan, unchalik uzoq bo'lmagan joyda, u olovni ko'rdi. Yaqinlashib, qo'rqinchli va nafas olish qiyinlashdi. Nima uchun tovuq o'ylab qoldi?

2-tajriba

“Olov havoni ifloslantiradi.” Sham yoqing. Olov yonmoqda. U havoni ifloslantirishi mumkinmi? Stakan yoki chinni stakanni (1-2 sm) masofada sham alangasi ustida ushlang. Biroz vaqt o'tgach, ushbu buyum quyida qora rangga aylanganini ko'rasiz - soot qatlami bilan qoplangan. Xulosa: yonish paytida tabiatni ifloslantiruvchi zararli moddalar chiqadi)

Jo'ja juda charchagan va uyga qaytishga qaror qildi. Sovg'asiz qaytishni istamadi. Men atrofga qaradim va ko'plab chiroyli o'simliklarni ko'rdim, lekin tovuq ularni uyiga olib kelish va ularning barcha go'zalligini yetkazish uchun qanday o'ylagan?

Biz hozir bir qancha tajribalari ko'rib chiqdik. Bu tajribalarning barchasi bolalarda ijodiy dunyoqarashni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ergashev A. *Umumiy ekologiya*. – T.: O'zbekiston, 2003. – 463 b.
2. Yusupova P.A. *Ekologik tarbiya. Tabiat bilan tanishtirishning yo'l va shakllari. // Maktabgacha tarbiya*. – T.: 1992. – 63 b
3. *Maktabgacha ta'lim muassasalarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo'yicha trening moduli*. T.: 2017-y.

VIRUSLI GEPATIT B EPIDEMIOLOGIYASI VA PROFILAKTIKASI**Saydaliyeva Mohira Zayniddin qizi**

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti Tibbiy profilaktika fakulteti 4-bosqich talabasi

Bekmirzayeva Zarnigor Isomiddin qizi

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti Tibbiy profilaktika fakulteti 4-bosqich talabasi

Xasanova Barfena Akmal qizi

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti Tibbiy profilaktika fakulteti 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Parenteral (muloqot) mexanizmi bilan yuqadigan virusli gepatitlar bu surunkali kechadigan, etiologiyasi jihatidan turlicha bo'lgan, antroponoz yuqumli kasalliklar bo'lib, ushbu kasalliklarni gepatotrop viruslar keltirib chiqaradi. Bu kasallik viruslari asosan qon aylanish tizimida bo'lib, klinik ko'rinishlari turlicha namoyon bo'ladi. Parenteral (muloqot) mexanizmi orqali yuqadigan virusli gepatitlarga B, C, D, G va hali noma'lum bo'lgan turli boshqa viruslar kiradi.

Parenteral yo'l bilan yuqadigan viruslarning biologik va epidemiologik xususiyatlari

Viruslar	Oilasi	Turi	Hajmi (nm)	Genomi	Genotiplari	Mutatsiya bo'lish xususiyatlari	Chidamliligi	Konserogenligi	Qonda va boshqa suyuqliklarda borligi	Virusemiya davomiyligi
B	Gepadnavirus	Orthohepadnavirus	42	DN K	Uchraydi 7 genotiplari	Bor	Yuqori	B or	+++	Uzoq muddatli yoki surunkali

C	Flavivirus	Hepacivirus	50	RN K		6 genotiplari	Bor	O'rtacha	B or	+++
D	Viroid	Floating Genus	36	RN K		3 genotiplari	?	Past	B or	++
G	Flavivirus	Hepacivirus	25	RN K		5 genotiplari	Yaxshi o'rganilma gan	Yaxshi o'rganilmagan	B or	+++

Kalit so'zlar: Parenteral, gepadnavirus, gepatokarsinoma, Virusli hepatit B, VGB, infeksiya, profilaktika, DNK, RNK, plazma, vaksina, jigar sirrozi.


Muammoning dolzarbligi. Virusli hepatit B (VGB) – surunkali, ba'zi xollarda o'tkir kechuvchi yuqumli kasallik hisoblanib, ushbu kasallikni gepadnavirus keltirib chiqaradi. Bu kasallik yengil shakldan tortib to og'ir, o'lim bilan tugaydigan turli xil klinik belgilar bilan kechuvchi, ko'p xollarda og'ir asoratlanadigan, aholi o'rtasida keng tarqalgan kasallikdir. Bu kasallik qo'zg'atuvchisining asosiy manbai – VGB ning surunkali turi bilan kasallangan bemorlar, surunkali virus tashuvchilar, klinik belgilari yaqqol mavjud bo'lgan o'tkir shakldagi bemorlar, kasallik belgilari namoyon bo'lmagan, klinik belgilersiz, yengil shakldagi bemorlar bo'lishi mumkin. Klinik belgilari yaqqol namoyon bo'lgan bemorlar bilan, klinik belgilari yuzaga chiqmagan bemorlar nisbati 1:40 dan 1:200 gacha bo'lishi mumkin. Gepatokarsinoma, jigar sirrozi va surunkali nofaol hepatitni boshidan kechirayotgan bemorlar infeksiya manbai sifatida nisbatan kamroq epidemiologik xavf tug'diradi, eng xavfli infeksiya manbai esa bu kasallikning surunkali faol shaklini boshidan kechirayotgan bemorlardir. Kasallikning yashirin davri (virus yuqqan paytdan to klinik belgilar namoyon bo'lguncha o'tgan vaqt) 60 kundan 180 kungacha bo'lishi mumkin. O'rtacha yashirin davr 2,5-3 oyni tashkil etadi. Virusli hepatit B kasalligi parenteral (muloqot) yo'li bilan yuqadi, bunda teri yoki shilliq qavatlar butunligi buzilib, viruslar qon orqali yoki organizmning boshqa suyuqliklari orqali sog'lom odamga yuqadi. Ushbu kasallik sog'lom insonlarga tabiiy va sun'iy yuqish yo'llari

bilan yuqadi. Tabiiy yuqish yo‘llariga jinsiy aloqa vaqtida, otaning zararlangan urug‘i orqali chaqaloqqa va homilador onadan tug‘ish vaqtida bolaga yuqishi kabi holatlarni keltirish mumkin.

Virusli gepatit B kasalligining butun dunyo aholisi orasida keng tarqalganligi ushbu infeksiyaning hozirgi davrda eng dolzarb muammolardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Dunyo bo‘yicha 2 milliard odamda VGB infeksiyasi bilan kasallangan yoki bu kasallikni boshidan kechirganligini ko‘rsatuvchi HbsAg aniqlangan bo‘lib, shundan 350-400 million odam surunkali virus tashuvchilaridir. Har yili dunyo bo‘yicha 50 million odam kasallikning o‘tkir shakli bilan kasallangani va 2 million odam VGB kasalligi sababli vafot etishi aniqlanadi.

Mamlakatimizda esa Virusli gepatit B ning o‘tkir shakli bilan kasallanish holatlari ilgari vaqtlarda birmuncha ko‘p bo‘lgan. Oxirgi yillarda bolalarni rejali emlash natijasida kasallikning o‘tkir shakllari ancha kamaydi. 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar orasida bu kasallik deyarli aniqlanmayapti.

O‘zbekistonda virusli gepatit B ga qarshi emlashgacha (2000-y.) va emlashdan keyingi (2012-y.) davrlarda kasallanish ko‘rsatkichi (100000 aholiga nisbatan)



Virusli gepatit B kasalligining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar maxsus va maxsus bo‘lmagan turlarga bo‘linadi. VGB kasalligiga qarshi kurash olib borishda, kasallik viruslarining manbai bo‘lmish virus tashuvchilar sonini kamaytirish asosiy o‘rinda turadi. Shu tufayli ushbu kasallik profilaktikasida asosiy e‘tiborni VGB kasalligiga qarshi maxsus emlashga qaratish lozim.

Ushbu maxsus emlash reja asosida barcha yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni tug‘ilgan kundan boshlab emlash va qayta emlash, shuningdek o‘smirlarni katta

yoshdagilarni reja asosida va epidemiologik ko'rsatmalarga binoan emlash tarzida amalga oshiriladi. Virusli gepatit B infeksiyasini kelajakda xuddi shunday maxsus emlash orqali kamaytirish mumkin. 2000-yildan buyon mamlakatimizdagi chaqaloqlar rejali emlab kelinmoqda va bu milliy emlash kalendariga kiritilgan. Emlash uchun vaksinala Davlat byudjetidan sotib olinmoqda. Rejali emlash boshlangan vaqtdan to hozirgacha mamlakatimizda yosh bolalar o'rtasida Virusli gepetit B bilan kasallanish xolati 4-5 barobarga kamaygani aniqlangan.

Profilaktik chora-tadbirlarga shuningdek infeksiya manbaiga qaratilgan choratadbirlar ham kiradi. Masalan qon, plazma, sperma beruvchi donorlar orasida infeksiya manbaini erta aniqlash, jinsiy aloqalar davrida kasallik yuqishining oldini olish.

Xulosa. Virusli gepatit B kasalligiga chalinish va tarqalishini oldini olish uchun, kundalik shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish, pala-partish jinsiy aloqa qilishdan saqlanish, har qanday teri butunligi buziladigan amalyotlar (stomatologiya, genekologiya, manikyur, go'zallik salonlari, sartaroshxonalar) bajarilganda ishchilar tomonidan sanitariya qoidalariga rioya qilinishiga e'tibor berish va eng asosiysi rejali ravishda qilinadigan Virusli gepatit B kasalligi infeksiyasiga qarshi emlashni o'z vaqtida olish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Беляков В.Д., Яфаев Р.Х. Эпидемиология. Москва, 1989*
2. *Усмонов М.К. Эпидемиология. Тошкент, 1995*
3. *Елкин И.И. Эпидемиология. Москва, 1989*
4. *Черкасский Б.Л. Эпидемиология и профилактика бешенства. Москва, 1985*

МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Атаниязов Жасурбек Хамидович,

Тошкент молия институти кафедра мудири,

иқтисодиёт фанлари доктори, профессор

E-mail: jasurbek156@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада миллий иқтисодиётни ривожлантиришнинг долзарб масалалари, пандемиянинг иқтисодий ривожланишига таъсири ҳамда пандемия шароитида мамлакатимизда макроиқтисодий барқарорлик ва иқтисодий ўсишни сақлашга хизмат қилган асосий омиллар таҳлил этилган. Шунингдек, глобал иқтисодиётда инқирозли ҳолатнинг шаклланиши, пандемия ва бошқа глобал хавф-хатарлар шароитида макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш борасида илмий таклиф ва тавсиялар келтирилган.

Калим сўзлар: экспорт, инфляция, ялпи ички маҳсулот, халқаро савдо, туризм, капитал, ялпи талаб ва ялпи таклиф, инвестиция, инсон капитали.

ABSTRACT

This article analyzes current issues of the development of the national economy, the impact of the pandemic on economic development and the main factors that contributed to maintaining macroeconomic stability and economic growth in the country during the pandemic. There are also scientific proposals and recommendations for ensuring macroeconomic stability in the face of a crisis in the global economy, a pandemic and other global threats.

Key words: export, inflation, gross domestic product, international trade, tourism, capital, aggregate demand and aggregate supply, investment, human capital.

КИРИШ

Маълумки, сўнгги йилларда мамлакатимизда ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник ва технологик жиҳатдан янгилаш, юқори технологияли қайта ишлаш тармоқларини қўллаб-қувватлаш, иқтисодиёт тармоқлари учун самарали рақобатбардош муҳитни шакллантириш, ички ва ташқи бозорларда миллий товарларнинг рақобатбардошлигини таъминлаш, иқтисодиётда энергия ва ресурслар сарфини камайтириш, экспорт таркибини ва географиясини диверсификация қилиш, шунингдек иқтисодиёт тармоқлари ва ҳудудларнинг экспорт салоҳиятини кенгайтириш ва шу орқали миллий иқтисодиётни барқарор ривожлантиришга қаратилган иқтисодий ислоҳотлар фаол равишда амалга оширилмоқда.

Мазкур ҳолатни қуйидаги долзарб масалалар билан изоҳлаш мумкин: биринчидан, миллий иқтисодиётни барқарор ривожланишини таъминлаш, унинг тармоқларида ишлаб чиқариш суръатларининг ўсишига эришиш мамлакатнинг халқаро рақобатбардошлигини оширишнинг муҳим омили ҳисобланади; иккинчидан, жаҳон бозоридаги кескин рақобатлашув шароитида миллий ишлаб чиқарувчиларнинг юқори сифатли ва рақобатбардош маҳсулотлар билан жаҳон бозорларига чиқишини фаоллаштириш зарурияти; учинчидан, илмий сиғими юқори бўлган маҳсулотлар ишлаб чиқаришга қаратилган тенденцияларнинг ривожланиши ва шунга мувофиқ тарзда саноат тармоқларида ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник ва технологик жиҳатдан янгилаш жараёнларида миллий иқтисодиёт доирасида доимий равишда замонавий технологиялар ҳамда инновацияларни яратиш ва жорий этишни талаб қилади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганларидек, “Алоҳида таъкидлаш лозимки, Янги Ўзбекистон модернизациялашган иқтисодиётга таянади. Бундай иқтисодиётни шакллантириш учун ундаги давлат иштирокини камайтириш, хусусий мулк ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва унинг ролини янада кучайтириш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожини рағбатлантиришга қаратилган институционал ва таркибий ислоҳотларни давом эттириш зарур [1].

Миллий иқтисодиётни барқарор ривожлантириш кўп жиҳатдан иқтисодиёт тармоқ ва соҳаларини техник ва технологик жиҳатдан янгилаш, юқори технологияли қайта ишлаш тармоқларини барпо этиш бўйича қулай шарт-шароитларни яратиш билан бевосита боғлиқдир. Шу боисдан, мамлакатимизда

иқтисодиётнинг барқарор ривожланиши учун иқтисодиёт тармоқларининг ролини, айниқса уларнинг юқори қўшимча қийматли тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш салоҳиятини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Мазкур жараёнда асосий эътибор берилиши бўлган муҳим жиҳатлар яратилган макроиқтисодий муҳитга, яъни инфляциянинг белгиланган меъёри, солиқ даражаси, молиявий ресурсларни жалб этиш имконияти ва улардан самарали фойдаланиш ҳолати, миллий валюта курсининг ўзгариш динамикаси ҳамда ташқи иқтисодий фаолиятни ташкил этишга боғлиқ бўлади.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ

Глобаллашув шароитида миллий иқтисодиётни ривожлантиришнинг асосий шарт-шароитлари ва хусусиятлари, унга таъсир кўрсатувчи омиллар кўплаб хорижий ва маҳаллий иқтисодчи олимлар томонидан махсус илмий тадқиқот сифатида ўрганилган бўлиб мазкур тадқиқотлар муҳим илмий ёндошувларга эгадир. Жумладан, барқарор ривожланиш масалалари D.Meadows[8], E.Daley[3], J.Harris[6], R.N.Solow[11], Л.Мельник[13] асарларида тадқиқ этилган бўлиб, улар томонидан “барқарор ривожланиш” тушунчасининг умумий тавсифини ва уни таъминлашнинг усуллари ҳамда мумкин бўлган йўллари келтирилган. Шунга қарамай, барқарор ривожланиш мақсадларини амалий жорий этиш учун зарур бўлган омиллар ва шарт-шароитлар етарлича таҳлил қилинмаган.

Классик иқтисодчи олимлардан А.Смит ва Д.Рикардоларнинг тадқиқотлари миллий иқтисодиётни барқарор ривожлантиришнинг асосий иқтисодий назарияларига бағишланган бўлса, бошқа қатор иқтисодчи олимлар миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигини ошириш ва уни ривожлантиришнинг замонавий тенденциялари ва хусусиятлари борасида илмий тадқиқотлар олиб боришган[12, 9].

Л.Вальрас[7], Ж.Р.Хикс[4], П.Самуэльсон[10] каби таниқли хорижий иқтисодчилар мукамал рақобат шароитида бозор мувозанатини таъминлашга бағишланган асарларида барқарор ривожланиш муаммоларини тадқиқ этишган.

Мамлакатимиз иқтисодчиларидан А.Вахабов миллий иқтисодиётни барқарор ривожлантиришда таркибий ўзгаришларни амалга ошириш ҳамда барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг муҳим омиллари борасида қатор тадқиқотлар олиб борган.[2] Шунингдек, маҳаллий олимлардан А.Исаджанов барқарор ривожланиш мақсадлари, устувор йўналишлари ва долзарб вазифалари борасида тадқиқотлар олиб борган ҳолда барқарор ривожланиш учун зарурий

шароит яратишга қаратилган чора-тадбирлар юзасидан илмий тавсиялар ишлаб чиққан.[5]

Жаҳон иқтисодиёти глобаллашуви шароитида қутилмаган иқтисодий ўзгаришлар шароитида миллий иқтисодиётларнинг ривожланишига салбий таъсир этувчи омилларни тадқиқ этиш долзарб масала ҳисобланади.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Қулай макроиқтисодий муҳит билан миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланиши ўртасидаги ўзаро боғлиқликнинг мавжудлиги замонавий назарияларнинг асосий ёндошувларига тўлиқ мос келган ҳолда бир қатор амалий тадқиқотларда ўз исботини топган. Шу боисдан, миллий иқтисодиётни барқарор ривожлантиришдаги асосий кўрсаткичлардан бири бўлиб, макроиқтисодий мувозанатни таъминланишининг юқори даражасига эришиш ҳисобланади.

Бизга маълумки, миллий иқтисодиётнинг ривожланиш ҳолатини ифодаловчи кўрсаткичлардан асосийси мамлакатда яратилган ялпи ички маҳсулот бўлиб, унинг ўсиш суръатлари орқали бевосита иқтисодий ривожланиш ҳолатини баҳолаш мумкин.

Сўнгги йилларда мамлакатимизда макроиқтисодий барқарорликни янада мустаҳкамлаш ва юқори иқтисодий ўсиш суръатларини сақлаб қолиш борасида амалга оширилган муҳим чора-тадбирлар, хусусан 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг қабул қилиниши ва унда иқтисодиётни янада ривожлантириш ва либераллаштириш бўйича устувор вазифаларнинг белгиланиши натижасида миллий иқтисодиёт тармоқларида юқори натижаларга эришилмоқда. Жумладан, мамлакатимизда ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) ишлаб чиқариш ҳажми 2022 йил якунларига кўра 888,3 трлн. сўмни ташкил этган ҳолда 2021 йилга нисбатан 153,7 трлн. сўмга ошди.

Ушбу натижага иқтисодиётнинг барча тармоқларида ислохотларнинг тизимли ва изчиллик билан амалга оширилиши туфайли эришилди. Хусусан, ички ва ташқи бозорлардаги талаблар асосида ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник ва технологик жиҳатдан янгилаш, принципиал жиҳатдан янги маҳсулот ва технология турларини ўзлаштириш жараёнларининг изчил амалга оширилганлиги, иқтисодиётда энергия ва ресурслар сарфини камайтириш, ишлаб чиқаришга энергия тежайдиган технологияларни кенг жорий этиш ва меҳнат унумдорлигини ошириш ҳисобига миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлиги ошди.

Жадвал

2018-2022 йилларда Ўзбекистонда асосий макроиқтисодий кўрсаткичларнинг ўзгариши[14]

Кўрсаткичлар	2018 йил	2019 йил	2020 йил	2021 йил	2022 йил
Ялпи ички маҳсулот (млрд. сўм)	424 728,7	529 391,4	602 193,0	734 587,7	888 341,7
Инфляция даражаси (ўсиш суръати) ўтган йилнинг декабр ойига нисбатан (фоизда)	14,3	15,2	11,1	10,0	12,3
Саноат маҳсулоти (млрд. сўм)	235 340,7	322 535,8	368 740,2	451 633,9	551 050,9
Истеъмол товарлари (млрд. сўм)	83 512,6	110 321,0	129 348,6	152 042,8	197 892,7
Қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги (млрд. сўм)	195 095,6	224 265,9	261 892,2	317 781,6	364 522,8
Асосий капиталга киритилган инвестициялар (млрд. сўм)	124 231,3	195 927,3	210 195,1	244 962,6	269 857,5
Қурилиш ишлари (млрд. сўм)	51 129,3	71 156,5	88 130,3	107 447,6	130 767,1
Хизматлар, жами (млрд. сўм)	150 889,8	193 697,8	219 978,5	283 301,6	357 554,5
Ташқи савдо айланмаси (млн. АҚШ. долл.)	33 429,9	41 751,0	36 256,1	42 071,6	50 008,4
Экспорт (млн. АҚШ. долл.)	13 990,7	17 458,7	15 102,3	16 610,6	19 309,1
Импорт (млн. АҚШ. долл.)	19 439,2	24 292,3	21 153,8	25 461,0	30 699,3

Статистик маълумотларга эътибор қаратадиган бўлсак, 2022 йилда ялпи ички маҳсулот ҳажми 2018 йилдагига нисбатан қарийб икки баробарга ошган ҳолда 888,3 трлн. сўмни ташкил этди. Миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланишини таъминлашда мамлакат саноати етакчи ўрин тутди. Хусусан,

саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш умумий ҳажми сўнгги йилларда барқарор ўсиш суръатларига эга бўлди, жумладан мазкур кўрсаткич 2022 йилда 551 трлн. сўмни ташкил этгани ҳолда 2017 йилга нисбатан 315,7 трлн. сўмга ошган. Бу жараёнда мамлакатимизда саноат салоҳиятини ривожлантириш, ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник ва технологик янгилашга доир тармоқ дастурлари доирасида амалга оширилган чора-тадбирлар муҳим аҳамият касб этди.

Сўнгги йилларда мамлакатимизда макроиктисодий барқарорлик ва иқтисодий ўсишни сақлашга хизмат қилган асосий омиллар сифатида қуйидагиларни қайд этиш мумкин:

- иқтисодиёт тармоқ ва соҳаларида ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник ва технологик жиҳатдан янгилаш ишларини фаол тарзда олиб борилганлиги ҳамда юқори технологияли ишлаб чиқаришларни ташкил этилганлиги;

- ташқи савдони эркинлаштириш ҳамда валюта сиёсати барқарорлигини таъминлаш борасидаги чора-тадбирларнинг самарали тарзда амалга оширилганлиги;

- молия, пул-кредит сиёсати бўйича таъсирчан механизмларнинг амалиётга татбиқ этилганлиги;

- хусусий секторни ривожлантириш бўйича имтиёзли режимларнинг жорий қилинганлиги;

- барқарор олтин-валюта заҳирасининг шакллантирилганлиги;

- пухта ўйланган ташқи қарзлар сиёсатини амалга ошириш ҳамда жалб қилинган хорижий инвестиция ва кредитлардан самарали фойдаланиш асосида маблағларни истиқболли лойиҳаларни амалга оширишга йўналтирилганлиги;

- ташқи иқтисодий фаолиятни рағбатлантириш, етакчи халқаро ва хорижий молиявий институтлар билан алоқаларни кенгайтириш борасида муҳим ислохотларнинг амалда қўлланилганлиги ва бошқалар.

Қайд этиш жоизки, мамлакатимизда саноат маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш, саноат тармоғида фаолият юритаётган хўжалик юритувчи субъектларни рағбатлантириш ҳамда ЯИМ таркибида саноатнинг улушини ошириш бўйича бир қатор ижобий натижаларга эришилмоқда. Жумладан, 2022 йилда саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми олдинги йилга нисбатан сезиларли даражада ошган. Миллий иқтисодиётда саноатнинг ривожланиш хусусияти саноатнинг қайта ишлаш тармоқларида фондлар қайтими ва меҳнат унумдорлигининг жадал ўсиш тенденциясига эришганлиги билан изоҳланади.

Сўнгги йилларда амалга оширилган ислохотлар туфайли саноат бўйича меҳнат унумдорлигининг жадал ўсишига эришилди. Бунга биринчи навбатда,

экспорт қилувчи корхоналарни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва уларнинг барқарор фаолиятини таъминлаш, инвестицион фаолликни ошириш, ишлаб чиқаришга энергия тежайдиган технологияларни кенг жорий этиш, ташқи иқтисодий фаолиятни эркинлаштириш борасида амалга оширилган чора-тадбирлар сабаб бўлди. Мамлакатимизда ташқи иқтисодий фаолиятни ривожлантиришга қаратилган таъсирчан чора-тадбирларнинг амалга оширилиши натижасида тадбиркорлик субъектларининг жаҳон бозорларига чиқишига қулай шароит яратилди ва бу жараён миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланишига ижобий таъсир кўрсатмоқда. Чунки, миллий иқтисодиётнинг ривожланишида унинг ташқи дунё билан алоқалари ҳолати, мамлакатнинг халқаро молия муносабатларидаги иштироқи муҳим ўрин тутди. Мамлакатнинг халқаро молия муносабатларидаги иштирокининг кучайишида халқаро молия муносабатларини амалга ошириш механизмларини самарали тарзда ташкил этиш билан узвий боғлиқдир[2].

МУҲОКАМА

Ҳозирги кунда мамлакатимизда ишлаб чиқарилган, қайта ишланган маҳсулотларнинг жаҳон бозорларидаги улуши сезиларли бўлса-да, уни янада ошириш имкониятлари мавжуд. Миллий иқтисодиётнинг экспорт салоҳиятини ривожлантириш ва унинг маҳсулот таркибини диверсификация қилиш иккита ўзаро алоқадор бўлган омиллар гуруҳи орқали белгиланади. Бир томондан бу табиий ресурслар соҳасидаги қиёсий устунликлар билан тавсифланган статик омиллар бўлиб уларнинг таъсири натижасида кейинчалик юқори технологик ва юқори даражада қайта ишланган маҳсулотларга эътиборни кучайтиришга имкон яратилади. Бошқа томондан бу инновациялар ва илмий-техник ютуқлар билан боғлиқ бўлган динамик равишда ўзгариб турадиган рақобат устунлиги омиллари ҳисобланади. Мазкур омилларнинг биргаликда узвий ҳаракати натижасида миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигини ошириш, экспортнинг барқарор ўсишини ва умуман иқтисодиёт ривожидан рағбатлантирувчи таъсирни таъминлашга эришилади.

Қайд этиш лозимки, мамлакатимизнинг ташқи иқтисодий фаолияти ва жаҳон хўжалигига интеграцияси мажмуи аниқ белгиланган мақсадлар ҳамда уларни амалга оширишга қаратилган асосий тадбирларни ўз ичига олади. Бунинг учун аввало миллий иқтисодиётнинг кучли экспорт бўғинини ташкил этувчи ва унинг жаҳон бозорида муносиб ўринни эгаллашини таъминловчи тармоқларни аниқлаш, шунингдек, иқтисодиётнинг экспорт соҳасида давлат томонидан қўллаб-қувватлаш усулларида кенг фойдаланиш лозим.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб қилиб айтганда, миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланишини таъминлаш борасида сўнгги йилларда мамлакатимиз ҳукумати томонидан амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотлар иқтисодий ўсишнинг барқарор пойдевори сифатида хизмат қилмоқда. Жаҳон иқтисодиётида пандемиянинг салбий таъсирлари ҳали тўлиқ бартараф бўлмаганлигини ҳисобга олган ҳолда, миллий иқтисодиётнинг яқин истиқболда барқарор юқори ўсиш суръатларини таъминлашда қуйидаги йўналишлар бўйича чора-тадбирларни янада фаоллаштириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

– миллий иқтисодиёт тармоқларида ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник янгилаш ва диверсификация қилиш ишларини янада фаол давом эттириш;

– саноатда юқори қўшилган қийматга эга бўлган маҳсулотлар турини кенгайтириш ва сифат жиҳатидан рақобатбардошлик даражасини ошириш;

– инсон капиталига инвестициялар киритишни фаоллаштириш орқали истиқболда илмий сиғими юқори бўлган маҳсулотлар ишлаб чиқариш кўламини кенгайтириш;

– иқтисодиёт тармоқларида фаолият юритувчи корхоналарнинг экспорт ва импорт тузилмасини, уларнинг ишлаб чиқариш салоҳиятини ривожлантириш ҳамда экспорт таркибини диверсификациялашга қаратилган чора-тадбирларни фаоллаштириш;

– фаол инвестиция сиёсатини олиб бориш орқали муҳим стратегик аҳамиятга молик лойиҳаларни амалга ошириш, шунингдек хорижий капитални аввало моддий экспортга йўналтирилган ва импорт ўрнини босувчи ишлаб чиқаришга жалб қилиш;

– миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожининг муҳим омили сифатида янги иш ўринларини яратиш орқали аҳолининг бандлик даражасини ошириш ҳамда мазкур жараёнда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ролини оширишга қаратилган чора-тадбирларни янада рағбатлантириш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O’zbekiston” нашриёти, 2021. 138 б.
2. Атаниязов, Ж. Х., & Алимардонов, Э. Д. Халқаро молия муносабатлари» Тошкент-2014. УФМЖ., Дарслик, 279, 280.
3. Вахабов А. Иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни амалга ошириш ва барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашни методологик жиҳатлари // “Ўзбекистон иқтисодиётини институционал ривожлантириши: ютуқлар, муаммолар, ечимлар” номли анжуман материаллари. -Т.: ТДИУ, 2016 йил 12 март.
4. Daley E. (1996) *Beyond Growth: The Economics of Sustainable Development*, Boston, Massachusetts: Beacon Press.
5. John R. Hicks. *A Theory of Economic History (Oxford Paperbacks) 1st Edition*. 1969. 181 p.
6. Isadjanov, Abduvali (2018) "The sustainable development goals: priority directions and actual tasks," *The Light of Islam: Vol. 2018: Iss. 1, Article 20*.
7. Harris J. (2000) *Basic principles of sustainable development*. Medford, Massachusetts: Tufts University. 26 p.
8. Leon Walras. *Elements of Pure Economics, or The Theory of Social Wealth*. Orion Editions (March 1, 1984). 620 p.
9. Meadows D., Randers J., Meadows D. (2004). *Limits to growth: The 30-year update*. Chelsea Green Publishing. 338 p.
10. Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Избранное / Д. Рикардо. - М.: Эксмо, 2007. 960 с.
11. Самуэльсон, П. Экономика. М.: Прогресс.-1964.-С.-780.
12. Solow R.N. (1956). *A contribution to the theory of economic growth*. *The Quarterly Journal of Economics*, vol. 70, issue 1, pp. 65-94.
13. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов / А. Смит. - М.: Эксмо, 2007. - 960 с.
14. Устойчивое развитие: теория, методология, практика: учебник / Под ред. Л.Г. Мельника. - Сумы: Университетская книга, 2009. - 1230 с.
15. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги маълумотлари.

TEONIMIK MUROJAAT BIRLIKLAR

Raximova Norjongul Mahsud qizi

UrDU magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yaratganga qaratiluvchi murojaat birliklarining leksik-semantik jihatlarini yuzasidan fikrlar o‘rin olgan. Shuningdek, Yaratganga qaratilgan murojaat birliklarini ishoraviy birliklar, presuppozitsion birliklar va Alloh sifatleri orqali ifodalanuvchi murojaat birliklarga ajratilgan holda mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *teonim, murojaat birlik, presuppozitsion birlik, ishoraviy birlik, Alloh sifatleri...*

ANNOTATION

This article contains thoughts on the lexical-semantic aspects of units of reference to God. Also, the units of reference to God are considered by dividing them into indicative units, presuppositional units, and units of reference expressed through the attributes of God.

Keywords: *theonym, referential unit, presuppositional unit, indicative unit, attributes of God*

O‘zbek tilshunosligida teonimlar o‘z tadqiqini kutib turgan birliklar hisoblanadi.

Tilimizdagi teonimlarni to‘plash, guruhlarga tasniflash, tarixiy-lisoniy xususiyatlarini o‘rganish bugungi o‘zbek tilshunosligining yechimini kutayotgan tadqiqotlaridan biridir. Biz ushbu maqolamizda teonimlarning kommunikatsiya jarayonida murojaat birliklari sifatida qo‘llanilishiga, Yaratganga qaratilgan murojaat birliklarining leksik-semantik jihatlariga e‘tibor qaratdik.

Murojaat birligi birikmasi semantik tarkibida “*undash, da‘vat qilish, buyurush*” kabi semalar bilan bir qatorda “*e‘tiborni jalb qilish, murojaat qilish, birovga qarata aytilgan gap, chaqiriq*”, so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabati kabi turli konnotativ ma‘nolarni ifodalaydi¹. Murojaat birliklaridan nutqda tinglovchi e‘tiborini tortish, xitob qilish, undash kabi maqsadlarda foydalaniladi. Bunday birliklarda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida yaqinlik, hurmat, ishonch; hurmatsizlik, ishonchsizlik kabi kommunikativ munosabatlar ham ifodalangan bo‘ladi.

¹ Ahmedova N. O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantiv-konnotativ tadqiqi. Filol. fanlari nomzodi ... diss. – Toshkent, 2008. – B.66.

O‘zbek xalqi nutqda yagona Yaratuvchiga nisbatan murojaat birliklari sifatida *O‘zing, Sen, Iloh, Alloh, Alloh Azza va jalla, Alloh taolo, Tangri, Tangri taolo, Taboraka va taolo, Haq, Haq taolo, Haq rasul, Xoliq, Razzoq, Robbi, Rabbano, Parvardigor, Parvardigori olam, Xudo, Xudoyo xudovando, Rahim, Rahmon, Jabbor, Qodir, G‘affor, G‘ufron, Ug‘on, Karim, Buzurg, Yaratgan, Olamlar egasi, Yaratgan egam, Sattor egam, Rahmon egam, Mavlom, Subhon Azim, Subhon Alloh, Subhon Izim* singari lug‘aviy birliklar, ya’ni teonimlardan foydalanadi. Bunday birliklarni struktur jihatdan sodda so‘z shaklida va birikma shaklidagi murojaat birliklariga ajratish mumkin. U, Tangri, Alloh, Xudo leksemalari tuzilishi jihatidan sodda birliklarga kirsam, birikma holatida qo‘llaniluvchi Yaratgan egam, Parvardigori olam, Subhon Alloh leksemalari murakkab murojaat birliklar hisoblanadi. Murakkab holda qo‘llaniluvchi murojaat birliklarida ko‘pincha sifatlar semani bo‘rttirish, muqaddaslashtirish darajasini oshirish uchun ishlatiladi: pok Tangri, oliy Tangri, ulug‘ Tangri.

Yaratuvchiga nisbatan murojaatni ifodalashda qo‘llaniladigan lug‘aviy birliklarni quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

1. Ishoraviy birliklar orqali ifodalanuvchi teonim murojaat birliklar;

Bunda ishoraviy birliklar: o‘zi, sen olmoshlari Alloh lug‘aviy birligiga sinonim birlik sifatida ishlatiladi:

Hama shohlar shahanshoi Sen,

Ki, zohiru botinni ogohi Sen

yoki

Bu qulg‘a na huru na g‘ilmon kerak,

O‘zung muddao, O‘zung muddao (Majzub Namangoniy)

Ushbu misralarda ko‘ribg‘urganimizdek, shoir Alloh leksemasi o‘rnida O‘zi, Sen ishoraviy birliklarini qo‘llagan. Matn mazmunidan kelib chiqadigan bo‘lsak, ushbu ishoraviy birliklar orqali Yaratganga murojaat qilinayotganini anglaymiz.

2. Presuppozitsion birliklar orqali ifodalanuvchi teonim murojaat birliklar;

Presuppozitsiya fransuzcha “presupposer” fe’lidan olingan bo‘lib, “mo‘ljallamoq”, “taxmin qilmoq” degan ma’nolarni anglatib, pragmatik belgini mantiqiy, falsafiy va lisoniy tahlil qilishni ko‘zda tutadi¹. Presuppozitsiyada kommunikantlarga oldindan ma’lum bo‘lgan axborotlarga tayaniladi.

Presuppozitsiya shunday qilib, talab qilinayotgan lisoniy faoliyat ijrosidan oldin sodir bo‘ladigan, nazarda tutilgan implitsit axborotdir². Masalan, quyidagi misralarda

¹Ko‘chiboyev A. Matn pragmalingsvistikasi. – Samarqand, 2015. – B.83.

²Ko‘rsatilgan asar. – B.84.

muallif Allohga murojaatni amalga oshirish uchun hammaga ma'lum bo'lgan axborotni qo'llash orqali murojaat qiladi. Ya'ni, Allohga xos bo'lgan *toat, qudrat, dargoh, ostonang, jon olmoq* leksemalaridan biz yagona Yaratuvchiga murojaat qilinayotganini sezishimiz mumkin.

Jonini ol, nuri iymoni bilan, (Majzub Namangoniy)

Ushbu misrada Allohga xos bo'lgan *jon olish* sifatini qo'llash orqali murojaat amalga oshirilgan. "Asmoul husno" kitobida Yaratganning *al-Mumit* ismi "o'limni yaratuvchi, xohlagan bandasi jonini xohlagan vaqtida oluvchi" deb izohlangan.

*Kelur qudratingdin bahoru xazon,
Saning san'atindin gulu guliston.*

yoki

*Zihi qudratingg'a guvohlik berur,
Musattah zaminu muallaq samo,* (Majzub Namangoniy)

Keltirilgan misralarda ham murojaatning presuppozitsion birliklar orqali ifodalanayotganini ko'rish mumkin. Bunda adresat Allohga ishonch, e'tiqodni ifodalashda *qudrat* leksemasini qo'llaganiga guvoh bo'lamiz.

*Qulluq ichra odat qilay qilsang qabul,
Yo'qluq ichra ado bo'lsam misli rasul,
Bu olamda hech kim yo'qtur mandek malul,
G'arib bo'lub ostonangda o'lmayinmu? (Ahmad Yassaviy)*

Ushbu namunalarda ham Yaratganga murojaat qilishda hammaga ma'lum bo'lgan axborot orqali murojaat amalga oshirilgan. Matnda keltirilgan *qulluq, qabul qilsang, ostonang* presuppozitsion birliklarining qo'llanilgani *Allohim* undalmasining mavjudligini ko'rsatib turibdi.

3. Alloh sifatleri orqali ifodalanuvchi teonim murojaat birliklar;

Murojaatning bu shaklida Allohning sifatleri undalma vazifasida keladi. Ma'lumki, islom dinida Allohga xos sifatlar 99 ta deb ko'rsatiladi. Biroq ularning hammasi ham murojaat birliklari sifatida qo'llanilmaydi. Quyidagi misollarda eng faol qo'llaniluvchi teonimik murojaat birliklarni keltirib o'tamiz:

*Sandin ato, Karimsan, qilsa xatoni badkish,
San-san Xudoyi barhaq, bizdin kerak parastish.*

Karim (al-Karim) – Allohning ismi sifatidan biri bo‘lib, karamli, sahovatli, shavqatli, kechirimli demakdir¹.

Sonsiz salom-salovat, et Haq taolo, nozil (M. Namangoniy)

Ushbu misrada ham adresat Allohga xos bo‘lgan sifat orqali Yaratganga murojaat qiladi. **Haq (al Haq)** – mavjudligi haqiqatan tasdiqlangan, Haq, Haqni yuzaga chiqaruvchi Zot².

So‘zlovchi o‘z suhbatdoshiga murojaat qilib, uni turlicha ataydi va unga nisbatan o‘zining munosabatini bildiradi. Natijada so‘zlovchining nutqi qaratilgan bir obyekt har xil nomlanadi. Bunday vaqtda undalma bir obyektning bir necha xususiyatlarini ifodalovchi so‘zlardan iborat bo‘ladi³.

Xoliq, yo Avvalo, yo Oxiro,

Nafsi shayton jonima bo‘ldi balo. (M. Namangoniy)

Ushbu misralarda Allohning uchta sifati murojaat birligi bo‘lib kelgan. Ya’ni, **al-Xoliq** – avval yo‘q bo‘lgan narsalarni Yaratuvchi, har bir narsani aniq o‘lchov bilan hal qiluvchi⁴, **al-Avval** – boshlanishining avvali yo‘q, barcha narsadan avval bo‘lgan Zot⁵, **al-Oxir** – mahluqotlar o‘lib ketgandan so‘ng ham boqiy qoluvchi, hech qachon o‘lmaydigan, mavjudligining ohiri yo‘q Zot⁶.

Boqiy, jovid jahondor erur,

Bor edi, bordurur, bor erur. (M. Namangoniy)

Al-Boqiy ham Alloh sifatlaridan biri bo‘lib mumtoz adabiyot namunalarida murojaat birligi sifatida keladi. **Al-Boqiy** – doim boqiy turuvchi, foniylilik sifatidan holi⁷.

Borurumda uyqug‘a, yo Ahad,

Desam uyg‘onib dog‘i yo Somad,

¹ Omonturdiyev J. Ma’rifiy-irfoniy iztilohlar izohli lug‘ati. – Toshkent, 2014. – B.63.

² Ziyovuddin R. Go‘zal ismlar ma’nosi. – Toshkent, 2019. – B.11.

³ Sayfullayev A. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida undalma. – Toshkent, 2019. – B.54.

⁴ Ziyovuddin R. Go‘zal ismlar ma’nosi. – Toshkent, 2019. – B.7.

⁵ O‘sha asar, bet-13

⁶ O‘sha asar, bet-14

⁷ O‘sha asar, bet-17

As-Somad – “mutloq hokim”, “doim barhayot turuvchi”, “hech kimga hojati tushmaydigan, aksincha mahluqotlari hojatini ravo qiluvchi Zot¹.

Qahr aylama man osiyga Izim Jabbor,

yoki

Sattor egam, yo 'l ko 'rsatgin gumrohingga,

Rahmon egam, aro yo 'lda qoldim mano. (A.Yassaviy)

Yuqorida keltirilgan misollarda Allohning **al-Jabbor** – mahluqotlari ustidan mutloq G'olib, ularga o'zi xohlagan amr-qaytariqlarni joriy qiluvchi; **ar-Rahmon** – o'ta Mehribon, karamli, barcha mahluqotlarga, jumladan, kofirga ham, mo'minga ham rizq beruvchi Zot; **Sattor** – himoya qiluvchi, qo'riqlovchi; to'sib bekitib turuvchi; gunohlarni kechiruvchi, afv etuvchi; Allohning sifatli ismlari murojaat birliklarining shakllaridir.

Hodiy o'zung, sansiz hech kim yo 'lg'a solmas,

Gunohimdin yig'lab sanga keldim mano. (A.Yassaviy)

Al-Hodiy – xohlagan bandasini to'g'ri yo'lga yo'llovchi, hidoyatga boshlovchi.

Ikki olam bandangdurman, G'afforimsan,

(A.Yassaviy)

Al-G'affor – kechiruvchi, shavqat etuvchi, Xudoning sifatli ismlaridan.

Alloh, Alloh, subhanalloh, qayon ketay?

Alloh – O'z sifatida, zotida yagona, ibodat qilish uchun eng munosib, undan boshqa iloh yo'q Zot. Ushbu misrada Alloh undalmasi takror qo'llanilib, kutilmagan voqelikning yuz berishi, yoki eshitalishi bilan bog'liq aytiladi; taajjub, hayrat, hayajon ifodalaydi².

Bundan tashqari Rab, Tangri, Iloh, Xudo, Parvardigor, Taolloh, Ug'on, Izim kabi Yaratganga nisbatan qo'llaniluvchi leksemalar ham murojaat birliklari sifatida qo'llaniladi.

¹O'sha asar, bet-13

²Omonturdiyev J. Ma'rifiy-irfoniy iztilohlar izohli lug'ati. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2014. –B.12

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, murojaat birliklari nafaqat shaxslarga, tabiat hodisalariga, jonli jonsiz predmetlarga balki, Yaratuvchiga qaratilgan murojaat birliklariga ajratilishi yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladi. Allohga murojaatni ifodalashda Alloh sifatlaridan eng faol qo'llanadiganlari Boqiy, Vohid, Qahhor, Xoliq, G'affor, Hodiy, Rahim, Rahmon, Jabbor, Sattor, Somad, Avval, Ohir, Karim, Haq kabi ism sifatlardir.

Murojaatda Allohga Sen, O'zing ishoraviy birliklarini qo'llash Yaratganga yaqinlikni oydinlashtirsa, presuppozitsion birliklar orqali murojaatda hammaga ma'lum axborotni berish orqali diqqatni jalb qilishga harakatni sezishimiz mumkin. Undalma vazifasida Alloh sifatlarining qo'llanilishi muallifning hayotiy tajribasi, dunyoqarashini aks ettiribgina qolmay, Yaratuvchi leksemasiga teng keluvchi birliklarning son jihatdan ko'p ekanligini isbotlaydi. Bu esa, o'z navbatida onomastika sohasida kelajakda qilinishi kerak bo'lgan tadqiqotlar ko'pligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantiv-konnotativ tadqiqi. Filol. fanlari nomzodi ... diss. – Toshkent, 2008.*
2. *Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (Yangi topilgan namunlar). –Toshkent, 2004.*
3. *Fuzuliy & Mashrab. Axtarib keldim seni. – Toshkent: O'zbekiston, 2013.*
4. *Ko'chiboyev A. Matn pragmalingvistikasi. – Samarqand, 2015.*
5. *Majzub N. Oshiq manam. – Toshkent: Hilol nashr, 2020.*
6. *Omonturdiyev J. Ma'rifiy-irfoniy iztilohlar izohli lug'ati. – Toshkent, 2014.*
7. *Sayfullayev A. Hozirgi o'zbek adabiy tilida undalma. – Toshkent, 2019.*
8. *Ziyovuddin R. Go'zal ismlar ma'nosi. – Toshkent, 2019.*

ОСОБЕННОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ В ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Сулейманова Эльвина

Студентка Андижанского Государственного
Университета кафедры методика начального
и дошкольного образования.

АННОТАЦИЯ

В статье раскрыты особенности педагогического проектирования в дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова: дошкольный возраст, проект, метод проектов, проектная деятельность

ABSTRACT

The article reveals the features of pedagogical design in a preschool educational organization.

Keywords: preschool age, project, project method, project activity.

В настоящее время система дошкольного образования, ориентированна на полноценное развитие личности каждого ребенка, которая выдвигает постоянно повышающиеся требования к воспитательно-образовательному процессу в ДОО.

Пересматриваются прежние ценности, цели и педагогические средства мы видим что меняются и задачи педагогической деятельности:

- воспитание такой личности, который будет способен встраиваться в социум;

- позитивно вести себя в нем, самостоятельно мыслить;

- добывать и применять знания (а не только слушать и учить наизусть);

- тщательно обдумывать принимаемые решения;

- Формировать умение планировать свои действия. Реализация этих задач связана с формированием педагога, способного работать с ребенком на результат, воспитывать у него коммуникативные навыки и умения, отходить в организации учебно-воспитательного процесса от авторитаризма, развивать стремление к самостоятельной деятельности.

Одним из эффективных средств решения данных задач дошкольного учреждения считается метод педагогического проектирования, как одну из форм планирования и организации воспитательно-образовательной работы,

влияющую на формирование компетентности педагогов, выработку у них исследовательских умений, развитие креативности, прогнозирования, поиска инновационных средств и, таким образом, повышающую качество воспитательно-образовательного процесса.

В настоящее время не существует однозначного толкования сущностных характеристик проекта. Проект понимается как:

- индивидуальное представление педагога о своей

будущей деятельности, в то время как план, по мнению В.В. Краевского, — форма фиксации проекта.

- проект как проблема «может означать подлинную ситуацию творчества, где человек перестает быть просто собственником идей, отказывается от своего частного, чтобы получить шанс натолкнуться на что-то другое, наполниться им, проявить его в своем творчестве» [4].

- как специально организованный педагогом и самостоятельно выполняемый обучающимися, комплекс действий, завершающихся созданием творческого продукта [4].

Макаренко характеризовал «проект», «проектный метод» и «метод проектов» следующим образом:

Проект – это буквально «брошенный вперед», то есть прототип, некий прообраз какого-либо объекта, вида деятельности, а проектирование превращается в процесс создания определенного проекта.

Проектный метод – если в школьном образовании он рассматривается как некая альтернатива классно-урочной системы, то в дошкольном образовании – как некая альтернатива учебно-воспитательной системы.

Метод проектов – в свою очередь, педагогическая технология, ориентированная не на интеграцию фактических знаний, а на их применение и приобретение новых [3].

Разновидностью проектной деятельности являются **проектные задачи**.

Под проектной задачей А. Б. Воронцов понимает задачу, в которой через систему или набор заданий, целенаправленно стимулируется система детских действий, направленных на получение еще никогда не существовавшего в практике ребенка результата («продукта»), и входе решения которой происходит качественное самоизменение группы детей. Проектная задача принципиально носит групповой характер. Решение проектных задач дает возможность младшим школьникам освоить основы проектной деятельности в учебном сотрудничестве [1].

Проектные задачи имеют творческую основу. Решая их, дети не ограничиваются рамками обычного учебного задания, они вольны придумывать,

фантазировать. Основная цель проектных задач – вовлечение детей в размышление о том, что неизвестно, формирование у них разных способов сотрудничества. Главное условие – возможность переноса известных детям способов действий (знаний, умений) в новую для них практическую ситуацию, где итогом будет реальный детский продукт (текст, схема таблица и др.) [1].

И.В. Штанько считает метод проектной деятельности одним из перспективных направлений, способствующих повышению качества дошкольного образования. Основываясь на личностно-ориентированном подходе к обучению и воспитанию он развивает познавательный интерес к различным областям знаний, формирует навыки сотрудничества.

В дошкольном учреждении метод проектов традиционно используется в рамках занятий по:

ознакомлению с социальной действительностью при этом используется информационно-практико-ориентированные и творческие проекты;

экологическому воспитанию и образованию детей: чаще всего проекты, которые осуществляются на данных занятиях, носят исследовательский характер;

развитию изобразительного творчества (в частности, в процессе работы над изготовлением коллективных коллажей): данные проекты, в основном, имеют исследовательский и творческий характер;

развитию театрализованной деятельности детей и в процессе подготовки к праздникам: проекты данного рода относятся к сюжетно-ролевым.

В проектировании очень важно соблюдать необходимый баланс между развитием, стимулируемым действием взрослого, и саморазвитием, обусловленным собственной активностью ребенка. Этот баланс строится на оптимальном соотношении ребенок –взрослый или соучастии на партнерских правах.

Следуя принципам отечественных ученых и педагогов-практиков, можно отметить, что детское проектирование может быть успешным, если соблюдаются следующие условия:

- учет интересов ребенка;
- деятельность без принуждения, «от всего сердца»;
- тематика (проблема) из опыта ребенка;
- предоставление самостоятельности и поддержка детской инициативы;
- совместное со взрослым поэтапное достижение цели.

Ребенок еще мал и не может самостоятельно сформулировать проблему, в этом ему помогают взрослые. В каком поле их искать? В практике дошкольной педагогики условно выделяются четыре группы проблем: семья, природа,

рукотворный мир, общество и его культурные ценности. Темами совместного проектирования могут быть:

-альбомы с рисунками, фотографиями и рассказами на темы: «Мой любимый братик», «На выставке цветов», «Домашние любимцы», «Путешествие на море» и другие, которые можно часто рассматривать, показывать родственникам и друзьям;

-рассказы: «Сказки нашего дома», составление карты своего района или города с описанием, рисунками и фотографиями достопримечательностей;

-изготовление макета по русским сказкам;

-домашние выставки: «Умелые руки», «Открытки к празднику», «Детская мода», «Путешествие в страну бабочек» и др.

Как происходит освоение проектной деятельности дошкольником?

До 5 лет ребенок развивается на подражательно-исполнительском уровне. Отсутствие необходимого жизненного опыта не позволяет ему в полной мере проявлять самостоятельность в выборе проблемы и способов его решения. Поэтому активная роль принадлежит взрослому. Внимательное отношение к потребностям детей, изучение их интересов позволяют определить проблему, «заказываемую» детьми. Как показывает практика, дети с удовольствием выполняют задания, предлагаемые взрослым. Интерес к содержанию проекта зависит:

-от удовлетворения разнообразных интересов ребенка;

-реализации потребностей в активной деятельности;

-степени самовыражения;

-увлеченности совместной деятельности со взрослым.

К концу пятого года жизни дети накапливают определенный социальный опыт, позволяющий им перейти на новый, развивающий уровень проектирования. В этом возрасте продолжает развиваться самостоятельность, ребенок способен сдерживать свои импульсивные побуждения, терпеливо выслушивать взрослого и других участников совместной деятельности. Перестраиваются отношения со взрослыми: дошкольники реже обращаются к ним с просьбами, активнее организуют самостоятельную деятельность, у них развивается самоконтроль; они способны достаточно адекватно оценивать собственные поступки; принимают проблему, уточняют цель, способны выбрать необходимые средства для достижения намеченного результата. [5].

Первые попытки детей самостоятельно решить проблему необходимо замечать и поощрять, сообщая ребенку о его успехах: «Ты быстро придумал!», «Хорошо, что ты вовремя пришел ко мне на помощь!». Это помогает ребенку

осознать свое поведение, понять, что он делает правильно, а где допускает ошибки.

В этом возрасте активность взрослого постепенно снижается. Он не столько генерирует свои идеи, сколько подключается к реализации детских идей. Взрослому важно увлечься тем, что интересно детям, помочь им расширить темы проектирования. Со временем у детей наблюдается высокий уровень интереса, обусловленного познавательным и личностным развитием.

Проектная деятельность является проектной только в том случае, если прямое действие в той или иной ситуации оказывается невозможным. Другими словами, если ребенок захотел нарисовать рисунок, взял для этого карандаш, лист бумаги и осуществил свой замысел, то эта деятельность не будет считаться проектной – все действия ребенок выполнил в рамках традиционной продуктивной деятельности.

В ходе проектной деятельности дошкольник исследует различные варианты решения поставленной задачи, по определенным критериям выбирает оптимальный способ решения. Например, ребенок хочет сделать подставку для карандашей или кисточек. Реализация этой задачи в случае проектной деятельности не осуществляется сразу. Сначала дошкольник пытается представить несколько вариантов изготовления подставки. Поскольку в дошкольном возрасте доминирует образное мышление, то варианты выполнения поставленной задачи могут быть представлены в форме рисунка. Создав несколько изображений, ребенок удерживает в своем сознании целый ряд вариантов. При наличии нескольких вариантов появляется возможность их анализа путем сопоставления друг с другом, выявления их достоинств и недостатков. Фактически каждый такой вариант позволяет дошкольнику лучше понять то, что он собирается делать и уяснить последовательность действий. При изготовлении подставки ребенок может использовать различный материал. Поэтому при сопоставлении рисунков может учитываться материал будущей поделки. Кроме того, при сравнении рисунков могут приниматься во внимание люди, которые будут участвовать в совместном проекте. При организации проектной деятельности необходимо учитывать тот факт, что в дошкольном возрасте замысел ребенка, как правило, намного опережает его технические возможности. В связи с этим взрослые, в первую очередь родители должны оказывать помощь дошкольнику при реализации замысла. Совместная деятельность позволяет детям и родителям лучше понять друг друга, установить доверительные отношения.

Таким образом, целью педагогического проектирования является решение некоторой актуальной проблемы, основанное на принципиально новом способе.

Как правило, педагогическая проблема находит концентрированное выражение в противоречии между потребностями общества, выраженными в социальном заказе, и невозможностью педагогической науки своевременно их удовлетворить. Поэтому основополагающая цель педагогического проектирования видится в выявлении, интерпретации и выполнении социального заказа. Но последний выступает лишь основой, предпосылкой педагогического проектирования и требует конкретизации, целей проектировочной деятельности педагога.

СПИСОК ЦИТИРУЕМОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Колесникова, И.А. Педагогическое проектирование: учеб. Пособие для высш. учеб. заведений [Текст] / И.А. Колесникова, М.П. Горчакова-Сибирская; под ред. В.А. Слостенина, И.А. Колесниковой. – 3-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2008. – 288с.
2. Солодянкина О.В. Система проектирования в дошкольном учреждении.// методическое пособие. - М.: АРКТИ, 2010. - 80с.
3. Морозова, Л.Д. Педагогическое проектирование в ДОУ: от теории к практике [Текст] / Л.Д. Морозова. – М.: ТЦ Сфера, 2010. – 128с. – (Приложение к журналу «Управление ДОУ»).
4. Веракса Н. Е., Веракса А. Н. Проектная деятельность дошкольников. Пособие для педагогов дошкольных учреждений.— М.: Мозаика — Синтез, 2008. — 112 с.
5. Штанько И.В. Проектная деятельность с детьми старшего дошкольного возраста. // Управление дошкольным образовательным учреждением. 2004, №4.

TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	Qodirova, X., & Ihomboyeva, M. (2023). OMON MATJON LIRIKASIDA SIFATLASHLARNING QO‘LLANILISHI. SCHOLAR, 1(4), 4–7. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1648
2	Нуриддинова , У., & Мусурмонова , П. (2023). НЕОБХОДИМОСТЬ, СУЩНОСТЬ И ФУНКЦИИ КРЕДИТА. SCHOLAR, 1(4), 8–14. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1649
3	Хо‘jayev , Н. Н. о‘g‘li, & Ismoilov , О. Т. о‘g‘li. (2023). O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BOZOR IQTISODIYOTIGA O‘TISH DAVRI TARIXI. SCHOLAR, 1(4), 15–18. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1650
4	Шавкатбекова , Р., & Рузикулова , М. (2023). АНДИЖОННИНГ ЭРАМИЗДАН АВВАЛГИ ҚАДИМИЙ АРХЕОЛОГИК ТОПИЛМАЛАРИ. SCHOLAR, 1(4), 19–22. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1651
5	Atabayeva , К., & Nazarova , О. О. qizi. (2023). JAMIYATIMIZDA IQTISODIY SOHALARDA AYOLLARNING O‘RNI. SCHOLAR, 1(4), 23–27. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1676
6	Расулова, М., Сайдалиева, М., & Бекмирзаева , З. (2023). УСТАНОВЛЕНИЕ ДАВНОСТИ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НОСА МЕТОДАМИ ЛУЧЕВОЙ ДИАГНОСТИКИ. SCHOLAR, 1(4), 28–31. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1653
7	Бахриддинова , Ж. С., & Баратова , М. (2023). НАЦИОНАЛЬНАЯ ВАЛЮТА УЗБЕКИСТАНА И ПУТИ ЕЁ УКРЕПЛЕНИЯ. SCHOLAR, 1(4), 32–38. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1654

8

Yusupova , D. T. qizi. (2023). OILADA MADANIY VA MA'RIFIY TARBIYA ASOSLARI, FARZAND TARBIYASI VA UNDA OILA A'ZOLARINING ROLI. SCHOLAR, 1(4), 39–42. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1655>

9

Abduraxmonov , A. T. o'g'li. (2023). O'ZBEKISTONDA "PAXTA ISHI", "O'ZBEK ISHI" KAMPANIYALARI BOSHLANISHI. SCHOLAR, 1(4), 43–50. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1658>

10

Mustafoyev, A., Mustafoyeva, M., Kodirov, B., & Djalilov , M. (2023). QUYOSH QURILMASIDA TAYYORLANGAN KERAMIK PLITANING TEXNIK-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI. SCHOLAR, 1(4), 51–55. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1659>

11

Мустафоев, А., Мустафоева М., Кодиров, Б., & Джалилов , М. (2023). ҚУЁШ ҚУРИЛМАСИДА ҚАЙТА ИШЛАНГАН МАҲАЛЛИЙ ХОМ-АШЁЛАР АСОСИДА ТАЙЁРЛАНГАН КЕРАМИК ПЛИТАНИНГ ХОССАЛАРИ. SCHOLAR, 1(4), 56–61. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1660>

12

Davlatboyeva , N. Z. qizi. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMNING NOAN'ANAVIY SHAKLLARINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI. SCHOLAR, 1(4), 62–65. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1661>

13

Boltayev , O. N., Shaymanov , I. I., & Abdinazarov, F. U. (2023). OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATIDA MIS ISHLAB CHIQRISHNING CHIQINDISIZ TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH MUAMMOLARI. SCHOLAR, 1(4), 66–69. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1662>

14

Karriboyeva , L. F. qizi. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA MEZONLAR ASOSIDA BOLALARDA RIVOJLANISH JARAYONINING SIFAT VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI. SCHOLAR, 1(4), 70–72. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1663>

15

Nurmatov , A. B. o'g'li. (2023). FARG'ONA VODIYSI TO'QAYZORLARI VA TO'QAY O'SIMLIKLAR MUHOFAZASI. SCHOLAR, 1(4), 73–76.

Retrieved from

<https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1664>

16

Xolmatov , A. Q., & Ergasheva , Z. S. (2023). RESPUBLIKAMIZDA RANGDOR METALLURGIYANING ISTIQBOLLARI. SCHOLAR, 1(4), 77–81. Retrieved from

<https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1665>

17

Boboqulova , Z. S. qizi, Mingnorova , F. F. qizi, & Boboqulova , Z. S. qizi. (2023). TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA AGRORUDALARNING AHAMIYATI. SCHOLAR, 1(4), 82–86. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1668>

18

Nurmetova , B. G. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN ATROF-OLAMGA OID TAJRIBALAR VA MASHG'ULOTLAR TASHKIL ETISH. SCHOLAR, 1(4), 87–90. Retrieved from

<https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1669>

19

Saydaliyeva , M. Z. qizi, Bekmirzayeva , Z. I. qizi, & Xasanova , B. A. qizi. (2023). VIRUSLI GEPATIT B EPIDEMIOLOGIYASI VA PROFILAKTIKASI. SCHOLAR, 1(4), 91–94. Retrieved from

<https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1670>

20

Атаниязов , Ж. Х. (2023). МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. SCHOLAR, 1(4), 95–103.

Retrieved from

<https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1671>

21

Raximova , N. M. qizi. (2023). TEONIMIK MUROJAAT BIRLIKLAR. SCHOLAR, 1(4), 104–109. Retrieved from

<https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1672>

22

Сулейманова , Э. (2023). ОСОБЕННОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ В ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ. SCHOLAR, 1(4), 110–115. Retrieved from

<https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1673>